



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021, № 4

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yaxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **A.Yu. Umarov**
Ijtimoiy hamkorlik xorijiy mamlakatlarida uzluksiz ta'lim asosi sifatida
- 9 **O.K.Xudayorova, I.T.Muradov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatish tamoyillari, mezonlari, integratsiya va uzviylikni ta'minlash masalalari
- 14 **O.Musurmanova**
Innovatsion pedagogik texnologiyalar – ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omili
- 18 **X.T.Qurbonova**
Uzluksiz ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati
- 22 **P.X.Djuraev**
Внедрение дистанционного обучения студентов на основе бизнес процессов в вузе
- 26 **A.X.Maxmudov**
Непрерывное развитие креативных способностей детей дошкольного и начальной школы через шахматы
- 30 **Д.Д.Шарипова, Н.Г.Комилова, Х.Хушвактова**
Приобретение здоровьесберегающих знаний в системе непрерывного образования по оказанию помощи лицам, оказавшимся в экстремальных ситуациях
- 34 **М.Б.Маттиазарова**
Теория и практика организации перспективного менеджмента в сфере образования
- 39 **У.Р.Каримов**
Организационно-управленческие механизмы массовости в общеобразовательных школах на основе непрерывного спортивного движения

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 44 **U.M.Lutfillayev, M.X.Lutfillayev**
Uzluksiz ta'limda kompyuter imitatsion modellar asosida virtual resurslarni web-ilovasidan foydalanib o'qitish texnologiyalari
- 48 **T.T.Absalomov**
Axborot texnologiyalarini elektron qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqishda bilingval – ta'limni CLIL texnologiyasidan foydalanish
- 53 **Z.A.Umarova**
Raqamli media ta'lim muhitida ta'lim jarayoni: mediaresurslarning pedagogik imkoniyatlari
- 57 **F.A.Umarova**
Uzviylik ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida loyihalashni modellashtirish
- 62 **G.Xoligova**
Ta'lim tizimida AKT va axborot xavfsizligi omillari

MA'NAVIY TARBIYA

- 66 **A.S.Xolmurodov**
Xalq ta'lim xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning dolzarb vazifalariga doir
- 70 **K.A.Abdullayev**
Ta'lim tizimi bosqichlarida fanlararo integratsiya texnologiyalaridan foydalanish
- 74 **F.M.Murodov**
Qomusiy mutafakkir olimlarning ilmiy merosi va undan foydalanish
- 78 **P.M.Medemosa**
Национальная толерантность в процессе устойчивого развития образования
- 81 **Б.М.Судоев**
К изучению понятия принципа природосообразности в народной педагогике

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 86 **D.M.Xakimova**
Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularni malakasini oshirishning zaruriyati
- 90 **Sh.X.Doniyorov**
Pedagoglarning o'quvchilar jamoasi faoliyatida yagona komandaning tashkil etishidagi o'rni
- 94 **B.Umarov**
Uzluksiz ta'lim muhitida o'quvchi-talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ayrim masalalari
- 99 **M.L.Saipova**
Maktab psixologining ekstremal vaziyatni boshidan kechirgan bolalarga ko'rsatadigan yordami turlari

XORIJIY TILLARNI O'QITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH – DAVR TALAABI

- 104 **B.Sh.Sapayeva**
Xorijiy davlatlarning harbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish amaliyoti
- 109 **S.T.Azizova**
Xorijiy tillarni o'qitish va samaradorligini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari



IJTIMOY HAMKORLIK XORIJIY MAMLAKATLARIDA UZLUKSIZ TA'LIM ASOSI SIFATIDA

A.YU.UMAROV,
TDPU rektori, f-m.f.n

Mazkur maqolada ijtimoiy hamkorlik tushunchasi ijtimoiy munosabatlar tizimini, jamiyat ijtimoiy hayotida faoliyat yurituvchi shaxs yoki ma'lum ijtimoiy qatlam, shu kabi individ va guruhlarining jismoniy va aqliy hatti-harakati natijasi, xorij davlatlarda kadrlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash sohasida ijtimoiy hamkorlik, uzluksiz ta'limning asosiy shartining pedagogik ta'sir vositalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy aloqalar, ta'lim, tarbiya, uzluksiz ta'lim, jamiyat, islohot, taraqqiyot, ma'naviy yetuk, ijtimoiy hayot.

In this article, the concept of social partnership is a system of social relations, the result of physical and mental behavior of individuals or groups, such as individuals and groups in social life, social cooperation in the field of training and retraining in foreign countries, the basic conditions of continuing education. the means of influence are illuminated.

Key words: social partnership, social, social relations, social relations, education, upbringing, continuing education, society, reform, development, spiritual maturity, social life.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi o'sib kelayotgan yosh-avlodi bilimli, yetuk, tashabbuskor, islohotchi, ta'labchan va teran fikrlovchi, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning ijtimoiy – madaniy darajasining yuksalishi, mazkur jamiyatda ijtimoiy adolat me'yorlariga to'g'ri rioya qilinishi bilan belgilanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari ham muhim o'rin tutadi. **Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy aloqalar** -bu individlar o'rtasidagi aloqalarning alohida turi bo'lib, ijtimoiy aloqa o'rnatganlar orasida, aniq ko'rinishi mumkin uch muhim jihat:

1) ijtimoiy guruhning har bir a'zosi shaxs uchun umumiy normalarni qabul qilishi va umumiy bo'lgan qadr-qimmatni himoya qilish uchun majbur bo'lgan shaxsiy majburiyatlari;

2) ijtimoiy guruh a'zolarining ma'lum bo'lgan umumiy manfaatlari asosida maydonga chiqadigan ijtimoiy ma'faatlar majmui;

3) ijtimoiy guruh bilan shaxsiy identifikatsiyalash tizimini o'rnatilgani kabi masalalar. Jamiyat ijtimoiy hayotida eng muhim elementlardan biri ijtimoiy munosabatlar tizimining mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar individning shaxsiy fazilatlariga qarab turli xil asoslar va turli xil g'oyalar majmui orqali aloqalarda yuzaga keladi. Ijtimoiy munosabatga kirishida shaxsning shakllanishi asta – sekin, murakkab shakllardan biri sifatida o'zaro munosabatlardan kelib chiqadi. Shaxslar



o'rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish ijtimoiy munosabatlarga kirishishni olib keladi. Ijtimoiy aloqalar bilan munosabat o'rnatishda ijtimoiy munosabat va ijtimoiy hamkorlikning mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tish muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy hamkorlik shaxsning ijtimoiy munosabatlar shakli va aloqasi o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonida, ularning bir-biriga ta'siri va ijtimoiy hamkorlikda individual ijtimoiy faoliyat funksiyalaridan iborat. Shaxslararo o'zaro munosabatlarda ijtimoiy hamkorlikni o'rnatishdan oldin jismoniy shaxslar, ijtimoiy qatlam va ijtimoiy guruhlar uchun muhim rol o'ynaydi.


O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlik asosida rivojlantirishda xorij tajribasini tahlil etish asosida qurish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlari va Avstraliada ta'lim va o'qitish tizimini eng muhim ijtimoiy ehtiyojga aylantirib olib borilmoqda. Masalan, Rossiya ham bu umumiy qoidadan chetda emas. Rossiyada uzluksiz ta'lim asosan davlat ta'limida qo'shimcha kasbiy tayyorlash ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi va bu amaliyot kamida bir necha o'n yillardan beri davom etib kelmoqda. Chunki, mamlakatda kadrlarining qo'shimcha kasb egasi bo'lish maslasi va o'z ustida ishlash orqali malakasini oshirish tizimi, kasbiy tayyorgarligi (kasbga tayyorlash) va qayta tayyorlash sohasini tartibga soluvchi asosiy (bazaviy) xalqaro huquqiy hujjat Xalqaro mehnat tashkilotining (XMTning) 1975 yilda qabul qilingan Inson resurslarini rivojlantirish to'g'risidagi Konvensiya va «Bilim olish va tarqatish kelajagi haqida Kronberg Deklaratsiyasida» (2007), «Axborot savodxonligi va bir umr o'rganish bo'yicha Aleksandriya Deklaratsiyasida[5]»(2008) bayon etilgan. Yevropa komissiyasining 2008 yilgi hisobotida (dokladida) ta'lim va malaka oshirish tizimida islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uzluksiz ta'lim va qo'shimcha kasbiy ta'lim bo'yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqish uchun yanada jiddiyoq sa'y-harakatlar zarur, deb ta'kidlangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar zahirida ta'lim tizimi faoliyatini takomillashtirish va barqarorlashtirishda fuqarolarning bilim olish huquqlarini ta'minlashda rivojlangan xorij davlatlarining tajribasi bilan bir vaqtda Sharqdagi mutafakkir ajdodlarimizning bebaho meroslaridan ham foydalanib tashkil etishni dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi[2,] Qonunning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Chunki jamiyatda ta'lim va fan sohasida yoshlarning bilimli va yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishi davlat siyosati darajasida belgilab olingan. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishdan maqsad, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Qonunda pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan

shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilishi, ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga haqliligi, professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etish kabi vazifalarni belgilab olingani ham muhim o'rin tutadi.

O'tgan yillar mamlakatimiz ta'lim tizimi hayotida haqiqatan ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim Ijtimoiy dasturlar - Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirilib kelinayotgani, umta'lim va oliy ta'lim tizimida o'quv dasturlarini xorij tajribasi asosida takomillashtirib kelinayotgani ham buning yaqqol dalilidir. Xalq ta'limi tizimida maktablarda o'qitiladigan fanlarning yangi avlodi yaratilayotgani hamda o'quv fanlari uchun milliy dasturlar ishlab chiqilayotgani ham dolzarb ahamiyat kasb eatdi. Maktab ta'limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi amalga oshirishda 11 yillik umumta'lim maktab bosqichini va 2 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzluksiz yaxlit ta'lim tizimi yaratilgani bilan ham o'z ahamiyatini oshirib bormoqda[2,].



1-rasm. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning maqsadi

Xorijiy mamlakatlarda kasbiy ta'lim ijtimoiy hamkorlikning umumiy asoslarini belgilaydi. Germaniya va Niderlandiya Qirolligida amalga oshirilgan. Bu mamlakatlarda federal (milliy) va mintaqaviy kasbiy ta'limi qo'mitalari, kasb ta'limi va kasbga o'qitish davlat institutlari, va mehnat masalalari bo'yicha federal xizmatlari amal qiladi. Masalan, Fransiyada kasbiy ta'limni boshqarish Milliy



Kengashining Doimiy Qo'mitasi, Mintaqaviy kasbiy ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish Qo'mitasi, Maslahat/Konsultativ kasbiy qo'mitasi va Mehnat bo'yicha qo'mita kabi milliy strukturalar/tuzilmalar mavjud. Ochiq matbuotda keltirilgan ma'lumotlar ko'pgina xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishning majburiy me'yori yiliga bir ish haftasi davomida o'tkazilishi ekanligini ko'rsatdi (Shvesiya, Belgiya, Vengriya, Niderlandiya Qirolligi, Shotlandiya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Chexiya, AQSh, Italiya, Litva, Sloveniya).

Biroq, aytish joizki, Buyuk Britaniyada davlat ta'limning uch haftagacha muddatining, Chexiyada - ikki haftagacha, va Portugaliyada - bir haftalik haqini to'laydi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, xodimlar malakasini oshirish dasturlarida ishtirok etish uchun asosiy rag'batlar quyidagi ekanligini ko'rsatdi:

1. Kasbiy burch: Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Latviya, Litva, Estoniya, Turkiya, Bolgariya, Ruminiya, Vengriya, Chexiya, Germaniya, Belgiya, Irlandiya (99%).

2. Kasb pillapoyalari bo'yicha o'sishning zarurligi: Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Portugaliya, Avstriya (91%).

3. Bir vaqtning o'zida ham kasbiy burch va kasb pillapoyalari bo'ylab o'sish: Fransiya, Niderlandiya Qirolligi, Shvesiya, Norvegiya, Islandiya, Malta (93%).

G'arbiy Yevropa mutaxassislarining tadqiqotlariga asoslanib A.M.Osipov va P.Karstane kabi olimlar hamkorlik tizimlarining barqarorligi va ijtimoiy samaradorligi bog'liq bo'lgan (belgilovchi) bir necha ko'rsatkichlarni parametrlarni ajratib ko'rsatishadi:

1. Ta'lim muassasasining o'zida amalga oshirilayotgan o'quv rejasini rivojlantirishda erkinlik darajasi.

2. Ijtimoiy hamkorlik tizimi ishtirokchilarining tanlov erkinligi. Bundan hamkorlarning turli-tumanlik miqyosi/ kengligi va ularning ehtimoliy potensial resurslarining umumiy (yig'indi) miqdorini belgilaydi, shuningdek, muayyan ta'lim muassasasi mahalliy hamkorlik tizimida oladigan o'zgartirish va moslashish uchun rag'batlantirish kuchi bog'liq bo'ladi.

3. Ta'lim muassasalarining xilma-xilligi va tabaqalashganligi (diffrensiatsiyasi) tanlov erkinligining sharti va oqibati bo'lib, ularning faoliyatini takomillashtirishning muhim rag'batidir.

4. Ta'lim muassasalarining o'z siyosatini ishlab chiqish imkoniyati, qobiliyati ularning hamkorlik imkoniyatlaridan foydalana olishlari va fuqarolik tashkilotlariga tayanishlari uchun yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Agar ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlarining hamkorlar bilan birgalikda muhokama qilish va yaqin va uzoq muddat istiqbollarini tanlash uchun yetarlicha tayyorlanmagan bo'lsa, o'z siyosatini ishlab chiqish qobiliyati zaifligicha qolsa, ta'lim muassasasining yetarlicha tartibga solinmagan tashqi ta'sirlar ostida «ortiqcha



yuklanib qolishi» xavfi paydo bo'lishi mumkin. Ta'lim muassasasining tashqi ta'sirlarni strategik maqsadlariga va o'z resurslari va qobiliyatlariga aylantirish uchun tahliliy analitik va konseptual imkoniyatlarga ega bo'lishi muhimdir.

5. Muassasalarni moliyalashtirish o'z siyosati (vazifasi/missiyasi, dasturi va rivojlanish tamoyillari) va ehtiyojlariga muvofiq qaror qabul qilish va ba'zi erkinliklarga ega bo'lishlarini kafolatlashi kerak. Ta'lim muassasasining o'z moliyaviy resurslari tashqi hamkorlarni jalb etish va ularning faoliyatini ta'lim tizimi manfaatlariga yo'lida muayyan tarzda iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning muhim shartidir [4].

Niderlandiya Qirolligi, Germaniya, Daniya, Finlyandiya va Buyuk Britaniya kabi G'arbiy Yevropa davlatlari modellari kasbiy ta'limda ijtimoiy hamkorlikning eng samarali milliy modellari sifatida e'tirof qilinmoqda.

Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy hamkorlik bo'yicha tajribasining tahlili ijtimoiy hamkorlarning vazifalari, huquq va mas'uliyatlarini aniq taqsimlagan holda eng rivojlangan va samarali o'zaro hamkorligi Niderlandiya Qirolligida mavjud ekanligini ko'rsatdi [7]. Bu mamlakatda ish beruvchilar uyushmalari va kasaba uyushmalari juda faol bo'lib, hukumat/davlat faqat guruhiiy konsensus/kelishuv asosida qabul qilingan qarorlarga qonuniylik maqomini beradi xolos. Bunday boshqaruv modelini davlat tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy dialog va bozor voliyuntarizm/ixtiyoriyligi o'rtasidagi oraliq pozitsiyani egallaydigan «gibrid» shakl sifatida tushunish mumkin [8]. Niderlandiya Qirolligida, 22 milliy tashkilotlar davlat, xodimlar va ish beruvchilar manfaatlarini ifodalash uchun tashkil etilgan va mehnat bozori, kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish o'rtasidagi o'zaro faoliyatni amalga oshiradi.

Milliy (umummilliy) tashkilotlar kasbiy ta'limning mazmunini shakllantirishga va sifatiga, o'z kompaniyalari doirasida ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganishga va ishchi-xodimlarning malakasini oshirish kurslarini tashkil qilish, uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarni ishlab chiqish va kasbiy ta'lim tizimida ta'limni tashkil qilishga, sektorlar (soha tarmoqlari) bo'yicha mehnat bozorida ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarni monitoring qilishga, yakuniy attestatsiya sifatinin ta'minlashga va milliy kvalifikatsiyalar tizimini yangilashga mas'ul hisoblanadi.

Niderlandiya Qirolligida ijtimoiy hamkorlik mexanizmi kasbiy ta'lim va o'qitish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarining ancha qismini mustaqil strukturalarga (tuzilmalarga) berishda davlat manfaatlarini ta'minlaydi. Kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi kasbiy ta'lim masalalarini jamoaviy shartnomalariga kiritilishiga ko'maklashadi.

Amerikaning uzluksiz kasbiy ta'limi tizimini moliyalashtirishda davlatning ustun (boshqalardan ko'p) roli uning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Bu yerda davlat huquqiy asoslarni va federal ta'lim standartlarini ishlab chiqadi. AQShning xususiy kompaniyalari o'z byudjetlarining uchdan bir qismini xodimlarni tayyorlash va qayta



tayyorlashga sarflaydi. Ichki va tashqi o'quv dasturlari, masofaviy (distansion) ta'lim va elektron ta'lim shakllari keng tarqalgan. Yirik kompaniyalarda korporativ universitetlar yaratiladi. Korporativ universitetlarning rivojlanish an'alaridan biri - ularda tashqaridan kelgan mutaxassislarning tahsil olishi uchun imkoniyatlar berishdir.

Avstraliyada kasbiy ta'limni boshqarishda markaziy hukumat, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining rollarining aniq ajratilganligi kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash tizimining xarakterli xususiyati hisoblanadi. markaziy hukumatning asosiy vazifasi esa tizimni qonunchilik bilan tartibga solish bo'lib, korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik hududiy darajaga berilgan [6].

Demak, xorijiy mamlakatlarda uzluksiz kasbiy ta'limning boshqaruv tizimlari har bir alohida mamlakatda muayyan milliy xususiyatlarni saqlagab qolish bilan global iqtisodiyot ehtiyojlarini qondiruvchi xalqaro talablarni hisobga olgan holda ijtimoiy hamkorlik asosida quriladi. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish tajribasi uning samaradorligini ijtimoiy barqarorlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, professionalizmni rivojlantirish va ishchi-xodimlarning raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январ.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги О‘РҚ-637-сон Қонун.
3. Михеев В. А. Основы социального партнерства: теория и политика. – М.: Экзамен, 2001. – 448 с.
4. Государственно-частное партнерство в образовании: сборник / Научные редакторы: О.П.Молчанова, А.Я.Лившин – М.: КДУ, 2009. – 242 с. 9
5. Осипов А.М., Карстане П., Тумалев В.В., Зарубин В.Г. Социальное партнерство в сфере образования // Социально-экономическое положение России в новых геополитических и финансово-экономических условиях: реалии и перспективы развития: сборник научных статей. Вып. 5 / Под общей редакцией проф. В.В.Тумалева – СПб.: НОУ ВПО Институт бизнеса и права, 2008. – С. 291 – 295.
6. Осипов А. М., Карстане П. Социальное партнерство в образовании // Образование и общество. – 2008. – №1. – С. 71 – 76.
7. Осипов А.М., Карстане П., Тумалев В.В., Зарубин В.Г. О социальном партнерстве в сфере образования // Социологические исследования. – 2008. – № 11. – С. 108 – 115.
8. Winterton J. Social dialogue and vocational training in Europe: Are we witnessing the emergence of a European model // Journal of European Industrial Training. – 2006. – No 30(1). – P. 65 – 76.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA FAOLIYAT KO'RSATISH TAMOYILLARI, MEZONLARI, INTEGRATSIYA VA UZVIYLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

O.K.XUDOYOROVA,

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

I.T.MURADOV,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Uzluksiz ta'lim jarayonida ijtimoiy faol, ijodkor va ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashda ularga fundamental bilimlarni berishning imkoniyatlari, sharoitlari aniqlangan. Shuningdek, ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asosiy tamoyillar, mezonlar, integratsiya va uzviylikni ta'minlashga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, davlat, uzluksiz ta'lim, milliy taraqqiyot, tamoyillar, mezonlar, integratsiya, uzviylik, bog'liqlik, tizimlilik, loyihalash, barqarorlik, zamonaviylik, innovatsiya, yuksalish.

В процессе непрерывного образования выявляются возможности и условия предоставления фундаментальных знаний социально активным, творческим и духовно зрелым людям. Также даются научные и практические рекомендации по основным принципам, критериям интеграции и преемственности для достижения эффективных результатов в образовательном процессе.

Ключевые слова: общество, государство, непрерывное образование, национальное развитие, принципы, критерии, интеграция, членство, взаимозависимость, системность, дизайн, устойчивость, современность, инновации, взбираться.

In the process of continuing education, the opportunities and conditions for providing fundamental knowledge to socially active, creative and spiritually mature individuals are identified. It also provides scientific and practical recommendations on the basic principles, criteria, integration and continuity to achieve effective results in the educational process.

Key words: society, state, continuing education, national development, principles, criteria, integration, membership, interdependence, systemicity, design, sustainability, modernity, innovation, growth.

Uzluksiz ta'lim "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni amalga oshirishga qaratilgan holda inson va jamiyatning turli ta'limiy ehtiyojlarini ta'minlab, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxslarni shakllantiradi va ularga fundamental bilimlarni egallashi uchun keng imkoniyatlar, zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatish tamoyillari, mezonlari, integratsiya va uzviylikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z o'rnida ob'ektiv borliqdagi qonuniyatlarning o'zaro bog'liqligi va kashfiyot darajasini kuchaytiradi hamda



yoshlar dunyoqarashini mustahkamlashga asos bo'ladi. Ayniqsa, fanlararo bog'liqlik borliqning moddiy birligi haqidagi falsafiy g'oyalarga aloqadorlikda dunyoni bilish, tabiat va jamiyatdagi hodisalarning o'zaro bog'langanligi va taraqqiyotini targ'ib etadi.

O'quv fanlarini o'zlashtirishda bilimlar bevosita bir-biriga bog'lansa, ular o'rtasidagi aloqadorlik ongli anglab yetilsa, egallangan bilim puxta va mustahkam bilimga aylanadi. Shunga e'tibor berish kerakki, inson tafakkurini o'stirishning asosiy vositasi bilimlarni mantiqan izchil, uzviy va mukammal o'zlashtirishdadir. Har jihatdan yetuk insonni tarbiyalashda fanlararo aloqalar, o'qitish, ko'rsatish, bog'lash va o'rganishning ta'siri kuchlidir. Bunda fan asoslarini egallash, bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlantirish, aql va muomala tarzini kuchaytirish, hayotiy bilimlarni boyitishga erishiladi. Demak, bilimlarning mukammalligini ularning tizimlashtirilganligi va o'zaro bog'langanligida ko'rish mumkin.

Uzluksiz ta'lim jarayonlari yagona barqaror ta'lim tizimi sifatida shakllangan bo'lib, u ta'lim jarayonlari va hodisalarini o'rganishga tizimli yondashadi. Bu esa o'rganilayotgan ob'ektiv tarkibiy elementlarning ichki aloqadorligini hamda uning boshqa ijtimoiy iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan o'zaro bog'lanishlarini belgilaydi. Uzluksiz ta'limning o'ziga xos fazilati shundaki, u barcha ta'lim turlari orasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik, izchillikni o'rnatadi va o'quv materiallari o'rtasida uzviylikni ta'minlaydi hamda muayyan mantiqiy ketma-ketlik, fanlararo uzviylik, izchillikni ilmiy metodik jihatdan asoslaydi. Uzluksiz ta'lim tizimida ta'limning yuqori sifatini faqatgina yuqori pedagogik kasbiy mahoratga ega shaxslargina ta'minlay oladilar. Bugungi globallashuv davrida zamonaviylik, kompetentlik, insonparvarlik, kommunikativlik, kasbiy mustaqillik, ishchanlik, barqarorlik, o'z ishiga ijodiy yondashish, pedagogik texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

“Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz



xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi".[2, 1-sahifa]

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillarida: **ta'limning ustuvorligi** – uning rivojlanishiga ko'ra, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi bilan belgilanadi. **Ta'limning demokratlashuvi** – ta'lim va tarbiya uslublarini tanlash mustaqilligida namoyon bo'ladi. **Ta'limning insonparvarlashuvi** – inson qobiliyatlari va ehtiyojlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvini aks ettiradi. **Ta'limning ijtimoiylashuvi** – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish masalalarini amalga oshiradi. **Ta'limning milliy yo'naltirilganligi** – milliy tarix, xalq an'analari urf odatlari bilan ta'limning uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilishga e'tibor beriladi. **Ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi tamoyili esa** – har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratadi. Shuningdek, ta'lim jarayonini loyihalashda refleksivlik, natijaviylik, ko'p omillilik, ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyillarini hisobga olish zarur.

Bugungi kunda modul ta'limiga xos **faoliyatli yondoshuv tamoyili**, **o'zaro tenglik tamoyili**, **modullilik tamoyili**, **texnologik tamoyil** ta'sirida ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishishni kafolatlovchi izchillik, tizimlilik, uzviylik, maqsadni aniq belgilanishiga erishish ta'minlanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali kechishida aynan ta'lim beruvchining salohiyati, pedagogik mahorati va kompetentligining uzviy bog'langanligi muhimdir. O'qituvchilar pedagogik faoliyatining innovatsion yo'nalganligini shakllantirishda u yoki bu yangiliklarning samaradorligini aniqlash imkonini beradigan bir qator **mezonlar**: yangilik, optimallik, yuqori natijaviylik va innovatsiyalarni ommaviy tajribada ijodiy qo'llash, zamonaviylik, ma'naviy-estetik dunyoqarash, mustaqil erkin ijodiy fikr, innovatsion kreativlik, harakat intensivligi, faol faoliyat, ijodiy qobiliyat, sub'ektivlik, variativlik, eruditsiyaviylik, akmeologik, refleksivlik, texnologik-psixologik, ilmiy-nazariy, kasbiy, metodik yetuklik, konstruktivlik, axborot kommunikativlik va madaniy yuksaklik kabi mezonlardan samarali foydalanish ta'lim-tarbiya jarayoning sifatini ta'minlashga ijobiy ta'sir etadi.



Uzluksiz ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik innovatsiyaning asosiy mezonlari yangilikdir. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik innovatsiya mezonlarini bilish o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik va innovatsion madaniyatini egallash imkoniyatlarini namoyon etadi. Hatto, Beruniyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari bilan bog'liq ta'limotida mehnat, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar, ilm-ma'rifatni bog'liqligi, uzviy mushtarakligi tahlil va talqin etiladi. "Inson amaliy faoliyatining biron bir sohasi ularning o'zaro ta'sirisiz amalga oshmaydi" [3, 11-bet] deb yozilgani bejiz emas.

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning ijodiy intellektual qobiliyatlarini yuksaltirish, ularning komil shaxs bo'lib shakllanishiga erishishda **integrativ ta'lim** muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, mustaqil fikrli, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash uchun asosiy omildir. Eng muhimi, o'zlashtirish lozim bo'lgan ma'lumotlar sig'imini mukammal va to'liq anglab yetish mumkin bo'ladi. Ma'lumki, ta'limda integratsiya deganda uzluksiz ta'lim doirasidagi mazmun tuzilmasi bog'lanishiga ko'ra, tevarak-atrof olam to'g'risida bir butun tasavvurni shakllantirish maqsadi tushuniladi.

Uzluksiz ta'limda integratsiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etishda quyidagi jihatlariga jiddiy e'tibor berish zarur hisoblanadi.

1. Mamlakatning butun uzluksiz ta'lim tizimida elektron ta'limni yo'lga qo'yish va barcha ta'lim muassasalarining "Elektron ta'lim" milliy tizimiga ulanishini ta'minlash.

2. Fanlar integratsiyasi bo'yicha nazariy bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish va yuqori darajada psixologik-pedagogik hamda ilmiy-metodik jihatdan tayyorgarlikni kuchaytirish.

3. Fanlar integratsiyasini amalga oshirishning didaktik asoslarining o'ziga xos xususiyatlarini bilish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni integratsiyasini amalga oshirish.

4. Uzluksiz ta'lim tizimida fanlar integratsiyasi yechimini topishning ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va dars sifatini oshirishga xizmat qiladigan integrativ ishlanmalar yaratish orqali ta'lim muassasalari muammolarini hal etish.

5. Uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion-integratsion faoliyatni yaxshi yo'lga qo'yish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani yanada rivojlantirish, mustahkamlash, yangi ilmiy izlanishlar yo'nalishlarini belgilash, amaliyotga tatbiq etish asosida bilimlarni puxta o'zlashtirish, mantiqiy fikrlashga erishish va hokazo.



Integratsiyalangan dars odatdagi darslardan o'zining aniqligi, ixchamligi, o'quv fanlarining har taraflama mantiqiyliigi, o'quv materialining keng ko'lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi. Integratsiyalashgan darsda fanlarning aloqadorligi, o'quv fanlari o'qituvchilarining darsdagi faoliyati, xatti-harakati muvofiqlashtiriladi va mashg'ulotlar natijasi aniqlanadi. Integratsion ta'lim ijodiy hamkorlik muhitida samarali bo'lib, unda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Integratsion darsning yutuqli jihati shundaki, ta'lim oluvchilar mashg'ulotlarda bir butun, yaxlit tasavvurga ega bo'lib, aniq bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisini egallaydilar va ma'naviy yuksalib boradilar. Eng muhimi har bir mavzuning dolzarb jihatlarini aniqlanadi. Bu o'rinda qiziqarli fakt, voqea, kutilmagan topilma, ixtiro va yangi kashfiyotlar, chiroyli tajriba, nostandart yondashuvlarga murojaat etiladi.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim jarayonidagi tamoyillar, mezonlar, integratsiya va uzviylik ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptiradi. E'tiborli jihati shundaki, tashkil etish, fanlararo aloqadorlikda integratsiyaga tayangan holda tizimli ish ko'rish, ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatini beradi. Ta'lim jarayonining integratsiyalashuvi yoshlarning ma'nan sog'lom, teran fikr yurituvchi, yetuk, ilmiy salohiyatga ega, keng dunyoqarashli inson sifatida kamol topishiga ijobiy ta'sir etadi. Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim muhim ijtimoiy kompetensiyalar-zaruriy hayotiy ko'nikmalarni egallash, yangi g'oyalarni yaratish, shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, sog'lom fikr yuritish, muammolarni hal etish, moslashuvchanlik va tolerantlik, tashabbuskorlik, yetakchilik va mas'uliyat, to'g'rilik va ijobiy xulqni namoyon etishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". 1-jild, T.: "O'zbekiston" 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi 2020-yil 30-dekabr №276.
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. O'zbekiston "Fan" nashriyoti, Toshkent. 1968.
4. R.Mavlonova, O.To'rayeva "Pedagogika" Toshkent 2010.
5. Toshmurodova Q. "Ta'lim tarbiyani rejalashtirish xususiyatlari" Toshkent 1993.



INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR – TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI

O.MUSURMANOVA,

pedagogika fanlari doktori, professor

Maqolada ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, mazmun va mohiyati, tushunchalari, innovatsiyaning turlari, innovatsion jarayon va uning qonuniyatlari, bosqichlari, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol usullar; interfaol ta'lim va interfaol darsni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalits so'zlar: *Innovatsiya, innovatika, pedagogik neologiya, pedagogik aksiologiya, pedagogik praksiologiya, innovatsion pedagogika, innovatsion jarayon, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol uslublar; interfaol ta'lim, interfaol dars.*

В статье раскрывается значение, содержание и сущность инновационных педагогических технологий, концепций, видов инноваций, инновационного процесса и его закономерностей, этапов, инновационных образовательных технологий, интерактивных методов, интерактивного обучения и организации интерактивного урока в повышении эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: *Инновация, инноватика, педагогическая неология, педагогическая аксиология, педагогическая прaksiология, инновационная педагогика, инновационный процесс, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, интерактивное обучение, интерактивные уроки.*

The article reveals the importance, content and essence of innovative pedagogical technologies, concepts, types of innovation, innovative process and its laws, stages, innovative educational technologies, interactive methods, interactive teaching and interactive lesson organization in improving the effectiveness of the educational process.

Key words: *Innovation, innovative, pedagogical neology, pedagogical axiology, pedagogical praxiology, innovative pedagogy, innovative process, innovative pedagogical technologies, interactive methods, interactive education, interactive lessons.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Ayni vaqtda ta'lim-tarbiya muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, muallimlar, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, xorijdagi yetakchi ta'lim markazlari bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish, o'quv-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini, yangi o'quv metodikalarini joriy etish bo'yicha hali oldimizda ko'plab dolzarb vazifalar turganini yaxshi anglaymiz va ularning yechimi ustida doimiy ish olib boramiz”[1].

Innovatsion texnologiyalar – ta'lim-tarbiya jarayoniga yangilik kiritish zahirida uning sifat samaradorligini ta'minlashga erishish demakdir. “Innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, inovatis, ya'ni “in” - ichida, “novus” - yangi, degan ma'nolarni bildirib, uni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilganimizda “yangilash, yangi, o'zgartirish, yangilik kiritish” ma'nolarini bildiradi. Ya'ni, innovatsiya deganda,



birinchidan, aniq faoliyat turini yangilash jarayonidagi yangi voqea va hodisalar tushunilsa, ikkinchidan, ilmiy tadqiqotlar yoki kashfiyotlar natijasida yaratilgan va amalda mavjud bo'lgan analoglardan ustun bo'lgan obyekt tushuniladi. Bu tushuncha ilk bora XIX asrda madaniyatshunosik sohasida paydo bo'lib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Innovatsion ta'lim tushunchasi esa ilk bor 1979-yilda Rim klubida "Ta'lim olishning chegarasi yo'q" mavzusida o'qilgan ma'ruzada ilgari surilgan bo'lib, u ta'lim sohasidagi ilg'or g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, rag'batlantirish, saralash, mukammalligi ta'minlash, ommalashtirish imkonini beradi. Innovatsiyalar ikki turga bo'linadi:

Stixiyali, ya'ni innovatsiyalarga bo'lgan ijtimoiy talablar natijasida vujudga keladi. Bunday innovatsiyalar oldindan rejalashtirilmagan holda paydo bo'ladi.

Innovatsion jarayon - bu pedagogik qonuniyatlarni, tushunchalarni o'z ichiga olgan tizim bo'lib, u ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogika va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar yutuqlari, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beruvchi innovatsion harakat demakdir.

Innovatsion jarayonning kechishi 4 ta asosiy qonuniyatga bo'ysinadi:

1. Pedagogik innovatsiya muhitining mo'tadil, tinch va bir tekisda sodir emasligi qonuni. Bunda pedagogik jarayonlar haqidagi tasavvurlar doimo o'zgarib turadi.

2. Innovatsion g'oyaning to'liqlik taraqqa qilish qonuni. Bunda yangi pedagogik nazariy g'oya muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

3. Ideallashtirish qonuni. Bunda pedagogik innovatsiya tan olinadi va amaliy harakat strategiyasiga ega bo'ladi.

4. Pedagogik innovatsiyaning davriyligi va amalda tiklanish qonuni. Bunda yangi pedagogik nazariy g'oya amaliy sharoitda o'z isbotini topadi.

Innovatsion pedagogik jarayonlar qo'yidagi jihatlari bilan tavsiflanadi:

– o'quvchi-talabalarning o'z ijodiy tafakkuri, bilimi, qobiliyatini progressiv g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun maqsadli yo'naltirishi;

– o'quvchi bilan o'qituvchining yagona maqsad sari hamkorlikdagi ijodiy faoliyatining rivojlanganligi;

– ijodkorlik, intellektning natijasi sifatida kreativlikni namoyon etishdagi izlanuvchanlikning yuqoriligi;

– har ikkala sub'ektning ham refleksiya jarayonidagi faollikning namoyon bo'lishi (o'zini o'zi tushinishi, o'zini o'zi bilishi, o'zini o'zi anglashi, o'zini o'zi tahlil qilishi, o'zini o'zi baholashi).

Pedagogik lug'atlarda ham ta'kidlanganidek: "Ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlar – pedagogik yangiliklarni yaratish, qabul qilish, baholash, o'zlashtirish va qo'llashni boshqarish jarayoni" demakdir.

Demak, innovatsion jarayon – yangiliklarni yaratish, (dunyoga keltirish, ishlab chiqish, amalga oshirish), o'zlashtirish, amaliyotga joriy etish bo'yicha yaxlit bir butunlikdagi faoliyat bo'lib, u qo'yidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:



- yangi nazariy g‘oyaning paydo bo‘lishi;
- aniq pedagogik yangilik yaratish yoki kashf etish;
- yaratilgan yangiliklarni amaliyotda qo‘llash;
- yangilikning muayyan pedagogik sohada hukmronlik qilishi;
- yangilikning asta-sekin dolzarblikni yo‘qota borishi va boshqa zamonaviy pedagogik yangiliklar uchun asos bo‘lishi.

Pedagogik jarayonlar pedagogik tizim asosida samarali natija beradi. Ushbu pedagogik jarayonda namoyon bo‘ladigan novatsiya va innovatsiyalar evaziga ta‘lim-tarbiya samaradorligi oshib boradi. Ta‘limni tashkil etishning Modulli kredit; Blended learning; Vebinar; Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari; O‘yin texnologiyasi; Muammoli ta‘lim texnologiyasi; Veb kvest; Dalton; Dramogermenevtika; Mustaqil ta‘lim va boshqa zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish xalqaro ta‘lim tizimida o‘zining samaradorligini ko‘rsatib kelmoqda.

Interfaol usullar – ko‘pchilik hamkorligidagi fikr yuritish bo‘lib, talabalarga pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning yangi usullaridir. Bu usullarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular faqatgina o‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi mehnat qilishi orqali amalga oshiriladi.

Interfaol usullar esa o‘qituvchi bilan o‘quvchining faol muloqoti, biri ikkinchisini to‘liq tushunishiga asoslanadi. Interfaol usullarni o‘qish jarayoniga joriy etishning eng asosiy maqsadi – darsning qanday shaklda va qanday sharoitda (qaysi o‘rinda, darsda yoki darsdan tashqari) tashkil etilishiga qaramasdan talabalarning faolligini oshirishdan iborat. Bunda o‘qituvchi faqatgina fasilitator (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, nazorat qiluvchi, xulosa chiqaruvchi) vazifasini bajaradi. Bu kabi metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatlari rivojlanib, uarda shaxsiy fikrga yoki qararga kelish, hissiyotlarini boshqarish, fikrlarini bildirish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Interfaol usullar xilma-xil bo‘lib, ulardan amaliyotda ko‘p qo‘llaniladiganlari quyidagilardir: “Ajurli arra”, “Keys-stadi”, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Zanjir”, “Markazda talaba”, “Markazda murabbiy”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Algoritmnlarni qo‘llash”, “Tahlil qilish”, “Taqdimot”, “Blits so‘rov”, “Debat”, “Qora quti”, “Qarorlar shajarasi”, “Zig-zag”, Portfolio, Assesment va b.q

Pedagog olimlarning fikrlariga ko‘ra “Interfaol ta‘lim”ning mohiyatini anglash uchun ta‘lim muassasalaridagi o‘qitish jarayonini tashkil etilishini quyidagicha guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) passiv (ekstrafoal) ta‘limda asosiy yetakchi o‘qituvchi bo‘lib, ta‘lim jarayoni asosan avtoritar boshqaruv usulida amalga oshiriladi. O‘qituvchi bu o‘rinda o‘z shaxsiy imkoniyatlari, nuqtai nazari, pedagogik tajribasiga tayangan holda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etadi. Bu esa o‘quvchilarning erkin mulohaza yuritishi, ijodiy fikrlashi, qobiliyatlarini namoyish qilishiga to‘sqinlik qiladi;

2) faol (inglizcha “akt” – “faollik”, ruscha “aktiv” – “faol”) ta‘lim. Faol ta‘limning passiv ta‘limdan farqli jihati bunda o‘quvchilarning ijodiy ishlashlari, ta‘limiy topshiriqlarni mustaqil bajarishlari uchun imkoniyat yaratilishi bilan farqlanadi.



O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fiklashi uchun qisman imkon beradi. Lekin ushbu ta'limning didaktik nuqtai nazardan kamchiligi ta'lim jarayoni to'liq o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida tashkil etilmaydi;

3) introfaol ("intro" – "tashqariga") ta'limda esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolliklari yetakchilik qiladi. Ya'ni, dars iqtidorli, faol, fanga qiziquvchan, boshqarish qobiliyatiga ega o'quvchilar tomonidan tashkil etiladi, u o'qituvchi rolini ijro etadi. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi tashkillashtirish, kuzatish va qisman jarayonni boshqarishdan iborat bo'ladi. Albatta bajaradigan o'quvchiga o'tiladigan mavzu oldindan beriladi, o'qituvchi uni ilmiy-metodik jihatdan tayyorlaydi.

4) interfaol ("inter" – "o'zaro") ta'limdan foydalanish esa tobora ommalashmoqda. Mazkur ta'lim ta'lim sub'ektlari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keluvchi hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, o'quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi" o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi. Interfaol ta'lim – bu "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar" o'rtasida o'zaro hamkorlik, hamfikirlik va hamjihatlikka asoslanuvchi ta'lim shakli bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining tezkor va samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Interfaol ta'lim innovatsiyani talab etadi.

Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ilmiy-texnik resurslar bazasi, o'quv fani xarakteri, maqsad va vazifalari, mazmuni, didaktik jarayonning mohiyati, sub'ektlar imkoniyati, motivatsiyasi, muhit va sharoit inobatga olinadi va shunga qarab tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O'zbekiston NMIU, 2018. – 448 b.

2. Словар-справочник по педагогике /авт.-сост. В. А. Межироков; под общ. ред. П. И. Пидкасистого. – М.: ТС "Сфера", 2004. – с.122-123].

3. Abduqodirov A.A, Pardaev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2012 yil, 104 bet

4. Мусурманова О. Педагогик технологиялар-таълим самарадорлиги омили: монография /О.Мусурманова. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 184 b.

5. Педагогические технологии. Учебное пособие. / Авт. Сост. Т.П. Сальникова. – М.: ТЦ сфера, 2005

6. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии, М. 1998.

7. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2011-yil, 425-bet



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

X. T. QURBONOVA,

Navoiy viloyati XTXQTMO hududiy markazi
katta o'qituvchisi

O'qituvchilarni innovatsion tayyorlash tizimining mohiyati uning an'anaviy va yangi texnologiyalarini innovatsion qonuniyatlar asosida uyg'unlashtirishdan iborat. Mazkur maqola ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsini zamonaviy ta'lim tizimiga tayyorlash va innovatsion yondashuv masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim bosqichlari, innovatsion yondashuv, innovatika, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, o'qituvchi, bo'lajak o'qituvchilar, o'quvchilar, o'quv jarayoni.

Суть системы инновационной подготовки учителей заключается в гармонизации его традиционных и новых технологий на основе инновационных законов. Данная статья посвящена вопросам подготовки преподавательского состава в системе образования к современной системе образования и инновационному подходу.

Ключевые слова: система образования, этапы образования, инновационный подход, инноватика, современные образовательные технологии, преподаватели, будущие учителя, учащиеся, учебный процесс.

The essence of the system of innovative training of teachers is the harmonization of its traditional and new technologies based on innovative laws. This article deals with the training of teachers in the education system for the modern education system and innovative approach.

Key words: education system, stages of education, innovative approach, innovation, modern educational technologies, teachers, future teachers, students, educational process.

Innovatika tuganmas strategik zahira bo'lib, inson va atrof-muhitning bog'lovchisi sifatida tan olingan. Bu holat o'qituvchidan yangiliklarga intiluvchan bo'lishni, darslarda yangi texnologiyalar va metodlardan keng foydalana olishni talab qiladi. Afsuski, hozirda bu jarayon tarqoq ravishda kechmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri ilmiy ishlanma va aniq ko'rsatmalarning yetishmasligidir. Ayniqsa, o'quv qo'llanmalarining yetarli darajada emasligi achinarli holatdir.

Mamlakatimizda tadqiqotchilarning yangi texnologiyalarga nisbatan munosabatlari doimo bir xil bo'lmagan. Yangiliklar avvalambor oliy o'quv yurtida sinab ko'rilgan. Mustaqillikdan so'ng tashkil etilgan universitetlarda yangi texnologiyalar an'anaviy uslublarga nisbatan ko'proq qo'llana boshlangan. Ular asosiy e'tiborni pedagogik yangiliklarga qaratganlar. Ilg'or pedagogik tajribalardan



foydalanilgan. Innovatsion muammolar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o'qituvchi shaxsini professiografik o'rganish, ularda tadqiqotchilik komicmalarini uyg'otish, pedagogik tajribalardan foydalanish, bo'lajak o'qituvchilarda uslubiy madaniyat, texnologik yondashuv kabi omillarni yuzaga keltirishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim paradigmasi juda zarur ekanligini ta'kidlash mumkin.

Oliy o'quv yurtlari o'quv jarayoniga yangiliklarni tatbiq etish tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-pedagogik o'zgarishlar ushbu jarayonni tubdan isloh qilishni taqozo qiladi.

Ta'kidlash joizki, ilgari ishlab chiqilgan ba'zi bir tizimlardan hozirgacha foydalanib kelinmoqda. Ular orasida talabalar tayyorlashning ko'ptarmoqli tizimi, tayyorlov kurslaridan foydalanish, universitet qoshida akademik litsey va kollejlarda ta'limi, sinov va imtihonlar minimumi, muammoli dars modellari bor.

O'qituvchilarni innovatsion tayyorlash tizimining mohiyati uning an'anaviy va yangi texnologiyalarini innovatsion qonuniyatlar asosida uyg'unlashtirishdan iborat.

Innovatika fanlararo murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon zamonaviy ta'lim faoliyatida o'qituvchi va talaba o'rtasida jonli muloqot shaklida amalga oshiriladi va bunda o'qituvchi hamda talaba shaxsi asosiy o'rin tutadi.

O'qituvchi tayyorlashni modellashtirish ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lib, u bir qator qarama-qarshiliklarning natijasi hisoblanadi.

Shu naqta nazardan o'qituvchilarni tayyorlash modeli respublika va mintaqaviy komponentlardan tashkil topadi. Respublika komponentlari tayanch ko'rsatmalardan iborat bo'lsa, mintaqaviy komponentlar kasbiy bilimlar majmuasidan iborat.

Kontekstual yondashuv ustivor innovatsion yo'nalishlardan biridir. Uning asosida talabalarning o'quv va kasbiy faoliyatining integrallashuvi amalga oshadi.

Практика последних лет показала необходимость использования в процессе физического воспитания в школе позитивного опыта и технологического потенциала спорта, так как регулярные занятия физической культурой и спортом играют большую роль в становлении личности и формировании здорового образа жизни подрастающего поколения. Такое значение массового спорта в свою очередь, актуализирует проблему эффективности физического воспитания школьников. В связи с этим идет интенсивный процесс выработки, соответствующих современному уровню развития знаний, физкультурно-оздоровительных технологий и систем, способных обеспечить каждому школьнику индивидуализированный подход к проблеме его личного здоровья и уровню его физической подготовленности [4].

Новые технологии спортивно ориентированного физического воспитания, по утверждению ученых и специалистов являются эффективными физкультурно-оздоровительными технологиями для внедрения в практику школы [4,5]

Главной теоретико-методологической основой нашего подхода является положение о том, что организация массового спорта для школьников должна базироваться на концепции соревновательности, связанной с управлением развития физического потенциала учащегося.

Ее реализация предполагает совершенствование механизма массового охвата учащихся и разработка оптимальных физических нагрузок, являющихся фундаментом здоровья будущего населения.

В соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан “О мерах по дальнейшему развитию физической культуры и массового спорта”, а также постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об организации непрерывной системы соревнований, направленной на привлечение учащейся и студенческой молодежи к спорту» [5,6], основными направлениями научного исследования являются:

1. Разработка программы массового и непрерывного вовлечения учащихся в спортивную активность на основе соревновательной системы, в рамках общеобразовательных школ
2. Экспериментальная проверка эффективности охвата учащихся спортивной активностью на основе программы.
3. Разработка управленческого механизма спортизации физического воспитания средствами общественного спортивного совета на уроках физической культуры и в системе дополнительного образования в режиме учебного дня.
4. Воспитание эффективных и результативных мотивов для формирования активного интереса к спортивной деятельности через соревновательность.



5. Приобщить и заинтересовать учащихся спортом, посредством участия в массовых непрерывных соревнованиях, в течение учебного года.

6. Изучение влияния непрерывной соревновательной системы на антропометрические показатели учащихся.

7. Разработка модели внеурочной деятельности на основе непрерывной системы соревнований.

Одной из приоритетных задач массового спорта является интеграция основного общего и дополнительного образования детей. В этой связи для успешной реализации физического воспитания и развития школьного спорта немаловажно привлечение кадрового ресурса системы дополнительного образования (тренеров-преподавателей ДЮСШ и др.)

Таким образом, узбекская система непрерывного спортивного движения позволяет, помимо двух учебных часов, отводимых базисным учебным планом, увеличить объем двигательной активности детей в режиме учебного дня школы до четырех, шести и более часов в неделю. Такая организационно-педагогическая форма физического воспитания в образовательных учреждениях, может являться основой внеурочного развития массового школьного спорта.

Литература:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан ПП-3031 от 03.06.17г. “О мерах по дальнейшему развитию физической культуры и массового спорта”.

2. Ахматов М «Управление массовой-физкультурно-оздоровительной и спортивной работы с детьми и учащейся молодежи» // Ҳалқ таълими №3, 2002г.,102-111.

3. Бальсевич В.К. Теория и технология спортивно ориентированного физического воспитания в массовой общеобразовательной школе /В.К. Бальсевич //Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2005. – №5. – С. 50 – 53.

4. Лукьяненко В.П. Современное состояние и концепция реформирования системы общего образования в области физической культуры [текст]: Монография /В.П. Лукьяненко. – М.: Советский спорт, 2005. – 256 с.

5. Постановление Кабинета Министров Республика Узбекистан №244г.от 03.06.2003г.«Об организации непрерывной системы соревнований, направленной на привлечение учащейся и студенческой молодежи к спорту».



UZLIKSIZ TA'LIMDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR ASOSIDAGI VIRTUAL RESURLARNI WEB-ILOVASIDAN FOYDALANIB O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

U.M.LUTFILLAYEV,
SamDChTI izlanuvchisi,
M.X.LUTFILLAYEV,
SamDChTI professori

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslar uchun Web-ilova dasturiy ta'minoti yaratish masalasi qo'yilgan bo'lib uning dasturiy ta'minoti va oliy ta'lim muassasalari uchun virtual resurslari yaratilgan. Maqolaning predmeti uzliksiz ta'limda kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslarni Web-ilovasidan foydalanib o'qitish jarayoni belgilangan.

Kalit so'zlar: Kompyuter imitatsion model, web ilova, virtual resurs, texnologiya, PhET dasturi, Macromedia dasturlari, multimedia.

В данной статье рассматривается вопрос создания программного обеспечения web-приложений для виртуальных ресурсов на основе компьютерных имитационных моделей в непрерывном образовании, а также его программного обеспечения и виртуальных ресурсов для высших учебных заведений. Предметом статьи является процесс обучения виртуальным ресурсам на основе компьютерных имитационных моделей с использованием web-приложения в непрерывном образовании.

Ключевые слова: Компьютерная имитационная модель, веб-приложение, виртуальный ресурс, технология, программа PhET, программы Macromedia, мультимедиа.

This article discusses the issue of creating software for web applications for virtual resources based on computer simulation models in lifelong education, as well as its software and virtual resources for higher education. The subject of the article is the process of teaching virtual resources based on computer simulation models using a web application in lifelong education.

Key words: Computer simulation model, web application, virtual resource, technology, PhET program, Macromedia programs, multimedia. *logy of creating web applications in the educational process.*

Kompyuter imitatsion modellarini o'quv jarayoning uzliksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida: boshlang'ich ta'limdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qo'llash mumkin. Keyingi vaqtlarda xattoki meditsina sohasida ham simulyatorlardan foydalanilmoqda. Kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real ob'ektlarga nisbatan juda ham arzon alternativa ekanligidadir. Bu borada kompyuter imitatsion modellari haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda biror bir fizik jarayonni modellash tirish hamda virtual



laboratoriya ishlarini o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu o'z-o'zidan nafaqat katta miqdorda mablag'larni tejalishiga, ekologik toza muhitda va mustaqil shug'ullanishga imkoniyat yaratadi. Kompyuter imitatsion modellarining kam miqdorda moliyaviy mablag'lar talab etmasligi ma'lum tadqiqotlarni talabalar tomonidan yuzlab, kerak bo'lsa minglab marotaba qayta-qayta mustaqil bajarish imkoniyatini yaratadi. Kompyuter imitatsion modellari dan foydalanishning yana bir afzallik tomoni ularning xavfsiz ekanligidadir. Ba'zi tadqiqotlarni amalga oshirish inson hayoti uchun xavf tug'diradi, masalan, yadro fizikasiga oid bo'lgan hodisalarni o'rganish. Bunday tadqiqot katta miqdorda moliyaviy xarajat talab etibgina qolmasdan, tadqiqotni olib boruvchilar uchun hayotiga xavf ham tug'diradi.

Kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish jarayonida talabalar ma'ruza vaqtida o'rgangan bilimlarini virtual bo'lsada hayotga tadbqiq qilish imkoniyatini yaratish dolzarb masalalardandir. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadqiqotlarning rivojlanishiga bevosita xissa qo'shadilar. Bundan tashqari simulyatorlarning rivojlanishiga, haqiqiy hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda o'z xissalarini qo'shishlari mumkin. Bu esa talabalarni faqatgina "tinglovchi" vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashuvchilarga aylantiradi. Natijada talabalarda o'qish va tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga olib keladi.

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslar uchun Web-ilova dasturiy ta'minotini yaratish masalasi qo'yilgan bo'lib uning dasturiy ta'minoti va oliy ta'lim muassasalari uchun virtual resurslari yaratilgan.

Maqolaning predmeti uzluksiz ta'limda kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslarni Web-ilovasidan foydalanib o'qitish jarayoni belgilangan.

Maqolaning ob'ekti oliy ta'lim muassasalarida kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslari Web-ilovalar yaratish texnologiyasi va o'quv jarayonigajoriy etish jarayoni belgilangan.

Maqoladan maqsad uzluksiz ta'limda kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslar uchun Web-ilovadan foydalanib o'qitish texnologiyalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etishdan iborat.

Xorijiy va Respublika olimlarining ilmiy-tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsamoqdaki o'quv jarayonida modellardan foydalanish yangi usul emas. Azaldan o'quv-o'rganish mobaynida turli ko'rinishdagi modellardan foydalanib kelingan.

Masalan, tabiiy fanlar yo'nalishida 2001 yildagi Nobel mukofotining laureati K. Viman tomonidan «Physics Education Technology» (PhET) sayti yaratilgan. PhET saytida har xil mavzularga oid modellar mavjud bo'lib, ular Java va Macromedia flash dasturlarida yaratilgan.



PhET saytida taqdim etilayotgan modellar Open Source bo'lib, xohlagan foydalanuvchi bepul foydalanishi mumkin. PhET dagi modellar soni 100 dan ortiq bo'lib ular fizika, matematika, kimyo fanlariga oid namoyish tajribalarini o'tkazish, virtual laboratoriya ishlarini tashkillashtirish va modellashtirish imkoniyatiga ega. Bu PhET dasturi O'zbekiston davlat ta'lim standartlariga va o'quv muassasalarida qo'llanilayotgan adabiyotlariga mos keladi.

PhET dasturidagi modellardan fizika, matematika, ximiya va biologiya fanlaridan dars mashg'ulotlarida namoyish tajribalari sifatida, virtual laboratoriya mashg'ulotlarini tashkillashtirishda keng foydalanish mumkin.

Xususan fizika faniga oid 90 dan ortiq modellar mavjud;

Biologiya faniga oid 10 dan ortiq modellar mavjud;

Matematika faniga oid 7 ta model mavjud;

Ximiya faniga oid 20 dan ortiq modellar mavjud.

Dasturda keltirilgan modellarni faqat ingliz tilida emas. Balki 50 dan ortiq tilga tarjimalarini topish mumkin, xususan o'zbek tilida 1 ta model tarjima qilingan.

Crocodile Chemistry dasturi orqali Mendelev jadvalida mavjud barcha elementlarning kimyoviy va fizikaviy xususiyatlarini o'rganish mumkin. Odatda kimyoviy reaksiyalar ruy berish vaqtida reaksiyaga qatnashayotgan molekullarning boshqa molekulaga aylanish jarayonini (molekulyar darajada) kuzatish iloji yo'q. Lekin, bu dastur orqali kimyoviy moddani boshqa moddalar bilan reaksiyaga kirishish jarayonida molekullarning dinamikasini kuzatish mumkin bo'ladi. Bu dastur orqali kimyoviy jarayonlarni modellashtirish, turli reaksiyalarni o'tkazish va, eng asosiysi, buni xavfsiz amalga oshirish o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlarida kimyo fanini o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan predmetlardan kompyuter imitatsion modellari asosida virtual resurslarni Veb – ilovadan foydalanib o'qitish texnologiyasini yaratish masalasi qo'yilgan. Maqolaning asosiy maqsadi o'quv jarayonida axborot-kommuniatsion texnologiyalarning vositalaridan foydalanib dars berish jarayonini samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalar ishlab chiqishdan iborat [1-13].

Oliy ta'lim muassasalarida kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslar uchun Web-ilova dasturiy ta'minotini yachrati uchun Respublikadagi mavjud ilmiy adabiyotlar, Internet ma'lumotlar va xorijiy ilmiy markazlarda chop etilgan ilmiy nashrlar o'rganib chiqildi. Jumladan Internet naashrlarida Web-ilovalar tushunchasi, ularning strukturasi, elementlari va modellari hamda yaratish algoritmnlari o'rganilib chiqildi va tahlil qilindi. Kompyuter imitatsion modellari asosidagi virtual resurslar uchun yaratilayotgan Web-ilovalar dasturiy ta'minoitni yaratish uchun ularning umumiy strukturasi alohida e'tibor qaratish lozim. Buning boisi ushbu Web-ilovalarni yaratishdan maqsad virtual resurslar asosida o'quv jarayonini samaradaorligini oshirishga qaratilgan.. Shu bois ushbu Web-ilovaning strukturasi



boshqa Web-ilovalarga nisbatan boshqacharoq ko'rinishga ega bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki oliy ta'lim o'quv jarayonida o'qitilayotgan, «**Individual taraqqiyot biologiyasi**», «**Umurtqasizlar zoologiyasi**») **tabiiy fanlarga** tegishli mavzular buyicha kompyuter imitatsion modellar asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish texnologiyasini yaratish bilan bir qatorda oliy ta'limda o'qitiladiga boshqa barcha predmetlardan virtual resurslar yaratish metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalardandir. Bugungi kunda multimedia texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish, talabalarni vaqtini tejashga, berilayotgan mavzularni mazmun-mohiyatini ochib berishga hamda ularni mustaqil o'rganishga mutlaqo boshqacha ko'rinishdagi imkoniyat yaratadi. Bu degan so'z kompyuter imitatsion modellar asosida yaratilgan virtual resurslardan (multimediali elektron o'quv qo'llanmalar) foydalanib ma'ruza, amaliyot darslarini tashkil qilish imkoniyati yaratilsa bir tomondan, ikkinchi tomondan talabalarga qulay, ixtiyoriy vaqtda bilim olish va ushbu predmetlar buyicha masofadan o'qitish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu maqolada uzluksiz ta'limda o'qitilayotgan barcha predmetlardan multimediali elektron qo'llanmalar yaratish va ularning o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi (texnologiyasi) ishlab chiqish masalasi tadqiq etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Е.Н. Гусева, И.Ю. Ефимова, Т.Н. Варфоломеев “Методика формирования навыков имитационного моделирования у ИТ-специалистов” Открытое образование Т. 23. № 1. 2019. DOI: <http://dx.doi.org/10.21686/1818-4243-2019-1-4-13>.
2. Е.Н. Гусева “Методика преподавания дисциплины имитационное моделирование у бакалавров прикладной информатики” ЭСик. №1(26). 2015.
3. Е.Н. Гусева “Имитационная модель строительной фирмы”. Вестник науки и Образования Северо-Запада России 2015, Т. 1, № 4.
4. Д.В. Митрофанов “Педагогические возможности информационных технологий в формировании интеллектуальной культуры студентов. ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ ГАУДЕАМУС, Т. 17, № 1, 2018. doi: 10.20310/1810-231X-2018-17-1-25-36.
5. Е.В. Константинов, В.С. Тимченко “Применение имитационного моделирования в учебном процессе транспортного ВУЗа. Мир науки. Выпуск 3 - 2015 июль – сентябрь. URL статьи: <http://mir-nauki.com/PDF/42PDMN315.pdf>.
6. Н.А. Гаряев, А.В. Рыбина “Имитационная модель материально-технического обеспечения строительных объектов”. Системные технологии (№26) 2018.



AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI ELEKTRON QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQUISHDA BILINGVAL – TA'LIMNI CLIL TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

T.T.ABSALOMOV,
Jizzax DPI katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada maktabgacha, o'rta va oliy ta'limning samarali muhitini yaratish uchun CLIL texnologiyasi asosida bilingval ta'limni elektron qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish texnologiyasi, Web 2.0 o'quv qo'llanmalariga tayanish lozim bo'lgan asosiy prinsiplar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim, CLIL texnologiyasi, bilingval, ta'limni elektron qo'llab-quvvatlash tizimi, Web 2.0, texnologik platforma.

В данной статье приведены основные принципы разработки системы электронной поддержки билингвального образования на основе технологии CLIL для создания эффективной среды дошкольного, среднего и высшего образования, которые должны опираться на учебные пособия Web 2.0.

Ключевые слова: дошкольное образование, среднее образование, высшее образование, технология CLIL, билингвал, электронная система поддержки обучения, Web 2.0, технологическая платформа.

This article describes the basic principles of the development of a bilingual education electronic support system based on CLIL technology to create an effective environment for preschool, secondary and higher education, which should be based on Web 2.0 textbooks.

Key words: preschool education, secondary education, higher education, CLIL technology, bilingual, electronic support system of education, Web 2.0, technology platform.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish, amaliyotda tadbiq qilish, shuningdek, texnologiyani shaxsiylashtirish tendensiyasi shaxsiy kompyuter (ShK) konsepsiyasini ishlab chiqish, keyinchalik cho'ntak kompyuter va smartfonlarning paydo bo'lishi o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich kiritilgan kuchli hisoblash vositalarining paydo bo'lishiga yordam berdi. Multimedia ma'ruzalari va onlayn kurslari banklari, elektron darsliklar to'plamlari, ixtisoslashtirilgan elektron kutubxonalar va boshqalar yaratilmoqda, masalan, Jizzax davlat pedagogika institutida (JDPI), LMS Moodle va HEMIS bazalarida masofaviy kurslar institutda o'qitiladigan ko'plab fanlardan joylashtirilgan. Har qanday o'qituvchi o'zining elektron darsini yaratishi va undan ta'lim maqsadlarida foydalanishi mumkin. Shubhasiz, axborotlashtirish sharoitida maktabgacha ta'lim, o'rta va oliy ta'lim pedagoglari faoliyati tarkibida tub o'zgarishlar yuz beradi. Zamonaviy o'qituvchining vazifalari va qamrov doirasi sezilarli darajada kengaymoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishi sharoitida pedagog o'quv



jarayonini an'anaviy ravishda ham, raqamli shaklda ham tashkil etishi kerak. Natijada, zamonaviy o'qituvchi ta'lim jarayonida raqamli (shu jumladan multimedia va interaktiv) manbalarni topishi, tahlil qilishi va ishlatishi, elektron ta'lim resurslarini loyihalashi, ishlab chiqishi va o'quv jarayoniga qo'shishi, shuningdek ularni o'qitishda foydalanish samaradorligini baholashi va o'rganishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bilingval bolalar bilan aloqani o'rnatish uchun munosabatlar oilaviy prinsipga muvofiq ravishda o'rnatilishi kerak, ya'ni o'qituvchilar bolalarga g'amxo'rlik va yordam ko'rsatib, ota-ona sifatida harakat qilishadi. O'rta va katta yoshdagi bolalar etarli so'z birikmalariga ega bo'lib, ularga mustaqil ravishda bir nechta so'zlardan jumla tuzish imkoniyatini beradi. Rus tilida so'zlashadigan o'quvchilar ikki tilli bolaning moslashishiga jalb qilinishi mumkin. U bilan rus tilida muloqot qilish va nutqini to'g'rilash orqali ular bolaga ikki tilli bo'lishga yordam beradi. Agar bir necha ikki tilli bolalar guruhda o'qisa, siz ularga birlashish imkoniyatini yaratishingiz va shu bilan bilvosita tilni o'rganish uchun ularga psixologik qulaylik yaratishingiz mumkin.

Ikki tilli bolalar faqat bitta tilda gaplashadigan tengdoshlariga qaraganda ancha yaxshi o'qiydi degan ilmiy isbotlangan haqiqat mavjud. Ikki tillilik xotira, aql, zehnlilik, matematik ko'nikmalar va mantiqiy fikrlash kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Bilingval-bolalar adabiyot, nazariy fanlarni va xususan, chet tillarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar.

Tizimlilik va ketma-ketlilikka qo'yilgan talab eng avvalo o'qitish uzviyligini saqlashga yo'naltirilgan. Shuning uchun ham o'qitish uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mazmun, maqsad, metodlar, vositalar bo'yicha mantiqiy bog'langan tizim sifatida qurilgan bo'lishi kerak. Bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchi shaxsining istiqbolli rivojini ta'minlaydi.

Ta'limning samarali muhitini yaratish uchun o'rta maktabda CLIL texnologiyasi asosida bilingval ta'limni elektron qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqishda biz M.Choshanovning tavsiyalariga asoslandik. Ushbu jarayon bir necha bosqichlardan iborat edi (1-rasmga qarang). O'rta va oliy ta'limda to'rta kichik bosqichni o'z ichiga olgan o'quv mahsulot/texnologiyalarini yaratish bosqichlari:

- o'quv mahsulotlarini/texnologiyalarini tahlil qilish;
- ta'lim mahsulotlarini/texnologiyalarini ishlab chiqish (mantiqiy tatbiq etish);
- o'quv mahsulotlarini/texnologiyalarini loyihalash (jismoniy amaliyot);
- o'quv mahsulotlarining/texnologiyalarining sifat nazorati.

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalqaro Internet tarmog'idan foydalangan holda ta'lim jarayonini yuritish, ayniqsa mashhur bo'ldi. Darhaqiqat, ta'limda internetdan «an'anaviy» foydalanish, internetda o'rta va oliy ta'lim resursini yaratish, uning



funksiyalarini sozlash va yaratilgan manbadan o'qituvchilar va talabalar tomonidan yanada ko'proq foydalanishga olib keladi. Ushbu texnologiyaning asosiy afzalligi – bu resursning mavjudligi (resursga kirish uchun faqat internetga ulanish kerak) va biron-bir qurilma yoki dasturiy platformasi qo'shilmaganligidadir (resursdan foydalanish uchun talaba faqat brauzerni ishga tushirishi va qo'shimcha dasturiy ta'minot o'rnatmasligida). Internetning tarqalishi masofaviy ta'limning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Raqamli ta'lim xizmatlarini rivojlantirish maqsadida ilmiy va o'quv tashkilotlari ommaviy ochiq masofaviy kurslar - OOMK (MOOC - *massive open online courses*) uchun platformalar yaratmoqda. Ushbu kurslar quyidagi vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan:

- ko'p sonli o'quvchi va talabalar uchun ularning joylashuvidan qat'iy nazar mashg'ulotlar o'tkazish;
- uni jadallashtirish maqsadida o'qitishning interfaol usullari va shakllaridan foydalanish;
- o'rta va oliy ta'limni individuallashtirish.

Biroq, ba'zi tadqiqotchilar elektron o'quv kurslar keng joriy etilishiga shubha bilan qarashadi. «Inside Higher Ed» va Gellapa institutlari ta'lim jarayonida ommaviy onlayn kurslarni amalga oshirgan universitet o'qituvchilari orasida so'rov o'tkazdi. So'rov natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 54% onlayn kurslar pedagogik g'oyalar rivojiga hissa qo'shadi, degan fikrga qo'shilmaydi. Shu bilan birga, respondentlarning 83% ushbu echimdan foydalanish talabalarning faoliyati ko'rsatkichlarini yaxshilaydi degan fikrga qo'shilmaydi [2].

Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'lim, o'rta va oliy ta'lim faoliyatini rivojlantirishning yangi zamonaviy bosqichini belgilab berdi. Ta'limning an'anaviy shakllari, usullari va yondashuvlarini faollashtirish va o'zgartirish imkoniyati mavjuddir. Hayotning tezlashish sur'ati tufayli tobora ko'proq odamlar minimal vaqt yo'qotish bilan ta'lim xizmatlarini olishga intilishadi [3].

Yangi avlod maktabgacha ta'lim, o'rta va oliy ta'limining davlat ta'lim standartida o'qitishning barcha bosqichlarida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari ustun bo'lgan ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan yondashuviga yo'naltiradi. Bunday sharoitda o'quvchi yoki talaba ta'lim-tarbiya jarayonini birgalikda joriy etuvchi, o'qituvchining yordamchisi va hamkasbi rolini kuchaytirishga harakat qiladi.

Kunduzgi va elektron ta'lim usullari va texnologiyalaridan foydalanish bir vaqtning o'zida ushbu ta'lim shakllaridan foydalanishga imkon beradi. An'anaviy o'qitish shakllari o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida bevosita shaxsiy muloqotga asoslanadi. Raqamli ta'lim va multimedia vositalari axborot etkazib berishning turli shakllarini ta'minlaydi. Raqamli va an'anaviy echimlardan birgalikda



foydalanish, iqtisodiy jihatdan samarali va qulay ta'lim muhitini rivojlantirish, o'quv jarayonini interfaol, shaxsga yo'naltirilgan va jarayonning barcha ishtirokchilari uchun moslashtirishga imkon beradi. Yuqoridagilarga asoslanib, texnologik platformani tanlashda biz quyidagi mezonlarga asoslandik:

1. Texnologik platforma o'qituvchi yoki talabaga o'quv materialini ishlab chiqish uchun boy funksiyalarni ta'minlashi kerak. Ushbu talab platforma turli formatlar va axborot ta'minoti turlarini qo'llab-quvvatlash kerak;

2. Texnologiya platformasi o'quv materialini loyihalash uchun qulaylikni ta'minlashi kerak, ya'ni o'quv materialini yaratish o'qituvchi yoki talabadan maxsus texnik ko'nikmalarni talab qilmasligi kerak.

Bizni nazarimizda, bilingval ta'lim modelini loyihalashda ikkinchi mezonni amalga oshirish o'ta muhimdir. Nima uchun? Bugungi kunda elektron ta'lim resurslari bozorining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Xususan, bunday materiallar o'zbek tilida so'zlashuvchi jamoatchilik uchun yaratilgan. Masalan, o'quv resursi «kitob.uz» [5] o'zbek tilini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda didaktik materiallardan tashqari o'zbek tilidagi shoir va yozuvchilarning katta asarlar to'plami to'plangan. Uning sahifalarida o'zbek tiliga oid darsliklar ham mavjud (O'zbek tili. 5-11 sinflar va interfaol elektron darslik). Biroq, ko'plab yuqori sifatli onlayn resurslar ko'plab moliyaviy qo'llab-quvvatlash va maxsus qurilmalar va dasturiy ta'minot foydalanish bilan yaratilgan. Shuning uchun umumjahon platformalarida Internet resurslarini yaratish, funksionallik va foydalanish qulayligi o'rtasida bog'liqlikni yaratish yanada maqsadga muvofiqdir. Bu echim, bizningcha, Web 2.0 resurslarini tanlashdir.

Web 2.0 – bu Internet-resurs tarkibidagi ma'lumotlar yaratish usuli bo'lib, unda Internet-resursda axborotlar ushbu resurs foydalanuvchilari tomonidan yaratiladi, to'ldiriladi va tahrir qilinadi. Bu holda Internet resurslarining moderatorlari va ma'murlari faqat xizmat va texnik platformani taqdim etadilar, ammo uni tarkib bilan to'ldirish jarayonida ishtirok etmaydilar [8]. Web 2.0 resurslari nafaqat kundalik hayotda, balki o'rta va oliy ta'limda ham mustahkam o'rnatilgan. Timu O'Reylining so'zlariga ko'ra, «Web 2.0 - tarmoqlararo o'zaro aloqalarni hisobga olgan holda, ulardan ko'proq foydalanadigan tizimlarni loyihalashtirishdan metodidir.»

CLIL texnologiyasi asosida boshlang'ich va o'rta ta'limni o'qitishda sinab ko'rishda quyidagilarni amalga oshirsa bo'ladi:

- o'quv natijalarini o'rta va oliy ta'limda talabaga ko'rinadigan qilish;
- o'rta va oliy ta'limda talabaning akademik tilini (CALP) tizimli ravishda rivojlantirish;
- o'quv ko'nikmalarini rivojlantirishni rag'batlantirish va o'z-o'ziga



ishonishni rivojlantirish;

- o‘z-o‘zini baholash, bajarilgan ishlar uchun baholash va treningda muvaffaqiyatga erishish;

- bilimni rivojlantirish va o‘rta va oliy ta’limda talabalarning ortiqcha yuklanishning yo‘qligi bilan xarakterlanadigan «xavfsiz ta’lim muhitini» (safe learning environment) yaratishga yordam berish;

- hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga hissa qo‘shish;

- nafaqat moslashtirilgan, balki autentli matnlarni ham o‘zlashtirish;

- yuqori darajali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

- o‘rta va oliy ta’limda talabalar ikkinchi tilni o‘rganishda bilim va lingvistik qiyinchiliklarga duch kelmasligini ta’minlash uchun qo‘llab-quvvatlash texnologiyasidan (“scaffolding”) foydalanish;

- o‘rganishni shaxsga mazmunli jarayonga aylantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Чошанов М.А. Дидактическая инженерия и информатизация образования/Чошанов М.А.//Образование, устремленное в будущее-Казань, Изво «ФЭН», 2016-сс. 119-151.

2. Jaschik S. (2013). MOOC skeptics at the top. Inside Higher Ed. May 02, 2013. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.insidehighered.com/news/2013/05/02/survey-finds-presidentc-are-skeptical-moocs>.

3. Нагаева, И.А. Смешанное обучение в современном образовательном процессе: необходимость и возможности/ И.А. Нагаева// Отечественная и зарубежная педагогика. -2016. - №6. - С.56-67

4. Staker H., & Horn M. B. (2012). Classifying K-12 Blended Learning. San Mateo: Innosight Institute, Inc.

5. Интернет-сайты [Электронный ресурс], режим доступа: <http://www.kitob.uz>



RAQAMLI MEDIA TA'LIM MUHITIDA TA'LIM JARAYONI: MEDIARESURLARNING PEDOGOGIK IMKONIYATLARI

Z.A.UMAROVA,
TDPU doktoranti

Mazkur maqolada raqamli media ta'lim muhiti sharoitida ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim jarayonida mediaresurslardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Muallifning fikricha, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim jarayonida mediaresurslardan foydalanish ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli, ko'rgazmali tarzda o'tilishi va ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga, bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligini yuqori sifat bosqichiga olib chiqishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: mediaresurs, raqamli texnologiyalar, raqamli media ta'lim muhiti, mustaqil ta'lim.

В данной статье раскрываются педагогические возможности организации учебного процесса в контексте цифрового медиа образования, использования медиа ресурсов в образовательном процессе. По мнению автора, использование медиа ресурсов в учебном процессе на всех этапах непрерывного образования позволяет обогатить учебный процесс наглядными материалами, провести урок качественно, наглядным представлением и повысить эффективность усвоения учащимися и студентами предмета, что в свою очередь позволяет принести эффективность обучения на высоком качественном уровне.

Ключевые слова: медиа ресурс, цифровые технологии, цифровое медиа образовательное пространство, самообразования.

This article reveals the pedagogical possibilities of organizing the educational process in the digital media educational environment, the use of media resources in the educational process. According to the author, the use of media resources in the educational process at all stages of lifelong education allows you to enrich the educational process with visual materials, conduct a lesson with a high quality, visual presentation and increase the effectiveness of students' mastering of the subject, which in turn allows you to bring the effectiveness of education at a high quality level.

Key words: media resource, digital technologies, digital media educational environment, self-learning.

Zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanish sur'atlari pedagogika oldiga tendensiyalardan ortda qolmaslik talablarini qo'yadi. Soha mutaxassislarining xulosalariga ko'ra, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi, ta'limning yangi bosqichi – raqamli ta'lim davrini boshlanishiga turtki beradi. Mamlakatda ta'limni raqamlashtirish islohoti ta'lim berish va ta'lim olish tarzini o'zgartirib, ta'lim



sohasining evolyutsiyasiga olib kelishi shubhasiz.

Darhaqiqat, raqamli texnologiyalar kundan – kunga rivojlanib, hayotimizning har bir jabhasiga kirib borayotgan bir pallada – raqamli asrda ta'lim berish an'analariga ham ta'sir etmay qo'ymaydi.

Ta'lim jarayonini samarali va zamonaviy talablarga mos tarzda tashkil etishda media muhit, ya'ni mediaresurslar va raqamli media texnologiyalardan foydalanish qator pedagogik imkoniyatlarni taqdim etadi. Media muhit ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o'tilishi va ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga bevosita xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida mediaresurslardan foydalanish, umuman ta'limni media muhitda tashkil etish amaliyotining muhim afzalligi shundaki, u uzluksiz ta'limning barcha bosqichlariga birdek mos keladi. Sababi, ta'lim oluvchilar – xoh u o'quvchi bo'lsin, xoh talaba, maktabda ham, oliy ta'lim muassasalarida ham, uzluksiz ta'lim tizimimizning barcha bosqichlarida ko'rgazmalilik tamoyiliga asoslangan ta'lim jarayoni, ya'ni ta'limning media muhitda tashkil etilishi hech shubhasiz samara beradi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida yagona axborot makoni, jumladan media muhitning joriy etilishi pedagogik ta'limning sifatini va axborot ta'minotini rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratadi.[3,78] Media muhitda tashkil etilgan ta'lim jarayoni bevosita rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini qo'llanilishini ko'zda tutishi bilan ahamiyatlidir. Media ta'lim talabalarning shaxsiyatini, fikrlash mustaqilligini rivojlantirishga, ijodiy faoliyatda bevosita ishtirok etish orqali o'z qobiliyatini rag'batlantirishga, media-matn tuzilishini idrok etish, talqin qilish va tahlil qilish, media-madaniyat to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradigan muammoli, evristik, o'yin va boshqa samarali o'qitish shakllariga asoslangan darslarni o'tkazish metodikasini nazarda tutadi. Shu bilan birga, ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarni o'zida birlashtirgan media ta'lim talabalarni media-madaniyat asarlarini yaratish jarayoniga jalb qilishning o'ziga xos turidir. [4,9]

McDougall va boshqalar media malakasiga ega bo'lgan talabalar o'z tengdoshlariga qaraganda ko'proq texnik va savodli materiallar ishlab chiqarishga qodir ekanliklarini aniqladilar. Ular media malakaga ega bo'lgan talabalar raqamli sohalarida o'zlarini yanada qulayroq his etishlarini, ularning ijodlari texnik jihatdan uyg'unroq va hikoyalari yanada savodli ekanligini kuzatishgan. [5, 36]

Hozirgi zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonini raqamli media ta'lim muhitida olib borishni talab etmoqda. Raqamli media ta'lim muhitini yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad – ta'lim oluvchilarning mustaqil ravishda bilim olishga bo'lgan intilishlarini va zavq bilan yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan. Sa'diy Sheroziy tahsil olishga o'zida istak – xohish bo'lmagan ta'lim oluvchini qanotsiz qushga qiyoslaydi. Darhaqiqat, ta'lim



samaradorligi ta'lim oluvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishi, motivatsiyasiga bevosita bog'liq. Ma'lumki, inson o'zi uchun qiziq bo'lgan, uning qiziqishlari va shaxsiy qarashlariga eng mos keladigan, o'ziga tortadigan ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qiladi. Medianing barcha uchun qiziqarli va jozibali ekanligini inobatga olsak, umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida ta'limiy maqsadlarda mediaresurslardan foydalanish o'quvchi va talabalar o'quv motivatsiyasini oshirishda eng yaxshi yechimlardan biri deb ayta olamiz.

O'quv faniga doir media resurslarning yaratilishi mazkur fan doirasida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, xususan raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, ta'lim oluvchilarning axborot, media va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va mustaqil ravishda ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Raqamli media ta'lim muhitini yaratish ta'lim oluvchilarga uyda o'tirgan holda ham o'quv jarayonini to'xtatmaslik, fanlarni mustaqil ravishda o'rganish, bilimlarni mustahkamlash hamda o'qituvchi va pedagoglar bilan masofadan turib muloqot qilish imkonini beradi. Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedaning muhim yutuqlaridan hisoblanadi. [6] Buni Edgar Deylning tajriba konusi tadqiqoti natijalarida ham ko'rishimiz mumkin. AQShning taniqli o'qituvchisi Edgar Deyl ma'lumotlarni qabul qilish, o'rganish va eslab qolish jarayonini tadqiq etgan. Deylning fikricha, ikki hafta o'tgach, biz o'qiganimizdan atigi 10% ni, lekin bir vaqtning o'zida ko'rgan va eshitgan narsalarimizning 50% ni eslab qolishimiz mumkin.

C. Worsnop] mediani o'quvchi va talabalarga nafaqat u yoki boshqa bilimlarni berish uchun o'rgatish kerak, balki bugungi kunda media bizning atrof muhitimiz va bizni o'rab turgan narsalarga e'tibor bermaslik mantiqan to'g'ri bo'lmaydi, deya ta'kidlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mediaresurslar ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, axborotlarni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda vizual (grafik) tarkibning ahamiyatini ko'rsatish uchun Mayk Parkinsonning misolini keltirish joiz. [9, 62] Uning yordamida ko'pgina hollarda matnli ta'rifni tushunish vizual tasvirga nisbatan ancha qiyin ekanligini yaqqol ko'rishimiz mumkin: Keling, dastavval quyidagi savolga javob berishga harakat qilib ko'ramiz: «Doira nima?» «Doira - bu har bir nuqtasi markazdan teng masofada joylashgan egri chiziq». Mazkur matnli ta'rif bilan birgalikda doiraning vizual tasvirini taqdim etilishi, uni yanada yaxshiroq tushunishga zamin bo'ladi. Demak, mediaresurslar berilayotgan



axborotni mazmunini vizual tarzda boyitishga xizmat qiladi va uni tushunish, eslab qolish jarayonlarini osonlashtiradi.

Shunday qilib uzluksiz ta'lim tizimida media muhit deganda zamonaviy axborot va media-texnologiyalar asosida qurilgan, zaruriy psixologik va pedagogik shart-sharoitlar, o'qitishning zamonaviy texnologiyalari va dasturiy-uslubiy vositalarini, axborot va mediaresurslarni mujassamlashtiruvchi zamonaviy pedagogik tizimning raqamli axborot ta'lim makonini tushunamiz. Uzluksiz ta'lim tizimining media ta'lim muhitida asosiy axborot tashuvchi sifatida matn, tasvir, ovoz yoki video ko'rinishdagi multimedik elektron ta'lim manbaalari, ya'ni mediaresurslar qatnashadi. O'quv jarayoniga mediaresurslar va media ta'lim texnologiyalarini, bir so'z bilan aytganda raqamli media ta'lim muhitini joriy etish orqali ta'lim olish va ta'lim berish amaliyotining samaradorligini oshirilishiga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847 sonli Prezident Farmoni, 08.10.2019.

2. A.Umarov, Z.Umarova, F.Umarova «Raqamli O'zbekiston: raqamli ta'lim muhiti va raqamli iqtisodiyot». Raqamli iqtisodiyot: yangi O'zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali rivojlantirishning yangi bosqichi mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, - T.:2020, 131 b.

3. R.Hamdammov, U.Begimkulov, N.Tayloqov «Ta'limda axborot texnologiyalari», Oliy ta'lim muassasalari uchun / O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2010, 120 b.

4. А.Федоров «Медиаобразование: история и теория». М.:МОО «Информация для всех», 2015. 450с.

5. J. McDougall, M. Zerkova, B. van Driel, D. Sternadel, «Teaching media literacy in Europe: evidence of effective school practices in primary and secondary education», NESET II report. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2018. 88p.

6. D. Buckingham «Do We Really Need Media Education 2.0. Teaching Media in the Age of Participatory Culture». In: Lin TB., Chen V., Chai C. (eds.) New Media and Learning in the 21st Century. Education Innovation Series. Singapore: Springer. 2015. [Electronic resource] https://www.researchgate.net/publication/266250340_Do_We_Really_Need_Media_Education_20_Teaching_Media_in_the_Age_of_Participatory_Culture.

7. Z.Umarova «Media resources as an effective tool of students' self-education». European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 8, 2020.



UZLUKSIZ TA'LIMDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI VOSITASIDA LOYIHALASHNI VA MODELASHTIRISH

F.A.UMAROVA,
TDPU, doktoranti

Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarga axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanish orqali kiyimlarni loyihalash va modelashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda "SCADEduWeb" mualliflik metodikasidan foydalanish masalalari yoritib berilgan. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini o'rtirish kelajakda olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olish qobiliyatlarini o'rtirish masalalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, masofaviy ta'lim, vizual-mantiqiy fikrlash, fundamental va kasbga yo'nalganlik tamoyili, integrativlik tamoyili, kommunikatsiya, multimedia, "SCADEduWeb" mualliflik metodikasi.

В этой статье обсуждается использование в системе непрерывного образования авторского методологии SCADEduWeb для развития навыков проектирования и моделирования одежды посредством использования инструментов информационных и коммуникационных технологий учащихся и студентов. Указаны проблемы решения вопросов, в системе непрерывного образования, повышения знаний и навыков учащихся и студентов, повышения их интереса к процессу обучения и развития их способности применять полученные знания на практике в будущем.

Ключевые слова: цифровые технология, дистанционное обучение, визуально-логическое мышление, принцип фундаментальная и профессиональная направленности, принцип интегративности, коммуникация, мультимедия, авторская методология SCADEduWeb.

This article discusses the use of the author's SCADEduWeb methodology in the system of continuing education to develop skills in designing and modeling clothes through the use of information and communication technology tools of students and students. The problems of solving issues in the system of continuous education, increasing the knowledge and skills of pupils and students, increasing their interest in the learning process and developing their ability to apply the knowledge gained in practice in the future are indicated.

Key words: digital technology, distance learning, visual-logical thinking, fundamental and professional orientation, integrative principle, communication, multimedia, author's SCADEduWeb methodology.

Ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, raqamli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha samarali ish olib borayotgan ilg'or davlatlar, mintaqalar ta'limning yuqori sifat natijalarini ko'rsatmoqda. Shu bois O'zbekiston ham xorijiy davlatlarning



ilg'or tajribalarini o'rganib chiqib, o'z taraqqiyoti yo'lida ildam olg'a qadam tashlashda davom etmoqda [1, 46].

Ta'limda individual yondashuv – o'zgaruvchan grafik, ish va o'qishni birga qo'shib olib borish, shuningdek, o'zlashtirilayotgan materialni ma'lumotni individual o'zlashtirish tezligiga moslash masofaviy ta'limni barcha uchun qulay qilib qo'yimoqda[3, 21-22].

Masofaviy ta'limda uzluksiz ta'lim ishtirokchilari bo'lgan o'quvchi yoki talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan yangi funksiyalarni bajaradi. Elektron ta'lim, xususan, masofaviy ta'lim jarayonini qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo'lsa, ikkinchi sharti maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligidir:

1. Texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qurilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, videokonferensiya jihozlari va hokazo.

2. Dasturiy ta'minotga shu soha uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami kiradi.

Vizual-mantiqiy fikrlash komponentlari nson hayotida o'ta muhim rol o'ynaganligi sababli, ta'lim jarayonida AKTdan foydalangan holda materiallarni o'rganishda ulardan foydalanish o'rganish samaradorligini oshiradi[4, 127-129].

Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AKT kutilgan sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydi (Kuban 2001; Kuba, Kirkpatrik va Pek 2001; Robertson 2003). Boshqa tomondan, AKT orqali amalga oshirilayotgan ta'limdagi o'zgarishlar talabalarni o'qitishdagi samarali o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligi aniq (Vong va Li 2008). [2, 215 bet]

Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi.

O'quvchi va talabalarni loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish jarayoni tamoyillariga ta'lim mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari va didaktik vositalarini aniqlaydigan dastlabki qoidalar nazarda tutiladi. Fundamental va kasbga yo'nalganlik tamoyili-fanlararo aloqadorlik asosida bilimlarni differensiyallash, talabalarni ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, kasbga va fanga bo'lgan qiziqishini oshirish; olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash



va mehnat faoliyatida tadbqiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi. Integrativlik tamoyili-dizayn sohasida portfolio yaratishda buyumlar tayyorlash va loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish, loyihalash va modellashtirish bilim, ko'nikma va malakalarini turli fan sohalariga jalb qilishni ko'zda tutadi.

Biz talabalarning loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish va ta'lim samaradorligiga erishish maqsadida kuzatuvlarimiz va tadqiqotlarimiz asosida ishlab chiqqan **“SCADEduWeb”** mualliflik metodikamizni taklif etdik. Ushbu mualliflik metodikaning har bir bosqichi yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetentliklarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchi va talabalarning AKT savodxonligini oshirish bilan bir qatorda dunyo yangiliklari bilan hamnafas bo'lishlariga imkon yaratiladi. Ushbu mualliflik metodikaning har bir bosqichi yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetentliklarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Science–(ilm-fan) kompyuter yoki mobil qurilmalaridan foydalanib, elektron darslik, elektron qo'llanmalaridan foydalangan holda fan yangiliklarini o'rgatadi;

Creative thinking–(kreativ (ijodiy) fikrlash) Mind mapping metodi orqali vengage.com, mindmeister.com, MindMeister, Lucidchart, MindMup kabi Mind mapping online servislardan foydalanib, tanqidiy va ijodiy fikrlash vazifalarini bajaradi, muammolarni hal qilishni yangi usullarini ishlab chiqishni o'rgatadi;

Art–(san'at) yangi maxsulot uchun g'oyalardan foydalanib, ijod qilib, davra suxbatlari, munozara, debatlar orqali Skatchbook, kompyuter yoki mobil qurilmalarda mavjud muammoga mos uslubda (stilda) eskizlar yaratishni o'rgatadi;

Design engineering–(dizayn muxandisligi) kompyuter, mobil qurilmalari, internet tarmoqlaridan foydalanib SWOT analiz metodi orqali muammoni hal qilishning yetarlicha moslashuvchan kuchli yondashuvi, jarayonning har bir bosqichida yoki har qanday vaziyatda muammo va mumkin bo'lgan yechimlar to'g'risida muhim ma'lumotlarni o'rgandi. Olingan ma'lumotlar orqali ijodkorlikni muxandislik bilimlari bilan birlashtirishga imkon beradi va g'oyalarni real mahsulotlarga aylantiradi, “Valentina” dasturida buyum konstruksiyasini quradi. Ishlab chiqarishda foydalanish uchun yangi mahsulotlar va tizimlar uchun g'oyalarni o'rganadi, tadqiq qiladi va ishlab chiqaradi. Shuningdek samaradorlikni yoki unumdorlikni oshirish uchun mavjud mahsulotlar yoki jarayonlarni o'zgartirishni o'rgatadi;

Education Web 2.0–(ta'lim web 2.0.) mustaqil ta'lim shaklida tashkil qilinib, auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida amalga oshirilishi mumkin. Bu bosqichda active involvement metodi orqali social media, educational networks, internet,



kompyuter, mobil qurilmalaridan foydalanib, telekamunikatsion ta'lim tarmog'i orqali o'qituvchilar, o'quvchi va talabalar, ota-onalar, ta'lim organlari mutaxassislari, qo'shimta ta'lim muassasalari o'rtasida axborot almashinishlari, jamoa bilan ishlashni, internetdagi matn, ovoqli xabarlar, videolavhalar va turli xil axborot manbalarini olish, qayta ishlash va joylashtirish imkoniyatlarini yaratib beradi. Foydalanuvchilarga internet orqali ommaviy aloqaning bir shakli sifatida foydalanishni va virtual jamoalar, tarmoqlar orqali ma'lumotlar, g'oyalar, qiziqishlar va boshqa ifoda shakllarini yaratish, almashishni osonlashtiradi. Shu bilan birga o'qituvchilar, ota-onalar, ta'lim organlari mutaxassislari, qo'shimta ta'lim muassasalari tomonidan talabalarni nazorat qilishni avtomatlashtirilgan jarayonida qatnashishdi. Ushbu tizim foydalanuvchilarga internet orqali ommaviy aloqaning bir shakli sifatida foydalanishni va virtual jamoalar, tarmoqlar orqali ma'lumotlar, g'oyalar, qiziqishlar va boshqa ifoda shakllarini yaratish, almashish imkoniyatlarini osonlashtirishda yordam berdi.

Taklif etayotgan ushbu "SCAEduWeb" metodikamiz maktabda "Tehnologik ta'lim" fani doirasida, professional ta'lim tizimida va oliy o'quv yurtlarida esa mutaxassislik fanlari doirasida dars mashg'ulotlarini tashkil etishda bolalar, ayollar va erkaklar ko'ylaklari, bluzkalari, yubka va shim loyixalarini yaratish, modellashtirish va tikishni an'anaviy darsh jarayonida yoki noan'anaviy tarzda tashkil etilgan masofadan turib o'qitish uchun mo'ljallangan. Fan doirasida tinglovchiga qulay bo'lgan vaqtda mustaqil o'rganishi uchun bir qancha batafsil videolar, fotosuratlar va matn materiallarini va uslubiy ko'rsatmalarni mujassamlashtirilgan "Talabalarga kiyimlarni "Valentina" dasturiy vositasida loyihalash va modellashtirishni o'rgatish." nomli elektron qo'llanmamiz taklif etilgan. Bajarilgan vazifalarni tushuntirish, maslahatlar berish va tekshirish uchun fan o'qituvchisi bilan to'g'ridan to'g'ri yozma shaklda onlayn muloqot qilish uchun vaqt ajratilgan. Bu yerda tinglovchi o'lovchlarni qanday olishni, qo'shimchalarni aniq tanlashni va asos andozani qurishni o'rganadi. Bundan tashqari yuqori sifatli andozalarni qanday yaratishini va modellashtirishni, tikuvchilik hunarmandchiligi asoslarini – buyum qirgimlariga ishlov berishni, tikuv uskunalarini va vositalarini to'g'ri tanlashni, tikishda paydo bo'ladigan nuqsonlarni tuzatishni o'rganish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimida AKTni qo'llash, "SCAEduWeb" mualliflik metodikasi orqali dars mashg'ulotlarini tashkil etish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara beradi. Shunig uchun bu boradagi nazariy, uslubiy va boshqa jihatlarini davr talablari asosida takomillashtirilishi bugungi kunnig dolzarb vazifalaridan biridir.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga mo'ljallangan ko'nikmaga



asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga ta'lim maskanlarida malakali, professional shaxsga aylanish imkonini beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, zarur bilimlarni sotish va sotib olish uning tovarga aylanganligini bildiradi. Chunki, bilimlarning muntazam ravishda yangilanib turilishi va ularni ish kuchi tomonidan qo'llanilishi ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotning kalitidir. Bilim berishga ixtisoslashgan oliy ta'lim, o'rta maxsus o'quv yurtlari va maktablarda innovatsiyalar keng ko'lamda qo'llanilishi zarur. Ya'ni, masofaviy o'qitishni xar bir bosqichga, ya'ni bog'cha, maktab, professional ta'limi va oliy ta'limga tatbiq etish, yangi fanlar va texnologiyalarni, "SCADEduWeb" mualliflik metodikasini qo'llash kabilar shular jumlasidandir. Ushbu jarayonning ommaviylashishi natijasida, ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish va bozor bilan aloqasi yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari turli vaziyatlarga ko'ra ta'lim muassasalariga borib ta'lim olish imkoniyati bo'lmagan yoshlarni bilim olishlari va kasb hunarni egallashlariga zamin yaratadi. Shu bilan bir qatorda fanni o'zlashtirish va ta'lim samaradorligiga erishish ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Umarov, Z.Umarova, F.Umarova «Raqqamli O'zbekiston: raqqamli ta'lim muhiti va raqqamli iqtisodiyot» Raqqamli iqtisodiyot: yangi O'zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali rivojlantirishning yangi bosqichi mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, – Tashkent 2020 pp. 46-48.

2. Albert Sangra & Mercedes Gonzalez-Sanmamed "The role of information and communication technologies in improving teaching and learning processes in primary and secondary schools" [ALT-J, Research in Learning Technology] Vol. 18, No. 3, November 2010. 207-220 bet.

3. N.Muslimov, D.Sayfurov, M.Usmonboyeva va A.To'rayevlar. Web-texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish. – T., 2015. 102 bet.

4. Abduqodirov A. A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T., 2002. 152 bet.



TA'LIM TIZIMIDA AKT VA AXBOROT XAVFSIZLIGI OMILLARI

G.XOLIQOVA,

Navoiy XTXQTMO'HM o'qituvchisi

Ta'lim jarayoni barcha jabhalarni axborotlashtirish sharoitida inson faoliyatini yo'lga qo'yish, unda yangi axboriy madaniyatini shakllantirishi jamiyatni axborotlashtirish sohasida yagona va muhim omil bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola ham bevosita axborot ta'lim vositalaridan foydalanish va xavfsizlik choralariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, o'quv jarayoni, axborot xavfsizligi, axborot va telekommunikatsiya tizimlari, elektron biznesni rivojlantirish.

The formation of a new information culture in the context of informatization of all aspects of the educational process, the formation of a new information culture remains the only and important factor in the field of informatization of society. This article also deals directly with the use of educational media and security measures.

Key words: education system, educational process, information security, information and telecommunication systems, e-business development.

Формирование новой информационной культуры в условиях информатизации всех сторон образовательного процесса, формирование новой информационной культуры остается единственным и важным фактором в сфере информатизации общества. Эта статья также напрямую касается использования образовательных средств массовой информации и мер безопасности.

Ключевые слова: система образования, учебный процесс, информационная безопасность, информационные и телекоммуникационные системы, развитие электронного бизнеса.

Axborot borlig'ida tahdidlar xavfining oshishi hamda davlat axborot infratuzilmasining zaif himoyalanganligini birinchi navbatda axborot xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi malakali kadrlarning yetishmasligi bilan izohlash mumkin. Bu jihatdan ta'lim tizimida axborot xavfsizligi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratish, uning texnik va gumanitar tomonlarini uyg'un holda ta'lim tizimiga kiritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Aytish joizki, qonunchilik sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda axborot xavfsizligini ta'minlashning bu ikki jihati ma'lum darajada o'z aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonun hujjati axborot resurslari va axborot tizimlari muhofazasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etsa, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonun hujjati esa shaxs, davlat va jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashning ustuvor tamoyillarini aniqlashda katta o'ringa ega[1].

Xorijiy tajribada ham ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari, uning texnik va gumanitar jihatlariga keng e'tibor berilgan. Texnik tashkil



etuvchilariga axborotlashtirish sanoatining rivojlanishi, axborot va telekommunikatsiya tizimlari xavfsizligini ta'minlash masalalari, gumanitar tashkil etuvchilariga esa ma'naviy hayot va axborot faoliyati sohasidagi fuqarolar erkinligi va konstitutsiyaviy huquq me'yorlariga rioya qilish masalalari kiradi. Bu mafkuraviy, siyosiy, yuridik, ijtimoiy masalalar va boshqa axborot xavfsizligining gumanitar tashkil etuvchilari hisoblanadi.

Respublikamiz o'quv yurtlarida axborot xavfsizligining texnik tashkil etuvchilarini o'qitishning uslubiy tizimi shakllanmoqda. Hozirda axborot xavfsizligini ta'minlashning texnik asoslariga nisbatan, uning gumanitar asoslarini yaratishda muayyan muammolar borligini aytish mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda 14 ta texnik yo'nalishdagi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari faoliyat yuritmoqda[2].

Yaratilayotgan ta'lim standartlari, o'quv va uslubiy qo'llanmalar axborot xavfsizligining texnik tashkil etuvchilarini o'qitishga mo'ljallangan. Axborot xavfsizligi sohasidagi mavjud o'qitish tizimi ko'proq kasbiy faoliyati axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashgan yo'naltirilgan. Xususan, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti va uning joylardagi filiallarida 2002 yildan boshlab «Elektron tijorat» va «Axborot xavfsizligi» bo'yicha bakalavr va magistr yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlanayapti. Mutaxassislilar bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, fan dasturlari yaratilgan va o'rnatilgan tartibda o'quv jarayoniga tatbiq etilgan. Bundan tashqari, 2006 yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining muvofiqlashtirish kengashi tomonidan «Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik» fani bo'yicha o'quv dasturi tasdiqlangan va hozirda bir qator oliy o'quv yurtlarining gumanitar fakultetlarida ushbu o'quv kursi bo'yicha darslar olib boriladi. O'quv kursi doirasida talabalarga axborot-psixologik xavfsizlikning ayrim jihatlarini qamragan o'quv rejasida ta'lim beriladi.

Kasbiy faoliyatida doimiy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanadigan gumanitar mutaxassislilarda axborot xavfsizligini ta'minlashning gumanitar muammolarini o'qitish tizimi shakllantirish asosiy muammolardan hisoblanadi. Xususan, hozirda ayrim rivojlangan davlatlarda (AQSh, Rossiya, Koreya, Singapur va boshqalar) axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislilariga talab yuqori darajada bo'lib, ta'lim tizimning gumanitar yo'nalishlarida ham axborot xavfsizligi asoslari o'qitiladi. Chunki, ushbu davlatlarda boshqaruvning barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari keng qo'llaniladi va axborot xavfsizligi masalasiga ham jiddiy e'tibor beriladi.

Respublikamizda elektron hukumat loyihasining joriy etilishi hamda xalqaro axborot jamiyatiga kirish bosqichlarida axborot xavfsizligining gumanitar muammolarini bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarga bo'lgan talab yanada ortadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, axborot xavfsizligining texnik tashkil etuvchilari



bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega mutaxassislar kompyuter tarmoqlar orqali uyushtirilgan turli tahdidlarni biror apparat, dastur yoki kriptografik vositalar yordamida bartaraf etadilar. Biroq, axborot xavfsizligini ta'minlashning gumanitar muammolarini hal etish, istiqbolli qarorlar qabul qilish mutaxassisdan chuqur bilim va ko'nikma talab etadi. Shu sababli, gumanitar yo'nalishdagi mutaxassislarda axborot xavfsizligining gumanitar tashkil etuvchilarini o'qitish bo'yicha ta'lim standartlari, o'quv dasturlari ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, axborot xavfsizligini ta'minlashning gumanitar tashkil etuvchilari bo'yicha o'qitish tizimini takomillashtirish orqali respublikamizning global axborot borlig'idagi o'rni yanada mustahkamlashga erishish mumkin. Shu maqsadda biror oliy o'quv yurti qoshida axborot xavfsizligining gumanitar tashkil etuvchilarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi markazlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, axborot xavfsizligining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini chuqur anglab yetish uchun har bir institut va universitetlarda mazkur masalalar yoritilgan ilmiy, uslubiy maqola va qo'llanmalarni tahlil qilish, ularni monitoringini yo'lga qo'yish talab etiladi.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham axborot xavfsizligining gumanitar tashkil etuvchilari bo'yicha o'qitish tizimini joriy etishda mavjud ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimlashtirish va navbatdagi ilmiy izlanishlarni quyidagi yo'nalishlarda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Jamiyat axborot xavfsizligi: ijtimoiy-siyosiy tahlil va istiqbolni belgilash usullari, iqtisodiy muammolar tahlili.

- milliy manfaatlar va axborot qarama-qarshiliklari;
- jamiyat axborot xavfsizligiga tahdidlar: manbalari, turlari;
- axborot xavfsizligi holatini baholashning majmual mezoni va uni tekshirish usullari;
- axborot xavfsizligini ijtimoiy-siyosiy monitoring qilish model va mexanizmlari;
- axborot tahdidlaridan muhofazalanish chora-tadbirlarining samaradorligini baholash;
- axborotni yaratish, tarqatish va undan foydalanish jarayonida egalik huquqining iqtisodiy ta'siri va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish;
- elektron biznesni rivojlantirishning iqtisodiy muammolari (axborot xavfsizligini ta'minlash jihatlari).

2. Axborot borlig'ida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalashni huquqiy tartibga solish.

- axborot borlig'ida konstitutsiyaviy huquq va fuqarolar erkinligini ta'minlashning huquqiy mexanizmlari;
- axborot sohasidagi intellektual mulkni xuquqiy himoyalash va saqlashga



yo'naltirilgan me'yoriy bazani rivojlantirish;

- axborot xavfidan sug'urtalanish model va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- axborot texnologiyalari sohasidagi investitsiya siyosati masalalarini huquqiy tartibga solish muammolari;
- elektron hujjat aylanishni tartibga solishning xuquqiy mexanizmlari;
- axborot infratuzilmalarining o'ta muhim bo'g'imlariga bo'layotgan axborot xurujlari tahdidini monitoring qilish tizimini yaratish va faoliyatini huquqiy ta'minlash;

- axborot va axborot resurslarining himoyalanganlik darajasini aniqlash va nazorat qilishning huquqiy-uslubiy bazasini yaratish va takomillashtirish;

- axborot xavfsizligi sohasiga oid standartlarni ishlab chiqish va xorijiy davlatlarning shu sohaga oid standartlari bilan uyg'unlashtirish.

3. Shaxs, jamiyat va davlat axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari.

- shaxs, jamiyat va davlatni axborot tahdidlaridan psixologik himoyalashning amalda qo'llaniladigan usullari va mezonlarini ishlab chiqish;

- elektron OAV, xususan Internetda qo'llanilayotgan turli tajovuzkor psixologik tahdidlardan himoyalash usullarini ishlab chiqish;

- axborot mahsulotlari ustida psixologik tekshirishlar o'tkazish va tashkillashtirish;

- axborot mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va is'temolchilar uchun psixologik konsalting tizimini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арипов А.Н. «Сборник нормативно-правовых актов в сфере связи и информатизации Республики Ўзбекистан» Изд.: «Ўзбекистан» - Ташкент, 2006 г. 352с.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг «Ўзбекистонда олий таълим» номли ҳисоботидан, 2006 йил.



XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNING DOLZARB VAZIFALARIGA DOIR

A.SH.XOLMURODOV,

*Jizzax viloyati xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish
hududiy markazi direktori*

Maqolada xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning dolzarb vazifalari, milliy ta'lim tizimida "inson kapitali" masalasi, uzluksiz ta'lim, texnologik va raqamlashgan iqtisod uchun zarur kadrlar zahirasi yetkazib berish masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim innovatsiyasi, ta'lim integratsiyasi, ta'limning jadallashuvi, ta'limning natijadorligi, uzluksiz ta'lim tizimi, inson kapitali.

In the article is considered the current tasks of retraining and advanced training of public educators, the issue of «human capital» in the national education system, the supply of human resources for the technological and digital economy.

Key words: educational innovations, integration of education, acceleration of education, efficiency of education, continuous education system, human capital.

В статье рассматриваются актуальные задачи переподготовки и повышения квалификации специалистов народного образования, проблема «человеческого капитала» в национальной системе образования, обеспечение человеческими ресурсами технологической и цифровой экономики.

Ключевые слова: образовательные инновации, интеграция образования, ускорение образования, эффективность образования, система непрерывного образования, человеческий капитал.

Dunyo miqyosida kechgan globallashuv jarayonlari ta'lim va tarbiya tizimlariga ham o'z chuqur ta'sirini o'tkazmoqda. Barcha davlatlarda ta'limga katta e'tibor qaratilib, ta'lim islohotlari o'tkazilmoqda. Ta'limdagi mazkur islohotlardan bosh maqsad esa o'zgarayotgan iqtisod, ya'ni texnologik va raqamlashgan iqtisod uchun zarur kadrlar zahirasi yetkazib berish, buning uchun esa ta'limning barcha turlari, shakllari, tizimlari va bosqichlarida tegishli o'zgarishlarni amalga oshirishdan iboratdir. Bugungi kunda talab etilayotgan o'zgarishlar mazmuni kuyidagilardan iboratdir:

– ta'lim innovatsiyasi – ta'lim tizimida raqamlashishni amalga oshirish asosida uning intensiv va texnogen ta'lim bilan bog'liqligini ta'minlash;

– ta'lim integratsiyasi – ta'lim tizimining ichki (fanlararo, predmetlararo, sohalararo, ta'lim muassasalariaro, auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim faoliyatidagi, innovatsion va ilg'or ta'lim metodikalarini keng ommalashtirishdagi v.b.) va tashqi integratsion jarayonlarini (ta'lim tizimi va fuqarolik jamiyati, ta'lim va OAV, ta'lim va ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim hamda mahalla va oila hamkorligi) keng yo'lga qo'yish;



– *ta'limning jadallashuvi* – yoshlarning bandligi va o'z o'zini band etish tizimini joriy etish, ishsizlikning oldini olish, yoshlarning ijtimoiylashuvini, yoshlarni oilaviy hayotga va kasb-hunarli bo'lishlarini ta'minlash maqsadida jadallashgan monomarkazlar, noformal ta'lim shakllari va xususiy ta'lim tizimlarini son va sifat jihatidan faol ishlashini joriy etish;

– *ta'limda yoshlarning maksimal sonini qamrab olishini ta'minlash* – agar yoshlar bugungi aholining 69 % dan ortig'ini tashkil qilsa, bugungi kunda mana shu yoshlarning atigi 20 % ga yaqinini oliy ta'lim bilan qamrab olishga imkoniyat mavjud. Rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimlari yoshlarning 50-60 % ni qamrab oladi. Binobarin, bu yo'nalishlar ham nodavlat ta'lim tizimlari, xususiylar ta'lim dargohlari sonini oshirish, ta'lim sertifikatlari tizimlarini joriy etish, avval o'qish, keyin ishlab turib, ta'lim grantlari pullarini qaytarish kabi egiluvchan sxemalarni joriy etish zarur;

– *ta'limning natijadorligi* – mazkur masala bevosita talabalarning kvalimetrik ko'rsatkichlari hamda jamiyatda o'z o'rnini topishi bilan aloqadordir. Chunki o'qituvchi agar o'z o'rnini topa olmayotgan bo'lsa, mehnat bozorida uni mehnatga jalb etish uchun bo'sh ish o'rinlari mavjud bo'lmasa, ta'lim tizimini kim uchun va qaysi soha uchun kadr etishtirib berganligi noaniqlar bo'lib qoladi. Binobarin, ta'lim natijadorligi juda muhim masalalardandir.

Bugungi kunda “raqamlashgan” jamiyatlar hukm surayotgan bo'lib, kelgusi iqtisodiy o'sish – ya'ni, yangidan keskin olg'a ketish, dunyoning ko'rinishini yana bir bor tubdan o'zgartirish, texnologik portlash effektini vujudga keltirish va butun dunyo yana bir bor tamomila yangi iqtisodiy bosqich va munosabatlarga o'tishi bashorat qilinmoqda. Shunga ko'ra, ta'lim tizimining maqsadi “inson kapitali”ni yaratishdan iborat bo'lib, mazkur bir holatdan ikkinchi holatga o'tishni ta'minlaydigan kuch – “inson kapitali”dir. “Inson kapitali” iqtisodiy o'sishning yaratuvchi kuchi, intellekt va boshqaruvga yo'naltirilgan mehnatining asosiy quroli, innovatsion iqtisodning bosh omilidir. “Inson kapitali” zamonaviy individdan doimiy o'sish, malakasini oshirish, turli tuman kasblarni to'liqlar egallash, mohirlik, kompetentlik, ko'p profilli malakalarga egalik, poliglott bo'lishlikni taqozo etadi. Binobarin, ta'lim tizimi, xususan, xalqlar ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi mana shu o'zgarishlarning barchasiga tayyor turishi talab etiladi.

Yangi davrda barcha mavjud innovatsion o'zgarishlarni o'zida mujassam etgan o'qituvchilar malakasini oshirish, qayta tayyorlash tizimlariga bo'lgan talab ortadi. Chunki ta'lim mazmuni, uning tezligi, qamrov hajmi kundan-kun kuchayadi, jadallashgan tarzda malakali kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini joriy etish ahamiyat kasb etadi, yangi texnologik sohalar uchun tezlik bilan kadrlar salohiyatini ta'minlash taqozo etiladi. Kadrlar malakasini oshirish tizimi keskin rivojlanadi. Mazkur jarayonda davlat ta'lim korxonalari qatorida nodavlat tizimi zimmasiga alohida vazifalar qo'yiladi. Binobarin, nodavlat ta'lim tashkilotlarining umumiy



ta'lim maktablari pedagog kadrlarini malakasini oshirish bo'yicha innovatsion mexanizmlarni yaratish ijtimoiy muhim bo'lib, alohida ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Jahon miqyosida kadrlar, jumladan, o'qituvchilar professional malakasini oshirish faoliyati bir necha yo'nalishlar asosida tashkil qilingan bo'lib, ular "development education" (rivojlantirish ta'limi), "education training" (ta'limda malaka oshirish), "training program" (tayyorlash tizimi), "coaching program" (trener, mentor, tyuter) ga asoslangan malaka oshirish tizimlari kabilarni o'z mazmuniga qamrab oladi. Bugungi kunda "Learning never stops" ("Ta'lim hech zamon to'xtamaydi" g'oyasi) ta'limning bosh drayveri sanaladi.

Shunga ko'ra, Yevropa Hamjamiyati davlatlari, AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Isroil, Yaqin Sharq, xususan BAA, Qatar, Quvayt, Yaponiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Norvegiya kabi o'nlab mamlakatlarda olib borilayotgan ta'lim islohotlari aynan kadrlar malakasini oshirish yo'nalishiga qaratilmoqda[2]. Shu bois, qariyb barcha universitetlar qoshida maxsus The Education development Institute (O'qituvchilar malaka oshirish) institutlari, har bir ta'lim sohasi bo'yicha bir yillik malaka oshirish va pedagogik maqomga ega bo'lish imkoniyatlari, trener va mentorlar yordamida o'z malakasini ta'minlash, turli korxona va tashkilotlar qoshida yangi sohalar bo'yicha qisqa muddatli jadallashgan qayta tayyorlov kurslari, davlat va nodavlat ta'lim dargohlari faoliyat olib boradi. Shuningdek turli mamlakatlar ta'lim tizimini targ'ib qilishga asoslangan maxsus dasturlar, xususan PiE, ACCELS, URGAD, EXCHANGE (AQSh), DAAD (Germaniya), MASHAV (Isroil), KOICA (Janubiy Koreya), Teacher Training, JUCA (Yaponiya), TICO (Turkiya) kabi tashkilotlar faoliyat olib boradi.

So'nggi yillarda xalk ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir bir qator davlat xujjatlari qabul qilindi. Ulardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki davlat siyosati bo'yicha strategiya mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan barcha vazifalar ko'lami, ularni yechimga olib kelish imkoniyatlari, maxsus dasturlar va mexanizmlari tizimini talab qilib qoladi. Shunga ko'ra, strategiyada ta'lim bo'yicha davlatimizning istiqbol rivojlanish omillari belgilab berilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida yangi konsepsiyadan maqsad umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish dolzarbligidan kelib chiqqanligi qayd etilgan. Jumladan,



– O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

– uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

– xalq ta‘limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

– xalq ta‘limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashning samaradorligini oshirish;

– yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta‘minlashda maktabdan tashqari ta‘limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

– davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta‘lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

– yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

– xalq ta‘limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish zarurligi ta‘kidlanadi.

Shunday qilib, insonni zamonaviy dunyoviy jamiyatda yashashga o‘rgatish uning ijtimoiy faol bo‘lishi zarurligini keltirib chiqaradi va talab etadi. Ijtimoiy faollik ichida esa kasb tanlash ijtimoiy ahamiyati baland bo‘lgan kategoriyaga aylanadi. Inson o‘z kasbi orqali jamiyat rivojiga hissa qo‘shish, o‘z mehnati orqali jamiyatda islohotlar va yangilanish jarayonlariga, ustuvor rivojlanish va taraqqiyotni ta‘minlash jarayonlariga bevosita ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2017 йил. 8 февраль. № 28

2. Гладкова О.С. О профессиональной подготовке и повышении квалификации педагогических кадров в Германии. // Историко- педагогический журнал. № 1, 2011. – 88 -92 с

3. Мусурманова О. Оила жамият-таянчи: монография. -Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.-252 б.

4. Рахимов Ф.Х., Дусмухамедова М.Х. Таълим, фан ва ишлаб чиқариш ҳамкорлигидаги инновациялар ворисийлик сифатида. // Замонавий таълим. 2015, – №10



TA'LIM TIZIMI BOSQICHLARIDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGATISH JARAYONIDA FANLARARO INTEGRATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

K.A.ABDULLAYEV,
Nam DU p.f.n.

Maqolada ta'lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rgatish jarayonida fanlararo integratsiya texnologiyalaridan foydalanish usullari haqidagi fikrlar bayon etilgan bo'lib, unda o'quvchilar faolligini oshirishda tasviriy san'at, musiqa, axborot kommunikatsion texnologiyalari materiallarini qo'llash o'rnlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, uzluksizlik, uzviylik, boshlang'ich ta'lim, fanlararo integratsiya, o'quv rejasi, pedagogik texnologiya, "So'z va surat", "Kichik guruhlarda ishlash", "Kim topqir?", "Erkin yozish".

В статье рассматривается использование междисциплинарных интегративных технологий в обучении жизни и творчеству Алишера Навои на этапах системы образования, показано использование изобразительного искусства, музыки, информационных и коммуникационных технологий для повышения активности учеников.

Ключевые слова: Алишер Навои, преемственность, членство, начальное образование, междисциплинарная интеграция, учебная программа, педагогическая технология, «Слово и картинка», «Работа в малых группах», «Кто изобретатель?», «Свободное письмо».

The article examines the use of interdisciplinary integration technologies in teaching the life and work of Alisher Navoi at the stages of the education system, shows the use of fine arts, music, information and communication technologies to increase the activity of students.

Key words: Alisher Navoi, continuity, membership, primary education, interdisciplinary integration, curriculum, pedagogical technology, «Word and picture», «Work in small groups», «Who is inventive?», «Free writing».

Yosh avlodni ana shu xazina sirlaridan bahramand etishni oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinflaridan boshlash, uzluksizligi va uzviyligi ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu muammoning yoritilishini umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-, 4-sinf "O'qish" darsliklari misolida kuzatadigan bo'lsak, anchagina ijobiy natijalarga erishilganligining guvohi bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlangan darsliklarga Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk allomalar hayoti va ijodi haqidagi qator ibratli matnlarning kiritilganligi fikrimizning isbotidir. Xususan, 3-sinf "O'qish" darsligidagi Mirkarim Osimning "Jaloliddin Manguberdi", Oybekning "Bola Alisher" (Qissadan parcha), Mirkarim Osimning "Yosh hakim", "Ibn Sinoning shogirdlari" rivoyati,



Bo'riboy Ahmedovning "Elim deb, yurtim deb yashagan inson", "Sohibqiron Temur bobo" hikoyati, Abduqodir Hayitmetovning "Donolarning donosi", "Navoiyning do'sti" rivoyati, Xayriddin Sultonning "Zahiriddin Muhammad Bobur" (Asardan parcha), Mirzo Karimning "Sayilda", Pirimqul Qodirovning "Bobur va Humoyun" (Asardan parcha) asarlari; 4-sinf "O'qish" darsligidagi Homidjon Hamidovning "Pahlavon va shoir" hikoyasi, Oybekning "Alisherning yoshligi" (Qissadan parcha), "Sulton Mahmud va Beruniy" rivoyati, Xondamirning "Tanbeh" rivoyati, Tursunboy Adashboevning "Navoiy bobomlar" she'ri, "Hidi, tilimi va mazasidan" rivoyatlari shular jumlasidandir.

O'quv dasturlari, rejalarida yuqorida sanab o'tilgan ibratli matnlarni izchil o'rgatish uchun alohida dars soatlari ajratilgan. Biz bu matnlarning o'qitilishini 4-sinf "O'qish" fani rejasiga kiritilgan "Alisherning yoshligi" mavzusini fanlararo integratsiyasi texnologiyalari asosida o'rgatish namunasida ko'rsatib berishni lozim topdik.

Bu mavzuni o'rgatish uchun o'quv rejasida 2 soat vaqt ajratilgan bo'lib, uni quyidagicha taqsimlash maqsadga muvofiq: matn ustida ishlash - 1soat, "Alisherning yoshligi" parchasi haqida suhbat - 1soat.

1-soatdagi dars jarayonida o'quvchilar matn bilan to'liq tanishib chiqadilar. 2-soatdagi darsni quyidagi: "So'z va surat", "Kichik guruhlarda ishlash", "Kim topqir?", "Erkin yozish" kabi interfaol usullari asosida tashkil etish va bu jarayonda o'quvchilar faolligini oshirish uchun tasviriy san'at, tabiatshunoslik, axborot kommunikatsion texnologiyalari materiallaridan unumli foydalanish samarali natijalar beradi.

Dars bobokalonimiz Alisher Navoiyning hayoti va ijodining ilk davrini o'rgatishga bag'ishlanganligi sababli sinfda "Navoiyni o'rganamiz" mavzusida ko'rgazmalar burchagi tashkil etiladi. Unda shoir portreti, so'z san'atkori haqida buyuk shaxslarning fikrlari, o'z asarlaridan olingan parchalar slayd shaklida joylashtiriladi. Ikkinchi tomonga shoimning asarlari, hayoti va ijodiga oid kitoblar, gazeta va jurnal, internet materiallari asosida "Serqirra ijodkor", "Navoiy - davlat arbobi", "Ikkinchi hayot bilan yashayotgan siymo", "Navoiy timsoli adabiyot va san'atda" kabi mavzulardagi kitob va suratlar, kashtachilik namunalari ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Dars kompyuter yordamida slayd shaklidagi rassom V.E.Kaydalov tomonidan ishlangan "Navoiy ijod ustida" portreti namoyishi va uni sharhlash sifatida shoir Sirojiddin Sayyidning "Mir Alisher" she'rini ifodali o'qish bilan boshlanadi. O'qituvchining qisqa kirish so'zidan so'ng, o'quvchilarga slayd ko'rinishida tayyorlangan rasmlar asosida (dars mavzusi va mazmuniga hamohang nomlangan kichik guruhlar: "ZUKKOLIK" (1), "DONOLIK" (2), "DO'STLIK" (3), "TABITSHUNOSLAR" (4) (darsning shakliga ko'ra, yakka tartibda ham tashkil etish mumkin) shaklida (bizningcha, kichik guruhlarda ishlash takrorlarning oldini oladi, qiziqishni oshiradi, bahs-munozarani kuchaytiradi) reja va unga mos qisqa matn yaratish, hikmatli so'zlar (3-, 4-sinf "O'qish" darsliklari orqali tanishgan materiallar asosida va ularni to'ldirgan holda) dan foydalanib, sarlavhalar belgilash topshiriladi.



“Kim topqir?” usulini amalga oshirishda kichik guruh a’zolariga 3-, 4- sinf “O’qish” darslarida o’rganilgan Alisher Navoiyning hayoti va ijodini yorituvchi (Oybekning “Bola Alisher”)(Qissadan parcha), Abduqodir Hayitmetovning “Donolarning donosi”, “Navoiyning do’shti” rivoyati, Oybekning “Alisherning yoshligi”(Qissadan parcha) matnlaridan keltirilgan, o’tilgan mavzularni takrorlash uchun xizmat qiladigan quyidagi ko’chirmalar qaysi qahramonlar nutqiga xos ekanligini eslash va ularni izohlash topshiriladi:

“Domullo mo’tabar odam. Hurmat ila salom berib, qo’lini o’p!”; “Borakallo, o’qishga keldingizmi? Balli, o’g’lim!”; “... eti sizniki, suyagi bizniki”, “Alisher mullo bo’lg’ay!”; “Tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz”, “Odami ersang demagil odami, Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami”, “Haq yo’lida kim senga bir harf o’qitish ranj ila, Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila”, “Bilmaganni so’rab o’rgangan olim”; “Shoir uni juda yaxshi ko’rar, o’ziga qadrdon, sirdosh deb bilar ekan”, “... ning gunoh ish qilib qo’rganini yetkazishibdi”, “... menga ham ... ga berilganidek kalta libos kiygizib, do’stim bilan birga ko’cha aylantirsinar”; “Qushlarni sayr eturmen, bir-biridan ko’rkam...”, “Qara, kabutarlar raqsin ko’r!”; “O’g’il chakki emas, tiyrak, begona ko’zdan asrasin!”, “Olim odam xor bo’lmaydi”.

O’quvchilarga o’rganilgan matnlardan olgan taassurotlari va shaxsiy fikr (“Erkin yozish” usuliga muvofiq)lariga asoslanib, “Ustoz otangdek ulug’”, “Alisher Navoiyni nima uchun e’zozlaymiz?”, “Chin do’st”, “Tabiatni asraylik!” mavzularidan biri asosida matn yaratishni uyga vazifa qilib topshiradi.

Umumiy o’rta ta’lim maktabi 5-11-sinflarida Alisher Navoiyning hayoti va ijodini izchillikda o’rganish davom ettiriladi. Buning uchun o’quv rejasida quyidagicha dars soatlari ajratilgan: 5-sinfda “Hayratul-abror” dostonidan olingan “Egrilik va to’g’rilik” hikoyasi- 3 soat, 6-sinfda “Mahbubul qulub” dan parcha- 4 soat, 7-sinfda “Sab’ai sayyor” dostonidan beshinchi iqlim yo’lidan keltirilgan musofir hikoyasi- 3 soat, 8-sinfda ruboiy, tuyuq, g’azallaridan namunalar- 4 soat, 9-sinfda “Farhod va Shirin” dostoni- 10 soat, 10-sinfda shoir zamondoshlari xotirasida, lirikasi: g’azal, ruboiy, qit’alari tahlili - 6 soat, 11-sinfda hayoti va ijodi, “Saddi Iskandariy” dostoni - 4 soat.

Akademik litsey II, III semestrlarida: shoir hayoti va ijodi - 2 soat, lirikasi - 2 soat, epik asarlari - 2 soat, “Hayratul-abror” dostoni - 2 soat, “Farhod va Shirin” dostoni - 2 soat, “Layli va Majnun” dostoni - 2 soat, “Sab’ai sayyor” dostoni - 2 soat, “Saddi Iskandariy” dostoni - 2 soat.

Biz adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya texnologiyalaridan foydalanishdek keng qamrovli, qiziqarli masalani o’rganishga doir izlanishlar olib borayotganligimiz bois, Alisher Navoiyning hayoti va ijodini ta’lim bosqichlarining 5-11-sinflarida o’rgatish jarayonida ham tarix, tasviriy san’at, musiqa, tarixiy, badiiy asarlardan yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi “KEYS - STADI”, “Klaster”, “BBB”, “Erkin yozish”, seminar, konferensiya, munozara, uchrashuv, kompleks, onlayn, video dars kabi turlarining qo’llanishida foydalanish kutilgan natijalarga



erishish imkoniyatini berayotganligining guvohi bo'lmog'damiz.

Shoir yashagan davr haqida gapirganda, kirish darslari, matn ustida ishlash, adabiy asar tahlili, alohida timsol ustida ishlash, yakunlovchi mashg'ulot jarayonlarida O'zbekiston tarixi materiallaridan, tarixiy, badiiy manbalar (Xondamirning "Makorimul axloq", Zayniddin Vosifiyning "Badoe'ul vaqoe", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush shuaro", Oybekning "Navoiy", Omon Muxtorning "Navoiy va rassom Abulxayr" asarlari) va tasviriy san'at namunalariidan foydalanish, zamonaviy texnika vositalari: axborot kommunikatsion texnologiyalari, videotasmalar, internet xabarlariga murojaat etish o'rinni bo'ladi.

Aniq dalillarga murojaat etsak: "El desa Navoiyni... (Hazrat Mir Alisher Navoiy haqida rivoyatlar)" to'plami [4, 160]ga kiritilgan "Alisher bilan bulbul", "Nuqtaning qudrati", "Chumoli", "Chodirga in qurgan qush", "Yaxshidan bog' qoladi", "Birni kessang, o'nni ek", "Dunyodagi eng yaxshi hidni keltiring", "Kamtarlik" kabi hikoyatlardan; Izzat Sultonning "Navoiyning qalb daftarini" to'plami [3, 376]ga kiritilgan "Asl maktab", "Ham shogird, ham ustod", "Navoiy - binokor", "So'nggi onlar"; Aziz Qayumovning "Alisher Navoiy" kitobi [5, 160]dagi "Taft shahridagi uchrashuv", "She'r bahsi", "Umriyakuni"; "Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar" to'plami [6, 520]dagi "Alisher Navoiy hikmatlari", "Qalbgal malham o'g'itlar", "Ikki hikmat ikki hikoyat" bo'limi hikoyalari kabi)dan tanlangan manbalardan dars, darsdan tashqari tadbirlar jarayonida o'rinni, me'yorida foydalanish kutilgan natijalar uchun asos bo'lishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 19 мартдаги видео-селектор йиғилишида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил 20 март.

2. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008. - 47-бет.

3. Султон Иззат. Навоийнинг қалб daftarini: Буюк шоирнинг ҳаёти билан ижоди ўзининг ва замондошларининг тасвирида / И.Султон; Масъул муҳаррир Наим Каримов. - 3-тўлдирилган ва тузатилган нашри. - Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. - 376б.

4. Эл деса Навоийни... (Ҳазрат Мир Алишер Навоий ҳақида ривоятлар) // тўловчи ва нашрга тайёрловчи М.Жўраев; // Рассом Л.Ибрагимов - Т.: Чўлпон, 1991. - 160б.

5. Қаюмов Азиз. Алишер Навоий (Шоир ҳаёти ва ижоди ҳақида лавҳалар). - Тошкент, 1976. - 160б.

6. Ибрatли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев. - Тошкент: Sano-standart, 2016. - 520б.



QOMUSIY MUTAFAKKIR OLIMLARNING ILMIY MEROSI VA UNDA FOYDALANISH

F.M. MURODOV,

SamDU mustaqil tadqiqotchisi

Shu muqaddas zaminimizda yashagan ulug' ajdodlarimiz bundan ko'p asrlar ilgari hozirgi zamonaviy ilm-fanga poydevor qo'yib, uni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shishgan. Xususan, ular matematika, astronomiya, geodeziya, geografiya, tarix, arifmetika, farmakologiya, tibbiyot, falsafa va tilshunoslik sohalaridagi qomusiy ishlari, ixtirolari bilan jahon sivilizatsiyasi ravnaqida o'chmas iz qoldirganlar. Mazkur maqola yurtimiz qomusiy olimlarining ilmiy merosi va undan foydalanish masalalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *mutafakkirlar ijodi, ajdodlarimiz merosi, ilm-fan, ta'lim muammolari, tafakkur durdonalari, ilmiy meros.*

Наши великие предки, жившие на этой священной земле, много веков назад заложили основы современной науки и внесли неоценимый вклад в ее развитие. В частности, они оставили неизгладимый след в развитии мировой цивилизации своими выдающимися изобретениями в области математики, астрономии, геодезии, географии, истории, арифметики, фармакологии, медицины, философии и лингвистики. Статья будет посвящена научному наследию и использованию ученых-коммунистов нашей страны.

Ключевые слова: *творчество мыслителей, наследие наших предков, проблемы науки, образования, шедевры мысли, научное наследие.*

Our great ancestors who lived on this sacred land laid the foundations of modern science many centuries ago and made an invaluable contribution to its development. In particular, they left an indelible mark on the development of world civilization with their outstanding inventions in the field of mathematics, astronomy, geodesy, geography, history, arithmetic, pharmacology, medicine, philosophy and linguistics. The article will be devoted to the scientific heritage and the use of communist scientists of our country.

Key words: *creativity of thinkers, the heritage of our ancestors, problems of science, education, masterpieces of thought, scientific heritage.*

Ayni paytda mamlakatimizda mazkur ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishda davlat, jamiyat va har bir fuqaroning ishtirok etishi kafolatlanibgina qolmay, ularning tashabbuslari ham keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Men yoshlarimizga murojaat qilar ekanman, ularga doimo: "Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz kerak", deb aytaman. Ayni vaqtda "Faqat g'ururlanishning o'zi yetarli emas, kelinglar, o'zimiz ham, xuddi ular kabi, mana shu bebaho merosga o'z hissamizni qo'shaylik!" deb takrorlayman".



G'arbda "Nur Sharqdan taraladi" degan iboraning paydo bo'lgani ham bejiz emas. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, al-Hakim at-Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizdan qolgan ilmiy-ma'naviy meros Sharq uyg'onish davrining durdonalari maqomida dunyo ahli tomonidan haqli ravishda tan olingan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo o'rta asrlar ilmiy-madaniy markazlaridan biri sifatida boshqa mintaqalardagi Renessans jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatgani jahon ilm-fanida o'z tasdig'ini topgan. O'rta Osiyodan yetishib chiqqan olimlar tomonidan jahon ilm xazinasiga qo'shilgan hissaning naqadar buyukligi fan tarixchilari tomonidan qayd etilgan, jamiyatshunoslari, publitsistlar, jurnalistlar tomonidan esa muntazam targ'ib qilib kelinadi. Lekin ana shu buyuk hissa konkret nimalardan iborat degan savolga javob, tor doiradagi mutaxassisni hisobga olmaganda, ko'pincha umumiy mulohazalardan iborat bo'ladi. Bu holat hatto darsliklarda ham kuzatiladi.

Masalan, fizika darsligida Beruniy, Ibn Sino kabi olimlarning tarjimai hollari hamda ilmiy faoliyatlari haqida qomuslardan olingan umumiy ma'lumotlar ilova tarzida bayon qilinadi-yu, ammo har birining muayyan fan rivojiga qo'shgan hissasi ilmiy fakt sifatida asosiy matnga singdirilmaydi. Qiyos uchun tasavvur qilaylik: Nyuton buyuk tabiatshunos atalib, tarjimai holi berilsa-yu, ammo mexikaning asosiy qonunlari uning nomi bilan atalmasa?! Buyuk ajdodlarimizning fan taraqqiyotidagi hissalar darsliklarda konkret tarzda bayon etilmasligi esa ularning ilmiy ixtirolari nomlaridan ajralgan holda o'qitiladi va holat shu tarzda avloddan avlodga o'taveradi.

Mazkur nomuvofiqlikning sababi nimada? O'rta Osiyo mumtoz fani yutuqlarining istifodasi qoniqarsiz holda qolib kelayotganini qanday izohlash mumkin? To'g'rirog'i, bu holatni tuzatish uchun qanday choralar lozim?

Muammoni oydinlashtirish maqsadida yana konkret fan sohasi – matematikaga murojaat etaylik. Bu fan taraqqiyotida O'rta Osiyo olimlarining o'z mi bus-butun bosqichni tashkil qilishi bugun har bir ma'lumotli kishiga ma'lum. Lekin na o'rta maktab, na oliy maktab darsliklarida ana shu olimlarning nomi bilan ataladigan teorema, lemma yoki formulani uchratmaysiz. Holbuki, ulardan avval yashagan yunon olimlari nomi bilan bog'liq faktlar (Fales lemmasi, Pifagor teoremasi, Geron formulasi va b.), ulardan keyinroq yashagan yevropalik salafarlari nomi bilan bog'liq faktlar (Viet teoremasi, Paskal uchburchagi, Nyuton binomi va b.) darsliklarga albatta kiritiladi. Ta'kidlash lozimki, yunon olimlariga nisbatan ham, yevropalik matematiklarga nisbatan ham bu tamoyil to'g'riligiga shubha yo'q. Lekin tarixiy adolat to'la bo'lishi



uchun ana shu faktlar qatorida Sharq olimlari ixtiro etgan ilmiy faktlar ham ularning nomi bilan darsliklardan o'rin egallashi lozim. Qolaversa, Viet teoremasi qadimgi bobilliklarga, Paskal uchburchagi qadimgi xitoyliklarga ma'lum bo'lgan, Nyuton binomidan esa Ulug'bek ilmiy maktabining vakillari istalgan darajali ildizlarni taqribiy hisoblashda foydalanishgan. Bu mavzuda so'z yuritilsa, "algoritm" atamasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy nisbasidan olingani albatta dalil qilib ko'rsatiladi. Sharq olimlariga nisbatan bu noyob, balki yagona istisnodir. Umumiy qoidadan istisno mavjudligi esa o'sha qoidaning umumiyligini inkor etmay, balki aksincha, uni tasdiqlovchi dalil bo'lishi yaxshi ma'lum.

O'rta Osiyo olimlarining fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini ilmiy istifodaga kiritish muammosi deganda ularning ijodi mahsulidan iborat faktlarni ilmiy muomalaga, o'quv dasturlariga, darsliklarga kiritishni tushunamiz.

Masalani oydinlashtirish uchun misol tariqasida matematikadan barchaga yaxshi ma'lum misolga murojaat etaylik. Al-Xorazmiy "Aljabr va almuqobaladan qisqacha kitob" asarida kvadrat tenglamalarni tasniflab, oltita kanonik ko'rinishga keltiradi. Ulardan uchta sodda (chala kvadrat) tenglamalar, uchta esa to'la kvadrat tenglama. So'nggi uch toifa tenglamadan ikki xilini yechish usuli al-Xorazmiydan ancha oldin, qadimgi Bobil, Xitoy va Hindistondayoq ma'lum bo'lgan, Evklidning "Negizlar" asarida ham shunga misollar bor. Lekin uchinchi toifani tashkil etuvchi ($ax^2 = bx + c$ ko'rinishidagi) tenglama al-Xorazmiygacha davr matematikasida uchramaydi. Bu tenglamani yechish qoidasi birinchi marta "Aljabr va almuqobaladan qisqacha kitob"da isbotlangani tan olinadi. Chunki, o'sha davrda manfiy sonlardan foydalanilmagani uchun, uchinchi toifa tenglamani yechish qoidasining isboti boshqa ikki toifanikiga qaraganda ancha murakkab. Shuning uchun kvadrat tenglama ildizlari uchun formulani al-Xorazmiy formulasi deb atash va shu nom bilan darsliklarga kiritish adolatdan bo'ladi.

Yana bir misol – al-Farg'oniy lemmasidir. Bu lemma o'rta asrlarning asosiy astronomik kuzatuv asbobi bo'lgan astrolyabiya nazariyasida qo'llanadigan stereografik proeksiya xossasini isbotlash uchun qo'llanilgan. Bu xossaning o'zini Ptolemey topgan, ammo isboti saqlanmagan va Ahmad al-Farg'oniy tiklagan, shu maqsadda lemmani topgan. U mazmunan maktab geometriya dasturining o'xshash shakllar, aylanaga ichki chizilgan burchaklar mavzulariga to'g'ri keladi. Boshqa mamlakatlar darsliklarining mazmuni ularning mualliflariga havola, ammo bizning maktablarimiz uchun yozilgan darsliklardan "Farg'oniy lemmasi" o'rin olishi kerak.

Geometriya yunon olimlarining ixtirosi bo'lsa, trigonometriya asosan O'rta



Osiyolik matematiklar ixtirosi ekanligi fan tarixchilari tomonidan e'tirof etiladi. Aniqroq aytganda, asosiy trigonometrik funksiyalar – sinus, kosinus, tangens Sharq olimlari – al-Xorazmiy, Beruniy, Abul Vafo, Nasriddin Tusiy va boshqalar tomonidan kiritilgan, ularning qator xossalari isbotlangan, yuqori aniqlikdagi jadvallari tuzilgan, geometriya va astronomiya masalalariga tatbiq qilingan. Darsliklarda bu umumiy tarzda qayd etiladi xolos. Bizningcha, faqat umumiy qayd bilan cheklanish to'g'ri emas – trigonometriyaning qaysi formulasi qaysi olim tomonidan istifodaga kiritilgani (imkoni boricha) aniq ko'rsatilishi lozim.

Bunday misollarni boshqa fanlardan ham istalgancha keltirish mumkin. Masalan, Yer qobig'i plitalarining harakati nazariyasi Beruniy tomonidan mukammal tarzda isbotlangan (bu faktga geologlarning diqqatini 1974 yilda fan tarixi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro kongressda rus geologi N.I.Leontev tortgan. (Q. "XSh Mejdunarodnyy kogress po istorii nuki", Moskva, 1974). Shunga qaramay mazkur nazariya XIX asrda yashagan geolog olim Vegener nomi bilan "Vagener gipotezasi" deya atalib kelmoqda. U hech bo'lmaganda "Beruniy-Vagener nazariyasi" (yoki farazi) deb yuritilsa, tarixiy adolatga muvofiq bo'lar edi.

O'rta Osiyo olimlarining ilmiy tafakkur taraqqiyotidagi xizmatlarini hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan tahlil qilish barobarida ularning ijodiy merosini falsafiy-metodologik nuqtai nazardan o'rganish ham dolzarb vazifa. Aslida bu ham ana shu merosni istifodaga kiritishning yana bir muhim yo'lidir. O'rta Osiyo olimlari yunon, hind olimlari erishgan natijalarni o'zlashtirish barobarida, fanni butunlay yangicha yondashuvlar, original g'oyalar bilan boyitgani borasida dalillar yetarli. Ilmiy haqiqat izlashda faol eksperiment qo'llay boshlangani, Yer kurrasining qobig'i harakatdagi geologik ob'ekt ekanligi, dialektika ta'limoti shular jumlasidandir. Bu yo'nalishning ham o'ziga xos murakkabliklari mavjud. U nafaqat Sharq olimlari asarlarini chuqur o'rganib chiqishni, ayni paytda G'arb falsafasining o'rta asrlardan to bugungi kungacha bo'lgan rivoji davomida ko'tarilgan g'oyalarning genezisi bilan tanishishni va qiyosiy tahlil qilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ибадов Ж.Х., Матвиевская Г.П. Ахмад ал-Фарғонийнинг риё-зиёт ва фалакиёт тарихидаги ўрни. - Тошкент Истиқлол 1998. - 86 б.
2. Каримова С. У. Роль учёных Мавераннахра И Хурасана в развитии химии и фармакологии на средневековом Востоке (По письменным источникам IX-XI вв). Автореф дисс.. док.ист. наук. -Ташкент. ИВАН РУз. 2001. - 57 с



НАЦИОНАЛЬНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В ПРОЦЕССЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Р.М.МЕДЕТОВА,
д.п.н., доцент ТГПУ

Maqolada O'zbekistonning milliy mustaqilligi sharoitida ta'limning barqaror rivojlanishi jarayonida bag'rikenglik masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, milliy an'analar, taraqqiyot, ta'lim, talaba yoshlar.

The article reveals tolerance in the process of sustainable development of education in the conditions of national independence of Uzbekistan.

Key words: tolerance, national traditions, development, education, student youth.

В статье раскрывается толерантность в процессе устойчивого развития образования в условиях национальной независимости Узбекистана.

Ключевые слова: толерантность, национальные традиции, развитие, образование, студенческая молодёжь.

Одним из ключевых направлений молодежной политики в современных условиях является целенаправленная деятельность педагогов, направленная на формирование толерантности в студенческой среде.

В условиях социально-экономической модернизации общества, интегрирующего многообразие этнических, конфессиональных, регионально-культурных укладов, проблема гражданской толерантности, взаимоуважения и солидарности становится приоритетом национального развития. Молодое поколение в данном ракурсе выступает как наиболее подвижный социальный слой. Студенческая молодежь – наиболее динамичный субъект нашего социума, сочетающий традиционные и инновационные социальные практики. Современные теоретические подходы к осмыслению толерантности как многоуровневого социально-психологического, политического и культурного феномена направлены на формирование инновационных толерантных установок сознания и поведения молодежи.

Одной из знаковых проблем современного глобального развития выступает процесс формирования толерантности. Можно утверждать, что преодоление интолерантности во всех ключевых сферах общественной жизни является серьезной задачей мирового макросоциума при его переходе к информационной экономике и социокультурным моделям постмодернизма. Особую остроту проблема формирования толерантности приобрела в современности. Поэтому задача формирования толерантности является для современной одним из приоритетов социально-политического развития. Вместе с тем, следует подчеркнуть, что на рубеже тысячелетий в отечественном и зарубежном интеллектуальном сообществе сформировалась



своеобразная «мода на толерантность».

В современном мире толерантность понимается как сложный культурно-психологический комплекс, в основании которого лежит взаимоуважение и равноправие взаимодействующих социальных субъектов. Необходимо особо подчеркнуть, что речь идёт именно о бинарной психологической схеме: полноценное психическое состояние толерантности невозможно, если одна из сторон взаимодействия интолерантна к другой. Подчеркивая сложность толерантности как социокультурного феномена, О.Я.Бондаренко пишет: «Сегодня слово «толерантность» стало модным, особенно за рубежом.

Большой энциклопедический словарь определяет слово «толерантность» так: «Терпимость к чужим мнениям, верованиям, поведению; происходит от латинского *tolerantia* – «терпение». То есть в основе термина – согласие воспринять нечто (духовное, нравственно-идейное, этико-эстетическое, религиозное) даже в том случае, если это нечто противоречит мировоззренческим установкам самого наблюдателя.

Проблема толерантности может быть рассмотрена с разных позиций: как этико-философская норма; как принцип взаимоотношений между последователями разных идеологических концепций, убеждений и верований; как метод социально-политических решений и действий; как важная черта воспитания подрастающего поколения;

Распространение толерантных принципов, готовность к компромиссу и диалогу предполагают наличие целого комплекса объективных и субъективных условий. На процесс становления толерантности оказывают воздействие многообразные факторы: исторические традиции, ментальность различных слоев народа; политическая воля и особые интересы личностей; степень правовой и политической культуры граждан; наличие соответствующего законодательства и эффективность деятельности правоохранительной системы; социально-экономические особенности; специфика взаимодействий между этносами и религиозными общностями, их открытость другим культурам; отношение к социально уязвимым слоям и другим группам; содержание сообщений СМИ.

Теория толерантности тесно связана с понятиями гражданского общества и качества демократии. Понятие толерантности играет важную роль в демократической теории. Согласно предпосылкам этой теории, образование и широкие возможности участия в общественной жизни делают людей способными понимать интересы других и действовать в интересах всего общества. Соответственно, люди с более высоким уровнем образования и активно задействованные в жизни социума должны быть более терпимы по отношению к группам, в отношении которых существуют негативные общественные настроения и более активно выступать в поддержку толерантности как принципа. Такая тенденция должна быть достаточно устойчивой,



чтобы в перспективе создать толерантное пространство.

Современные исследования в рамках либеральной традиции описывают толерантность как «одно из немногих жизнеспособных решений для урегулирования тех напряжений и конфликтов, которые порождаются мультикультурализмом и политической гетерогенностью в современных демократических общностях.

Экономическая теория толерантности – совместное детище двух учёных Джакомо Корнео и Оливье Жане. Теория связана с такими научными концепциями, как модель культурной эволюции (Bisin and Verdier, 2001), теория идентичности (Akerlof and Kranton, 2005), идея культурной трансмиссии от родителей к детям (Fernandez et al, 2004), модель просоциального поведения (Benabou and Tirole, 2006).

Интолерантные индивиды неуважительно относятся к людям с другими качествами, в то время как толерантные люди имеют диверсифицированные ценности и уважают социальное разнообразие.

Толерантность как уважение к другим людям часто рассматривается как определяющая черта современных обществ. Толерантность приветствуется, поскольку обеспечивает мирное сосуществование различных групп в обществе, поощряет развитие талантов и способностей индивида. Социологи и политологи считают что с нарастанием экономического благосостояния и углублением рыночных отношений подчинение интересов личности интересам сообщества уступает место приоритету демократической личности, что поощряет дальнейшее развитие толерантности.

Основная идея толерантности заключается в том, что каждый индивид обладает системой ценностей, которая определяет его самооценку и оценку им других. В свою очередь, самооценка и оценка других являются показателями полезной функции индивида. Формирование ценностей может быть объяснено в соответствии с различными структурами социализации. Родители выбирают систему ценностей своих детей с расчётом максимизировать их будущую общественную полезность. Родители инвестируют в ценностные системы детей, поэтому семья играет ключевую роль в формировании ценностей человека. Теория толерантности должна выявить условия, при которых у родителей есть стимул передавать детям толерантную систему ценностей. Основные принципы экономической теории толерантности: черты характера и стили поведения индивидов авторы наделяют символической ценностью; родители выбирают систему ценностей своих детей с расчётом максимизировать их будущую общественную полезность.

Литература:

1. Moluch51_ch2.pdf



К ИЗУЧЕНИЮ ПОНЯТИЯ ПРИНЦИПА ПРИРОДООСОБРАЗНОСТИ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Б. М. САИДОВ,
преподаватель Тер ГУ

Мақолада болаларга, табиатга ҳамда ўраб турган олам олдидаги маънавий маъсулиятга қаратилган анъанавий ҳалқ тарбиясининг ривожланиши ва тикланиши масалалари таҳлил қилинган. Шу билан биргаликда ўсиб келаётган ёшларни мустақил ҳаётга тайёрлаш борасида турли воситалар усуллар ва услубиятларга эга бўлган ҳалқ педагогикаси янада чуқурроқ ўрганилган.

Таянч сўзлар: инфраструктура, табиат уйғунлиги, ҳалқ педагогикаси, тарбия жараёни, назарий ёндашувлар, методологик тадқиқотлар, этномаданият, маданият уйғунлиги, эстетик дунёқараш, моддий маданият, маиший предметлар, атроф муҳит, маънавий англаш.

В статье анализируются вопросы развития и становления традиций народного воспитания, ориентированное на отношение к детям, природе, а также на нравственную ответственность перед окружающим миром. Также изучались вопросы народной педагогики, которая располагает многочисленными средствами, методами и приёмами для подготовки подрастающего поколения к самостоятельной жизни.

Ключевые слова: инфраструктура, природосообразность, народная педагогика, процесс воспитания, теоретические подходы, методологические исследования, этнокультура, культурасообразность, эстетические воззрения, этнос, материальная культура, предметы быта, окружающая среда, духовное осмысление.

The article analyzes the issues of development and formation of traditions of folk education, focused on the attitude to children, nature, as well as on moral responsibility to the surrounding world. They also studied the issues of folk pedagogy, which has numerous means, methods and techniques for preparing the younger generation for independent life.

Key words: infrastructure, natural conformity, folk pedagogy, the process of education, theoretical approaches, methodological research, ethnoculture, cultural conformity, aesthetic views, ethnos, material culture, household items, environment, spiritual understanding.

Вступление Узбекистана в XXI- век сопровождается кардинальными изменениями социального, экономического, а также общественного развития. В связи с этим возникает потребность в людях интеллектуально развитых, талантливых, способных выдвигать идеи, направленные на прогрессивные изменения в различных сферах деятельности человека.

Это становится возможным в том случае, когда выявление, воспитание и обучение, поддержка школьников образуют единую систему, способствующую реализации индивидуального педагогического-психологического



потенциала каждого ребенка. Следовательно, такое понимание сущности человека предъявляет определенные требования к воспитанию, указывает на необходимость совершенствования современного воспитательного процесса. Решения данной проблемы лежат не только в плоскости поиска и разработки новых парадигм воспитания, но и в использовании природосообразных информационных и коммуникативных технологий, созданных путем активного обращения к опыту народного воспитания.

Еще до теоретического осмысления принципа природосообразности философами и педагогами, его сущностное значение содержалось в опыте народного воспитания, в частности, в природосообразных средствах воспитания, т.е. принцип природосообразности находился в опыте народного воспитания в имплицитном состоянии [3].

Изучением многих литературы и научно-исследовательских работ определено, что в педагогической теории и практики нет специальных работ по природосообразному воспитанию средствами народной педагогики.

Возникновение объективного противоречия между необходимостью в природосообразном воспитании учащихся средствами народной педагогики и недостаточной обоснованностью педагогических условий, путей и средств организации этого процесса, как в учебной, так и внешкольной формах в школах Республики Узбекистан.

В формировании духовной культуры подрастающего поколения природосообразность трактуется как фундамент, в котором первоначально видится единение природы со всем сущим, со всем мирозданием. По справедливому утверждению А. Дистервега, «принцип природосообразности вечен и неизменен, как неизменны назначение и природа человечества». Однако по нашему мнению необходимо также считаться с условиями места, где находится тот или иной этнос, и с той ступенью культуры, которая достигнута им. Поэтому состояние культуры в тот или другой момент требует своего рассмотрения как явления естественного, которое также неизбежно, с такой же необходимостью возникает, как тот или иной характер растительного и животного мира на определенной территории земной поверхности.

Народную педагогику, являющуюся предметом этнопедагогики Г.Н. Волков называет природосообразной и жизнесообразной, демократической и гуманистической педагогией и в своих работах руководствуется двумя основными заповедями (положениями) - природосообразностью Я.А. Коменского и народностью К.Д. Ушинского, основанной на культуросообразности А. Дистервега потому как «народная культура воспитания представляет собой основу всякой культуры» [3]. Г.Н. Волков тем самым подчеркивает взаимосвязь принципов природосообразности и культуросообразности в этнопедагогической науке. Однако «до сегодняшнего дня является дискуссионной проблема соот-



ношения принципов природосообразности и культуросообразности. История возникновения и развития этих педагогических принципов показывает их взаимообусловленность как категории сущности и явления», и в их взаимоотношениях сущностную функцию несет природосообразность, что определяет ведущее положение принципа природосообразности.

Для наших исследований представляется интересным своеобразное видение природосообразности (этно) культуры культурологом Г.Д. Гачевым.

Однако мы не можем опираться на его идею «Природины», так как наше исследование проводится в совершенно ином ракурсе: принцип природосообразности воспитания и его реализация средствами народной педагогики. Что касается «мистического свойства» природы родины, то этнопедагог Г.Н. Волков вслед за К.Д. Ушинским утверждает, что «природа родины имеет неизъяснимую власть над человеком». Данное свойство способствует выявлению сути следующих определяющих «лицо» этноса души (Психея) и мышления (Логос) данного народа: «Подобно тому, как каждое существо есть троичное единство: тело, душа и дух, так и всякая национальная целостность есть единство местной природы (Космос), характера народа (Психея), склада мышления (Логос)», где Психея и Логос определяются Космосом.

Например, влияние окружающей природы на восприятие, познание, мышление отмечал еще русский историк В.О. Ключевский. Он видел в среднерусском ландшафте источник своеобразия русского национального характера. В.О. Ключевский выделял значение образов леса, степи и реки в русской культуре и их роль в формировании психологических черт личности (степь олицетворяла широту натуры, река воспитывала порядок и умение совместных действий). Мистическое свойство природы, ее сознательные, животворящие силы стали самым ранним объектом поклонения в этнокультуре. Это выразилось в «мифопоэтическом понимании, в изображении живого посредством линии, цвета, звука. Искреннее желание сохранить живое оборачивалось созданием его дубликатов: свет в природе, природные ритмы, мера, гармония, которые человек ощущал в окружающем мире, становились средствами его понимания природы, но вместе с тем и фундаментальными основаниями культуры».

Например, увидев в растительной жизни смену смерти весенним возрождением, наши далекие предки перенесли этот закон на собственное существование, трактуя его как цикличное чередование стадий «жизнь-смерть-возрождение». Таким образом, человеческое общество вело с природой обмен не только веществом, энергией, но и информацией.

Отсюда возникали системы взаимоотношений человека с природой, которые известные этнографы М.Г. Левин и Н.Н. Чебоксаров предложили называть хозяйственно-культурными типами. При этом они имели в виду «исторически сложившиеся комплексы особенностей и культуры, характерные



для народов, обитающих в конкретных естественно-географических условиях при определенном уровне их социально-культурного развития».

У каждой нации и национальности есть своя культура, развитие культуры того или иного этноса ограничено рамками местных, территориальных, этнических, региональных связей и отношений между людьми. Отсюда пестрота и многообразие культурных форм, их кажущаяся несводимость друг к другу, отсутствие какого-либо унифицирующего начала, их своеобразие и самобытность. «Характер этнической общности (как и отдельной личности) проявляется, главным образом, в действиях. Поэтому он обнаруживается и в отдельных памятниках материальной культуры, и в различных областях духовной культуры, и в языке» [3].

Хотя, по мнению исследователей языка, он отражает мышление данного народа: Сепир, Уорф и другие лингвисты в XX веке, сопоставляя структуры, грамматику и лексику различных языков, описали много характеристических особенностей национального мышления. Однако «их анализ исходит только из языка, тогда как сам язык вплетен в целостную ткань национального Космо-Психо-Логоса и отражает его жизнь». Ведь естественные национальные языки, по утверждению Г.Д.Гачева, трактуются как голоса местной природы в человеке. У звуков языка - прямая связь с пространством естественной акустики, которая в горах иная, чем в лесах или в степи. И как тела людей разных рас и народов адекватны местной природе, как этнос - по космосу, так и звуки, что образуют плоть языка, в резонансе находятся с национальной природой. Что касается национального склада мышления, то он «материально закреплен в словесности народа», то есть в его устном народном поэтическом творчестве, которое является источником богатого опыта взаимоотношений этноса с природой.

Этикет регулирует, структурирует поведение людей в обществе. Он видоизменяется, но не умирает, выполняя как на общественном, так и на индивидуальном уровне гуманистическую функцию организации и регламентации коммуникационных процессов. Как и всякое социальное явление, этикет противоречив, многоаспектен и многообразен, его многовековая история свидетельствует о наличии особой человеческой потребности и ритуализации определенных форм поведения и общения на уровне более общих нравственно - культурных феноменов развития эпохи, социума, определенной группы или индивида.

Формировании ценностного сознания личности в целом, то способом приобщения к ценностям «значимого другого» (отца, матери, народа) становится общение, оказываясь основным способом формирования и развития мировоззрения личности, ее системы ценностей. Войдя в жизнь человека, общение рождает потребность в постоянных контактах к себе подобными. При этом оказывается - что чрезвычайно важно! - что «принципы общения как межсубъектного взаимодействия распространяются на связь человека с природой, с животными,



вещами: это оказывается возможным благодаря действию воображения, наделяющего объекты свойствами субъекта, то есть, превращающего субъект в квази-субъекта, позволяя подлинному субъекту вступать с ним в квазиобщение – воображаемое общение, мысленный диалог». Такое общение с природой и вещами приобретает огромное культурное значение, религиозной обрядово-заклинательной формы и кончая современным, нравственно-эстетическим отношением к «первой» и «второй» природе, уважением и восхищением. Такое отношение противостоит прагматически-потребительской эксплуатации природы и культу вещей, одухотворяя и облагораживая связь человека с материальным миром.

Специфической особенностью второй стадии инкультурации становится способность индивида к самостоятельному освоению социокультурного окружения в пределах, установленных в данном обществе.

Взрослым, индивид считается в случае приобретения им определенной совокупности качеств, из которых наиболее важными являются следующие:

- достижение необходимой степени физической зрелости организма;
- овладение навыками собственного жизнеобеспечения в сферах домашнего хозяйства и общественного разделения труда;
- овладение достаточным объемом культурных знаний и социального опыта;
- принадлежность к одной из социальных общностей, состоящей из взрослых участников системы разделения труда [1].

Таким образом, гармоничное и последовательное развитие обоих этапов инкультурации завершается формированием менталитета личности, т.е. «совокупности установок и предрасположенности костей индивида действовать, мыслить, чувствовать и воспринимать мир определенным образом» [5]. Вместе с тем семья утверждается как естественная, имеющая оптимальные условия для решения задач инкультурации (воспитания) среды.

Литература:

1. Акбашев Т.Ф. Первые шаги в педагогику жизни. Челябинск: Версия, 1995.
2. Гальперин П.Я. Методы обучения и умственное развитие. М., 1985.
3. Каменский Я. А. Избранные педагогические сочинения. М., 1996.
4. Кушнир А. педагогика грамотности // Школьные технологии. 1996.
5. Штейнер Р. Искусство воспитания. М., 1996.



PEDAGOG KADRLARNI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH VA ULARNI MALAKASINI OSHIRISHNING ZARURATI

D.M.XAKIMOVA,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti, p.f.f.d.(PhD)

Maqolada O'zbekiston va jahonda o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish, malakasini oshirish tartibi, xususiyatlari va keng tarqalgan tashkiliy shakllari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: attestatsiya, kasbiy yetuklik, malaka oshirish, faoliyatni baholash, toifalash.

В статье научно обоснована аттестация учителей в Узбекистане и в мире, порядок повышения квалификации, особенности и общепринятые организационные формы.

Ключевые слова: аттестация, профессиональная зрелость, повышение квалификации, оценка деятельности, классификация.

The article is scientifically based on the procedure, features and common organizational forms of teacher certification, professional development in Uzbekistan and around the world.

Key words: certification, professional maturity, professional development, performance appraisal, classification.

O'qituvchi kasbi - bu maktab, kollej yoki universitet devorlari ortida qolmaydigan kasblardan biridir. O'qituvchi hayot davomida uzluksiz ravishda malakasini oshirib boradi. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi davrda muntazam ravishda o'qitishning yangi usullari paydo bo'ladi, ilmiy kashfiyotlar amalga oshiriladi, har qanday zamonaviy inson bilishi kerak bo'lgan bilimlar bazasi yangilanadi. Bundan tashqari, o'qituvchining malaka darajasini malaka oshirish kurslarida o'qitish orqali kasbiy yetuklikka erishish mumkin.

Mamlakatimizda o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish hamda ularning malakasiga yarasha toifa berish orqali o'zaro sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida pedagog kadrlar attestatsiyasi o'tkaziladi. Attestatsiya o'qituvchining malaka darajasini tekshirish imkonini beradiga jarayon bo'lib, o'qituvchilarni muntazam ravishda malakasini oshirishga, o'qituvchilarni Olimpiada va musobaqalarga tayyorlashga, konferensiya va seminarlarda chiqishlari orqali faoliyat davomida to'plangan uslubiy tajriba bilan almashishga, shuningdek, maqolalar yozishga motivatsiya beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son Farmonida "2021 yil 1-sentabrdan boshlab: maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va



maktabdan tashqari davlat ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarini (keyingi o'rinlarda - pedagog xodimlar) attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasini berish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytidagi maxsus portal orqali amalga oshiriladi; pedagog xodimlarga barcha malaka toifalarini berish, shuningdek, talabgorlarni attestatsiyadan o'tkazish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Bunda, pedagog xodimlarning oliy ma'lumot yoki qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplomida ko'rsatilgan tayyorlov, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassislik yoki ixtisosliklarga mos keladigan fanlardan imtihonlar tashkil qilinadi va axborot tizimlarini qo'llagan holda ularning faoliyat samaradorligi baholanadi; pedagog xodimlarga malaka toifalarini berish bo'yicha navbatdagi attestatsiyadan o'tkazganlik uchun yig'im undirilmaydi, navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi" [2], – deb belgilab berilgan vazifalar ham pedagog kadrlar uchun attestatsiyadan o'tish jarayonlarida bir qator qulayliklarni yaratishga xizmat qiladi.

O'qituvchilarni malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazish masalasi bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki aksariyat rivojlangan mamlakatlar uchun ham dolzarbdir. O'qituvchining yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, yangi usullarni ishlab chiqishi ham o'z manfaatlarini, ham davlatning malakali o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi.

Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida o'qituvchilar maktabda, kollej va universitetlarda qisqa muddatli va uzoq muddatli kurslar doirasida o'z malakalarini oshiradilar. AQShning pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida nazorat, kasbiy mashg'ulotlar va modulli texnologiyalardan faol foydalaniladi. O'qituvchilar, maktab direktorlari va universitet o'qituvchilarini attestatsiyadan o'tkazishda "faoliyatni baholash" deb nomlanadigan jarayon qo'llaniladi. Shuningdek, ob'ektivlikni saqlash maqsadida o'qituvchi muvaffaqiyatining oltita parametri hisobga olinadi: mashg'ulotlar sifati, o'qituvchining o'zini o'zi qadrlashi, o'quvchilar va otionalarning fikri, hamkasblari va ta'lim muassasasi rahbariyatining bahosi.

Germaniyada o'qituvchilarning malakasini oshirish XIX asrda, universitetlar va o'qituvchilar uyushmalarida o'qituvchilar tomonidan olingan boshlang'ich bilimlarni chuqurlashtirish va jamiyatning hozirgi taraqqiyoti bilan moslashtirish ustida ish olib borilgan davrdan boshlanadi.

Germaniyadagi o'qituvchilarning malakasini oshirish zamonaviy shakllariga kunduzgi kurslarga qatnashishni va masofaviy dasturlarda, seminarlarda, mahorat darslarida hamda treninglarda qatnashishni o'z ichiga oladi. Attestatsiya paytida baho beruvchilar o'qituvchining hujjatlari (dars ishlanmalari, bajarilgan ishlar bo'yicha hisobotlar) va faktik materiallar (kuzatuv va sertifikatlangan o'qituvchi bilan aloqa)ni o'z ichiga olgan, oldindan tayyorlangan "ma'lumotlar bazasi" bilan tanishadilar. Tekshirishda o'qituvchining avvalgi attestatsiya natijalari, maktabdagi rasmiy harakatlar,



rag'batlantirish, ilmiy va ma'muriy faoliyat sohalarida ishtirok etgan natijalari hisobga olinadi. Bundan tashqari, attestatsiyadan o'tayotgan o'qituvchining uchtagacha bo'lgan darslari kuzatib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Germaniyada attestatsiyadan o'tkazish jarayonida o'qituvchining huquq va manfaatlariga hurmat kafolati sifatida "ishonchli" (masalan, hamkasb) o'qituvchi bu jarayonda kuzatuvchi sifatida qatnashadi.

Rossiyada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan pedagog kadrlar malakasini oshirishning to'laqonli tizimi XX-asrning 20-yillarida boshlangan. Xozirgi kunda Rossiyada o'qituvchilar uchun malaka oshirishning eng keng tarqalgan tashkiliy shakllari: kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy, shuningdek amaliyot o'tash shaklida o'tkazilishi mumkin.

O'zbekistonda o'qituvchilar uchun malaka oshirishning bugungi kundagi tashkiliy shakllari ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish, masofaviy, shuningdek, dual shaklida o'tkazilishi mumkin [1].

Mamlakatimizda yo'lga qo'yilgan pedagog va rahbar kadrlar malakasini oshirish masofaviy kurslarining joriy etilishi yuqoridagi muammolarni qisman hal etib, o'qituvchilar uchun dastur mazmuniga kirish nuqtai nazaridan ham, qat'iy vaqt chegaralarining yo'qligi jihatidan ham qulay hisoblanadi. Bugungi kunga qadar o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish sxemasi ta'lim tizimidagi o'zgarishlar tufayli bir necha marta o'zgardi.

Hukumatimizning 2019 yil 13-maydagi 392-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan o'qituvchilar salohiyatini adolatli baholash belgilangan. Har yili mart-iyun oylarida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalarini berish jarayonlari tashkil etiladi.

Unga ko'ra, pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish o'qituvchilarni o'quv fani bo'yicha malakasi, dars o'tish mahorati, mehnati samaradorligi va ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirgan pedagog kadrlarni rag'batlantirish; ish haqi miqdorini oshirish imkoniyatlarini yaratish; xorijiy tillarni o'rganishni qo'llab-quvvatlash; kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishning majburiyligini ta'minlashni [3] o'z ichiga olgan asosiy vazifalarni belgilaydi.

Shuningdek, attestatsiyadan belgilangan muddatda malaka oshirish kursini tugatganlik to'g'risidagi sertifikatga ega bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining oliy ma'lumotli pedagog kadrlari o'tkazilishi shart. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ilmiy darajaga (fan nomzodi, falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) darajasiga ega bo'lgan pedagog kadrlari attestatsiyaga jalb etilmaydi, pensiya yoshida bo'lgan pedagog kadrlar attestatsiyaga o'z xohishiga ko'ra jalb etiladi.

Har yili Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan barcha o'quv fanlaridan onlayn-repetitsiyalar tashkil etiladi. Onlayn-repetitsiyalar orqali



attestatsiyadan o'tuvchilar onlayn-test dasturi bilan yaqindan tanishishlari, dasturdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishlari, o'zlari haqidagi ma'lumotlarni elektron bazaga to'liq va to'g'ri kiritilganligiga ishonch hosil qilish va nazorat materiallari yo'nalishlari bo'yicha tasavvurga ega bo'lardilar.

Xalq ta'limi boshqarmalari attestatsiya komissiyalari tarkibi xalq ta'limi boshqarmalari boshlig'i (komissiya raisi), Davlat inspeksiyasi yoki uning hududiy bo'limi vakili (komissiya raisi o'rinbosari), xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi xodimi, kasaba uyushmasi vakili, uch nafar attestatsiyadan o'tgan, oliy toifali pedagog kadrlardan (bir nafari — komissiya kotibi) iborat bo'ladi. Malaka sinovlari natijalariga ko'ra qo'yidagi qarorlardan biri qabul qilinishi mumkin: egallab turgan lavozimga to'g'ri keladi, keyingi malaka toifasiga o'tkazilsin yoki egallab turgan lavozimga mos kelmaydi. Shuningdek, mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan holda uzoq muddat (uch oydan ortiq) davolanayotgan, homiladorlik, tug'ish hamda bolani parvarish qilish ta'tilidagi pedagog kadrlar ish faoliyatiga qaytganlariga bir yil to'lgandan so'ng attestatsiyaga jalb etiladi.

Malaka toifasi besh yil muddatga o'rnatilib, ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malaka toifalari yoki lavozimlari ushbu ta'lim muassasalarining bir turidan boshqasiga ishga o'tganda saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020 yil 23-sentabrda O'RQ-637-son O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.

2. 2020 yil 6-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son Farmoni.

3. 2019 yil 13-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 392-son "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom.

4. CERTIFIED STAFF HIRING PROCEDURES MANUAL // May 2018 y.

5. Джемилева Н.Н. Сравнительный анализ повышения квалификации учителей за рубежом. / Н.Н.Джемилева // Ярославский педагогический вестник. – 2011. – №1. – Том III.

6. Гладкова О.С. О профессиональной подготовке и повышении квалификации педагогических работников в Германии. / О.С. Гладкова // Историко-педагогический журнал. – 2011. – №1.

7. Хатюшина А.А. Теория и практика повышения квалификации учителей США: Автореферат диссертации кандидата педагогических наук: 13.00.08 / Анна Андреевна Хатюшина; РГСУ – М., 2009.



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGLARNING O'QUVCHILAR JAMOASI FAOLIYATIDA YAGONA KOMANDANING TASHKIL ETILISHIDAGI O'RNI

SH.X.DONIYOROV,

O'zPFITI mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur maqolada pedagog va o'quvchilar orasidagi munosabatlar, pedagoglarning kasbiy mahorati, o'qituvchi kasbining serqirraligi, maktab hayoti bilan bog'liq masalalarni muvokama kila olishlari hamda o'quvchilar jamoasiga o'rnak vazifasini o'tashlari xususida so'z boradi.

Tayanch so'z va iboralar: *Pedagogik faoliyat, kasbiy mahorat, bilimdonlik, qat'iylilik, sokinlik, tolerantlik, motivatsiya, kompetentsiya, jamoa liderligi, o'quvchilar jamoasining jipslashuvi, jamoaviy faoliyat, ijodiy faoliyat, hamkorlikka kirishish.*

В этой статье обсуждаются отношения между педагогами и учащимися, профессионализм педагогов, многогранная сторона учителя, его участие в обсуждении вопросов связанные со школьной деятельностью, роль педагога как в качестве образца для подражания учащимся.

Ключевые слова: *Педагогическая деятельность, профессионализм, знания, настойчивость, спокойствие, толерантность, мотивация, компетентность, командное лидерство, командообразование, командная работа, творчество, сотрудничество.*

This article discusses the relationship between educators and learners, the professionalism of educators, the many-sided face of teachers, their ability to discuss issues related to school life, and their role as role models for learners.

Key words: *Teaching, professionalism, knowledge, perseverance, calmness, tolerance, motivation, competence, team leadership, team building, teamwork, creativity, cooperation.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsentsiyasi" da pedagoglar uchun bir qator usutivor vazifalar belgilanib, jumladan: ... "pedagoglar doimo kasbiy layoqatlarini rivojlantirib, ijodkorlik, qo'shimcha yangi ixtisoslik va malakalarni o'zlashtirishi, ta'lim-tarbiya infratuzilmasini shakllantirishi, ta'lim va tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich tadbiriq eta olishlari, o'quvchilarda kuchli va ta'sirchan motivatsiya hamda mustaqil rejalashtirish qobiliyatlarini rivojlantira olishi kerak", deb ta'kidlangan [3]. Bunda, pedagoglar jamoasi uchun o'qituvchilik kasbining serqirraligini ham e'tirof etish kerak. Pedagog bir vaqtning o'zida fan o'qituvchisi, sinf rahbari, to'garak rahbari vazifalarini bajaradi. Pedagogning muhim vazifalaridan biri uning yakka tarzidagi faoliyati bilan kollegiallikning uyg'unlashuvini ta'minlay olishidadir. Pedagoglar jamoasining bajaradigan vazifalari sirasiga kasbiy



mehnatning davomiyligini ham kiritish mumkin. Pedagog mehnati mehnatning boshqa turlaridan bitmas-tuganmasligi bilan ajralib turadi. O'qituvchining vazifalari dars va tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklanmaydi. Pedagogik faoliyatning doirasi keng bo'lib, kundalik ijtimoiy turmush masalalarini ham qamrab oladi. Bu esa o'qituvchining kuchi va imkoniyatlarini cheklab, zarur kasbiy rivojlanishini ta'minlashida qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Jamoadi ishlashning muhim vazifalaridan biri yagona komandani vujudga keltirishdan iborat. Komandani vujudga keltirish pedagogik nuqtai nazardan yondashganda oson ish emas. Komanda jamoaning o'zidan ham iborat bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda komanda muayyan o'quv-pedagogik, metodik vazifani tezkorlik bilan bajarish maqsadida ham tuzilishi mumkin. Bunday komandalar pedagogik kengashlar va maxsus tashkil etilgan yig'ilishlarda tuziladi. Komanda bu – jamoa hisoblanadi. Biroq jamoadan farqli tarzda komandaning o'ziga xos belgilari mavjud. Bunday belgilar sirasiga:

a) komandani yig'ishga sabab bo'ladigan asosning mavjudligi;

Bunday sabab sifatida o'quvchilar orasida "Zukkolar" komandasini tashkil etishni ko'rsatish mumkin. Komanda bir nechta a'zolaridan tashkil topadi. Komandalar muayyan ta'limiy vazifani bajarish maqsadida tuziladi. Komandada ishlash tezkor pedagogik topshiriqlarni bajarish imkonini beradi. Komandalar muayyan tadbirni tayyorlash va o'tkazish maqsadini nazarda tutgan holda tashkil etiladi va muayyan vaqt mobaynida faoliyat ko'rsatadi.

b) komandaning barcha a'zolari o'zaro munosabatga kirishishlari va hamkorlik qilishlari;

Komanda a'zolari uning tarkibiga nima uchun kirayotganliklarini anglab yetishlari muhim ahamiyatga ega. Bu ko'p jihatdan pedagogning komanda a'zolarining faoliyatini muvofiqlashtira olishlariga bog'liq. Bu o'rinda pedagog komanda a'zolarining motivatsiyalarini ham o'rganishi lozim. Olingan ma'lumotlarga muvofiq tarzda o'qituvchi komanda a'zolari tomonidan bajariladigan ishlarning mazmun-mohiyatini ular ongiga yetkaza olishi nihoyatda zarur.

v) pedagog o'quvchilar jamoasidagi har bir o'quvchini komanda faoliyatiga jalb eta olishi;

O'quvchilar jamoasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun pedagog har bir o'quvchini komandada ishlashga jalb eta olishi muhim. Bunday yondashuv o'quvchilar jamoasining har bir a'zosi qoniqish hissini vujudga keltirib, jamoaviy faoliyatda o'zining muhim o'rni borligini his etish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarda ijobiy xarakterdagi jamoaviy faoliyat tajribasini xosil qilishga ko'maklashadi. Natijada o'quvchilar jamoasining jipslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



g) komandaning hisob bera olishi;

Komanda jamoaning barcha belgilari va tavsifini o'zida mujassamlashtiradi. Komanda maktabning o'quvchilar oldiga qo'yadigan barcha talablariga javob bera olishi kerak. O'quvchilar jamoasi orasida tuzilgan komanda o'quv-tarbiya jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan barcha vazifalarni uddalay oladi. O'qituvchilar esa o'z navbatida komanda faoliyatini pedagogik talablar doirasida boshqara olishlari zarur. Komandalarning oraliq faoliyat natijalarini aniqlash ularning bir darajadan ikkinchisiga ko'tarilishlari uchun sharoit yaratadi. Komanda faoliyatining natijaviyligi murakkab xarakterdagi o'zaro muvofiqlashgan topshiriqlarni bajarish natijasida vujudga keladi. O'quvchilar jamoasi orasida komandalarning shakllanishi sinf jamoasining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun nihoyatda zarur hisoblanadi. Komanda a'zolarini maqsadga muvofiq tarzda tanlash o'quvchilarning hayotiy faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. Komandani shakllantiruvchi o'qituvchilar komanda bo'lib ishlash muayyan hayotiy sikllarni aniqlashni talab etishini yaxshi bilishlari zarur. Komandada faoliyat ko'rsatuvchi o'quvchilar aniq rollarni bajaradilar. Bunday rollarni bajarish komanda faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pedagog komanda a'zolariga ular bajaradigan rollarni taqsimlashda o'quvchining bilim darajasi, moyilligi, mavjud kompetentsiyalarini hisobga oladi.

Aksariyat vaziyatlarda komanda a'zolari 2 tadan rolni ham bajarishlari mumkin. Bunday vaziyatda o'quvchi tashabbuskorlik ko'rsatadi. O'quvchi topshiriqlarni yechishda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ishga soladi, ijodiy faollik ko'rsatadi. Komanda a'zolarida intizomlilik va ishchanlikni tarbiyalash pedagogning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday komandalarda o'qituvchi tashkilotchi va maslahatchi funksiyasini bajaradi. Mazkur vaziyatda pedagoglar yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik, qat'iylilik, sokinlik, tolerantlik sifatlarini namoyon eta olishlari kerak. Pedagoglar o'quvchilarning yangi g'oyalarini muvofiqlashtirishlari, bilimlarini uyg'unlashtirishlari lozim. O'qituvchi tomonidan muvofiqlashtirilgan yangi bilimlar va g'oyalar o'quvchilarning hayotiy faoliyatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Komandaning har bir a'zosi aniq tasavvur, aql-zakovat va zarur bilimlarga ega bo'lishi muhim omillardan biri sanaladi. Pedagog komanda bilan samarali ishlashda har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga ola bilishi kerak[4]. Har bir komandada manbalarni izlovchi o'quvchilarning shakllanishiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bunday o'quvchilar qiziquvchan va tashabbuskor o'quvchilar hisoblanadilar. Ular odamlar bilan muloqotga kirishadilar, yangi tashabbuslarni ilgari suradilar, kichik-kichik tadqiqotlar o'tkazishga moyil bo'ladilar. Bunday o'quvchilarda muammoga nisbatan



qiziqishlar tez yo‘qoladi va yangi muammolarni izlab topishga moyil bo‘ladilar.

O‘quvchilarning komandada bajarayotgan rollari turli-tuman bo‘lishi mumkin. Komanda oldida turgan maqsaddan kelib chiqqan holda uning a‘zolari turli rollarni bajarishlari mumkin. Komanda a‘zolarining intellektual darajalari, tajribalari bilan bog‘liq holda ular bajaradigan faoliyatning natijasi namoyon bo‘ladi. Komanda tarkibida yuqori o‘zlashtiruvchi va iqtidorli o‘quvchilar faoliyat ko‘rsatganda samaradorlikka erishish mumkin. Turlicha o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar komandasida esa yuqori o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lgan ta‘lim oluvchilar past o‘zlashtiruvchilarni o‘z orqalaridan ergashtiradilar va ularning yaxshi natijalariga erishishlariga hissa qo‘shadilar.

Pedagoglar ixtiyoriy tarzda tanlangan o‘quvchilardan tashkil topgan komandalarni shakllantirishga ko‘proq e‘tibor qaratishlari lozim. Chunki bunday komandalar faoliyatining natijalari odatda samarali bo‘lishi kuzatiladi. Komanda a‘zolari orasida qat‘iyatli, qaysar, bir so‘zli, ba‘zan esa bir qadar asabiy o‘quvchilarning ishtirok etishi ham faoliyat natijalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Komanda a‘zolari bo‘lgan o‘quvchilarning xulq-atvorlariga nisbatan tashqi ta‘sirlarning mavjudligi ham faoliyatning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Akasariyat xollarda o‘quvchilar guruhida komanda liderligi uchun kurash boshlanadi. Ayrim o‘quvchilarda esa liderlikka erishish uchun imkoniyatlar yetarli bo‘lmaydi. Natijada muammolar vujudga keladi. Bunday holat komandada 2 ta yetakchi yoki tashkilotchi mavjud bo‘lganda kuzatiladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayni bir rolni ikki kishi bajarishi komandadagi muhitda o‘z ifodasini topmaydi.

Yuqorida ta‘kidlangan fikrlar pedagoglar tomonidan komanda tarkibini maqsadga muvofiq tarzda belgilash zarurligini ko‘rsatadi. Uning faoliyatini o‘zaro mos tarzda bosqichma-bosqich tashkil etish esa faoliyat samaradorligini ta‘minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межапарадигмальной рефлексии. - СПб.СПБУМП, 1999.-442 с.
2. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2014 yil. 29-30 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kotsentsiyasi “to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://LEX.Uz>.
4. O‘zbek pedagogikasi tarixi / A. Zunnunov tahriri ostida.- T. O‘qituvchi, 1997.-271 b.



UZLUKSIZ TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHI-TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

B.UMAROV,

Surxondaryo viloyat XTXQTMOXM,
«Tillarni o'qitish metodikasi» kafedrası

Maqolada ta'limning uzluksizligi sharoitida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muammosi ko'rib chiqilgan. Muallif o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning mavjud pedagogik yondashuvlari tahlilini va o'ziga xos jihatlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, munosabat, lisoniy shaxs, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv, sinergetik yondashish, uzluksizlik prinsipi.

В статье рассматривается проблема развития коммуникативной компетентности учащихся в условиях непрерывного образования.

Автор представляет анализ и особенности существующих педагогических подходов к развитию коммуникативной компетентности у учащихся.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, отношение, языковая личность, компетентностный подход, синергетический подход, успешная социализация.

The article expresses the problem of developing students' communicative competence in the context of prolonged education. The author presents an analysis and specific aspects of existing pedagogical approaches to the development of communicative competence in students.

Key words: communicative competence, attitude, linguistic personality, competency approach, synergetic approach, successful socialization.

Zamonaviy biznes dunyosida muloqotning o'rni doimiy ravishda oshib bormoqda. Muammoning yechimi bugungi kunda u yoki bu mutaxassisning fikrlashining o'ziga xosligi bilan emas, balki turli mutaxassislarning jamoaviy ishini samarali tashkil etishi va ularning kommunikativ vakolatlari bilan belgilanadi. Raqamlashtirish davri, internetning zamonaviy hayotda tarqalishi natijasida o'quvchilarimizda ijtimoiy tarmoqlardagi virtual aloqada qolishi atrofda haqiqatni mustaqil ravishda o'ylash va baholashni boshlaydi. O'quvchilarning nutqi yanada ravshan va teran gapirish zaruriyati yo'qolgani sababli "qashshoqlashadi". Ammo zamonaviy texnika asosan monologik nutqni rivojlantiradi va suhbatdoshni tinglash hamda eshitish qobiliyati shakllantirmaydi. Shuningdek, o'qish madaniyati darajasining pasayishi kommunikativ kompetensiyani o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir etadi.

Ta'limning uzluksizligi sharoitida ushbu maqsadga erishish uchun har qanday ta'lim muassasasi bitiruvchisi nafaqat kasbiy kompetensiyalarga, balki poydevorlari



maktabda shakllanadigan, so'ngra oliy ta'limda o'quvchi va talabaning kasbiy yo'nalishiga mos ravishda rivojlanib boradigan kommunikativ xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak. Oliy ta'lim bitiruvchisi tomonidan kommunikativ kompetensiyani egallashi «uning mehnat bozoridagi raqobatdoshligiga, kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi» [1, 8-bet].

Mamlakatimizda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondoshuv asosida uzuluksiz ta'limning meyoriy asoslari chuqur tahlil qilinib, DTS, o'quv dasturlari, o'quv yuklamalari, o'qituvchiga qo'yiladigan malaka talablari, umuman, shu kabi meyorlar zamon talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi. Bundan tashqari, uzluksiz talimning mazmunini takomillashtirishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izlab topish, turkumlash, saralash, amaliyotga tatbiq etish, darsliklar mazmun-mohiyatiga kompetensiyaviy yondashuv asosidagi maqsadlarni singdirishga, yani bilib berish bilan bir qatorda, o'quvchilarda amaliy, hayotiy kompetensiyalar (ko'nikmalar)ni shakllantirishga alohida ahamiyat bermoqda.

Kuzatishlarda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan kommunikativ kognitiv metodikaning qay darajada samaradorligi quyidagi didaktik munosabatlarda o'rganiladi:

1. Til hodisalari va grammatik materiallarning nutqda qo'llanish holati maqsadida o'rganilishi.

2. Nutq o'stirishga oid mashq va topshiriqlar bilan ishlash.

3. Mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi matnlar bilan ishlash.

Bixeyvioristik avvalgi ta'lim tizimida o'qituvchi bilan darslik darsning asosiy manbai, ta'limning nazoratchi kuchi bo'lsa, kognitiv metodikaga asoslangan bu paradigma bo'yicha o'quvchi mustaqil faoliyatning tashkilotchisi, kommunikativ kompetensiyaga va o'z fikriga ega shaxs rolini bajaradi. Kognitiv ta'lim o'quvchida bilishga motivatsiya uyg'otishni talab qiladi. Ayniqsa, o'quvchilarda nutqiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish motivatsiyasi sinergetik ta'lim usuli orqali amalga oshirilishi samaralidir. Ta'limga sinergetik yondashish – qiziqtiruvchi yoki bilim olishga ishtiyoq uyg'otuvchi usul. “Sinergetika shaxsning hali namoyon bo'lmagan, mudrab yotgan qobiliyatining ishga tushishini rag'batlantiradi. O'qituvchi va o'quvchi bir-birlari bilan sinergetik aloqada bo'lib, natijada bilmaydiganlar biladiganlarga aylanadi”. Nutqiy faoliyatga qiziqish motivatsiyasi o'quvchining shaxsiy sifatlariga bog'liq. Ulardan biri–ta'lim oluvchining ijodiy mustaqilligidir, ya'ni o'quvchi o'zi ham o'quv muammosini shakllantiradi.

Kognitiv yondashuvga doir ta'lim usulining mohiyati shundaki, ta'lim oluvchi har bir topshiriqni bajarish jarayonida yangi - yangi fikrlarni kashf etish yoki nimadir yaratish bilan shug'ullanadi. Albatta, bu jarayon o'quvchida birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich shakllanib, rivojlanib boradi.



Kognitiv ta'limda esa o'quv materiali darslikdan tashqarida bo'ladi. Darslik faqat namuna va yo'llanma – o'zlashtirish algoritmini beradi, xolos. Bizda, avvalo, ona tili mashg'ulotlarida keng foydalanish uchun zarur bo'lgan axborot manbalari (masalan, lug'atlar, qomuslar, ma'lumotnomalar) yetarli emas va o'qituvchilarimiz ham, o'quvchilarimiz ham har bir mashg'ulotda bir necha axborot manbasidan foydalanish ko'nikmasi va madaniyatiga ega emas. Maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan o'nga yaqin lug'atlar tayyorlanib, respublika miqyosida maktab partasida o'tirgan har bir o'quvchining, dastavval, ona tili o'qituvchilarining qo'lga yetib bormog'i va ularda lug'atlar bilan ishlash layohiatini shakllantirish lozim.

O'qituvchilarimiz ommasi kognitiv-pragmatik usulda ishlashni – o'quvchiga bilim berishni emas, uni yo'naltirib, izlantirib, o'ylantirib kuzatayotgan hodisalari asosida o'z hukmini chiqarishini va uni ifodalashi lozimligini – o'zlari uchun asosiy me'yor sifatida belgilab olishlari shart. Biroq kuzatgan darslarimizning ko'pchiligida maktab o'qituvchilarimiz o'quvchini dars davomida, odatda, ta'limiy o'yinlar vaqtidagina mustaqil izlanishlariga yo'l beradilar. Boshqa paytlarda esa, «darsning asosi»ni o'qituvchi tushuntiradi, o'qituvchi dastur va darslikda belgilangan mavzuni o'quvchiga (og'zaki bayon usulida) tayyor holda beradi.

Uzluksiz ta'lim muhitida o'quvchi va talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni amalga oshirish jarayonida ma'lum bir ta'lim muassasasining "ta'lim maydoni" muhim rol o'ynaydi. «Ta'lim maydoni» tushunchasi ko'p qirrali. Bu bitta o'quv muassasasida alohida fanlarning o'qitilishida kommunikativ yondoshuvlarda aks etadi. Ta'lim maydoni bu kelajakda o'zlarining professional rejalarini amalga oshirish uchun o'quvchi va talabalar tomonidan individual ta'lim yo'nalishlarini belgilashda foydalaniladigan ijtimoiy-madaniy va predmetlarga xos ta'lim muhitining shartlari to'plami sifatida tushuniladi» [3, 104 bet]. Ta'lim makoni har bir o'quvchi va talaba tomonidan o'quv yo'nalishlarini loyihalashda muhim rol o'ynaydi.

O'quvchi va talabaning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar - bu ijtimoiy buyurtma, Davlat standarti, muassasaning ta'lim maydoni, ta'limning uzluksizligi, shuningdek, pedagogik qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga turtki (motiv) berish, integratsion aloqalar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy shakllar va o'qitish usullaridir.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni tashkil etish shakllariga seminarlar, ekskursiyalar, suhbatlar kiradi; sinfdan tashqari ish shakllariga: predmetli to'garaklar, studiyalar, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar, musobaqalar va boshqalar. Ushbu shakllar doirasida tabaqalashtirilgan yoki farqlanmagan tabiat o'quvchi va talabalaribilan jamoaviy, guruhli, individual, frontal ishlarni tashkil etish mumkin.



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda uzluksizlik prinsipidan foydalanish bu «ta'lim dasturlarini moslashtirishga qaratilgan bo'lib, dastlabki tayyorgarlikdan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Bir o'quv dasturidan «chiqish» tabiiy ravishda ikkinchisiga «kirish» bilan «bog'lanish» kerak, deb taxmin qilinadi. Uzluksiz ta'lim sharoitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun barcha tizimlarning umumiy maqsadlari asosida barcha dasturlarni boshidan oxirigacha standartlashtirish zarur». [5, 54 bet].

Umumta'lim va oliy ta'limda ham o'quvchi va talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish barcha fanlar bo'yicha (gumanitar, tabiatshunoslik, kasbiy, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarda) amalga oshiriladi.

Gumanitar fanlarning mazmuni o'quvchilarning og'zaki yoki yozma matn tuzish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytiradi. Tabiatshunoslik fanlari yuqori darajadagi umumlashtirishni, sabab-oqibat aloqalarining mavjudligini nazarda tutadi, bu esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda bilimlarni oshirishga imkon beradi.

Ma'lumki, til ta'limidagi interaktiv o'qitish texnologiyalari va o'qish darslari maktab o'quvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishga hissa qo'shadi, qiziqishni uyg'otadi va o'tgan nazariy materiallarni mustahkamlashga imkon beradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ vakolatlarini shakllantirishga yordam beradigan shakl va usullar orasida, albatta, loyiha metodikasi, rolli o'yin, aqliy hujum, guruh va juftli ish shakllari juda katta rol o'ynaydi.

Umumta'lim bosqichida didaktik materiallar kommunikativ faollik, o'quvchilar faolligi, interaktiv faollik, topshiriq va kompetensiyalar faolligini o'z ichiga olgan didaktik prinsipga asoslangan bo'lishi kerak.

Ona tili fanidan kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi mashqlarda o'quvchilar berilgan ko'rsatmalarga amal qilgan holda matn va gaplarni ifoda etadilar, yoki o'zlari mustaqil ravishda o'rgangan leksik birliklar yordamida nutqiy operatsiyalarni bajaradilar. Ya'ni berilgan matn yoki rasm, jadval, va diagrammaga qarab hikoya qilish, rol o'ynash, qo'shiq aytish va suhbatda ishtirok etish va bunda fikrlarni tayyorgarliksiz –spontan bayon qilish sharti qo'yiladi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi mashqlarga sinfdan tashqari joylarda ham muloqotga kirisha olish, masalan, borish manzili xaqida so'ray olish, o'zi o'qigan kitob haqida hikoya qilib bera olish, taasurotlar haqida aytib bera olish, o'zi haqida ma'lumot bera olish va ma'lumot so'ray olish rasmlarni tasvirlash, telefonda suhbatlashish, xat va taklifnomalar yozish kabilar kiradi.

O'quvchi va talabani on tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va



malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr buyicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan o'quvchi egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlash maqsadga muvofiqdir:

- a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligini aniqlash;
- b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);
- v) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;
- g) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;
- d) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida joriy etilgan yangi ta'lim standartlari va fan dasturlari o'quvchilarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirish va takomillashtirish bilan uzviy bog'liq ekanligi sababli istiqbolda katta o'zgarishlarga olib keladi. Ularning amalga oshishi esa, ta'lim tizimining asosiy shaxslari – o'qituvchi va o'quvchilarning oldilariga qo'yilgan vazifalarni qanchalik his etishlari, ularni sidqidildan bajarishga intilishlari hamda har bir fan mutaxassisi o'z fanining kommunikativ jihatini ochib bera olishi bilan uzviy bog'liq.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия / И.А. Зимняя – М.: Исследоват. центр проблем качества подготовки специалистов, 2014.–40 с.
2. Сафонова В.В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций [Текст] / В.В. Сафонова. Воронеж: Истоки, 1996. – 237 с.
4. Седов, К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции / К.Ф. Седов. – М., 2014.
5. Смородинова М.В. Роль компетентностного подхода в системе школьного образования // Молодой ученый. — 2010. — №12. Т.2. — С.110-112. — URL <https://molouch.ru/archive/23/2353/> (дата обращения: 26.02.2020)



MAKTAB PSIXOLOGINING EKSTREMAL VAZIYATNI BOSHIDAN KECHIRGAN BOLALARGA KO'RSATADIGAN YORDAMI TURLARI

M.L.SAIPOVA,

*O'zbekiston jahon tillari universiteti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

Maqolada muallif ekstremal vaziyatlar sharoitida bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan terapevtik yordam turlariga to'xtalgan va umumta'lim maktablari psixologlari uchun muayyan tavsiyalarni berib o'tgan.

Tayanch so'zlar: maktab o'quvchilari, ekstremal vaziyat, terapiya, salbiy oqibatlar, psixologik yordam.

В статье автор подробно останавливается на видах терапевтической помощи детям в экстремальных ситуациях и дает конкретные рекомендации психологам средней школы.

Ключевые слова: школьники, экстремальная ситуация, терапия, негативные последствия, психологическая помощь.

In the article, the author focuses on the types of therapeutic care provided to children in extreme conditions and provides specific recommendations for secondary school psychologists.

Key words: school children, extreme situation, therapy, negative consequences, psychological help.

XXI asr nafaqat texnika taraqqiy etgan, balki turli tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlarga boy davr bo'ldi. Bilamizki, inson hech qachon favqulodda vaziyatlarga har tomonlama tayyor bo'lolmaydi. Yana shuni ham ma'lumki, favqulodda vaziyatlar kuchli emotsional kechinmalarga sabab bo'ladi va inson psixik holati, xulq-atvorining uzoq muddatli buzilishiga olib keladi. Chunki kimdir yaqin insonini, mol-mulkini yo'qotsa, boshqalari jismoniy jihatdan jarohat oladilar. Shu nuqtai nazardan ularni bir necha guruhga ajratish mumkin:

1. Favqulodda yoki ekstremal vaziyatlar qurbonlari. Bular toshqin yoki sel oqizib ketganlar, zilzila oqibatida qulagan og'ir narsalar ostida qolganlar, to'fon tufayli talofat ko'rganlardir.

2. Favqulodda yoki ekstremal vaziyatlardan jabr ko'rganlar (uylari buzilgan, mol-mulkidan ajralganlar, yaqinlarini yo'qotganlar yoki qarindoshlari bedarak ketganlar).

3. Guvohlar – favqulodda va ekstremal vaziyatlarni shaxsan boshdan kechirganliklariga qaramay jismoniy va mulkiy yo'qotishga ega bo'lmaganlar.



E'tibor qaratish lozim bo'lgan jihat shundaki, bu vaziyatga u yoki bu darajada daxldor bo'lgan bolalarning psixologik holati. Zero, ekstremal va favqulodda vaziyatlar bolalarning kognitiv, emotsional, konativ (xulq-atvorga oid) sohalarida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, xususan:

a) kognitiv sohada: hissiyotlar, diqqat, tafakkur, xotiraning va buning oqibati sifatida idrokning buzilishi, shuningdek, qaror qabul qilish, nazorat, o'z holatini boshqarish jarayonlarining buzilishi kuzatiladi;

b) emotsional sohada esa xavotir, qo'rquv, oxirgi ifoda sifatida vahimaning namoyon etilishi; sarosimali holat; asossiz tajovuzkorlik; g'azab, aybdorlik hissi; qayg'u, ruhiy tushkunlik, umidsizlik ko'rinishlari xos. Buning oqibatida xavfsizlik tuyg'usi buziladi, odamlar, umuman olganda, olamga bo'lgan ishonch yo'qoladi. Somatovegetativ buzilishlar, ya'ni uyqu, ishtahaning buzilishi, vazn, quvvatning yo'qolishi (yoki ortishi), yuzning oqarib yoki qizarib ketishi kuzatiladi, ter chiqishi kuchayadi, mushaklarda zo'rqiqlik, titroq yoki aksincha lanjlik paydo bo'ladi;

v) konativ (xulq-atvorga oid) sohada xulq-atvorning maqsadga yo'nalganligining, nazoratning yo'qotilishida, ya'ni maqsadsiz faollik yoki sustlikda yaqqol ko'zga tashlanadigan uyushmaganlikda kuzatiladi. O'zaro harakatlanish, mulohaza, o'zaro munosabatlarda esa har doim ham asosli bo'lmagan tajovuzkorlik, janjallashish, aybdorlarni izlash, begonalashish kabi fe'l-atvor ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

Agarki ekstremal va favqulodda vazichlardan jabr ko'rganlar biror joyda to'plansalar, sarosima, vahima kabi ommaviy psixik ko'rinishlar yuzaga kelishi mumkin. Buning oldini olish, ularga psixologik yordam ko'rsatish uchun psixolog psixologiyaning barcha sohasida, shu jumladan, ijtimoiy, yoshga oid, ekstremal psixologiya kabi yo'nalishtirish muayyan bilimlarga ega bo'lishi lozim. "Favqulodda vaziyatlar holatida, to'satdan yuz beruvchi fojeda faqat bitta psixologik yo'nalishtirish doirasida ishlash mumkin emas. Krizis vaziyatida, krizis holatida faqat bitta an'anaviy psixoterapiyani amalda qo'llaydigan mutaxassis krizisli aralashuv bo'yicha mutaxassisga qo'yiladigan talabga javob bermaydi (bitta yondashuv etarli bo'lmaydi)" [2].

Maktab psixologi o'quvchilarning yoshi, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda psixologik terapiyaning quyidagi turlaridan oqilona foydalanishi mumkin:

1. Arterapiya – bola uchun xavfsizlik muhitini yaratadi, kuchli emotsional reaksiyalarni ifodalashni engillashtiradi, unga jarohatlovchi xotiralarni noverbal tarzda qog'ozga tushirish, o'z tuyg'ularini yaratayotgan mahsulotiga joylash imkonini beradi. Bunda **"Vulqon" mashqi**dan foydalanish mumkin:



Mashqning maqsadi: boladagi tajovuzkorlik, dolzarb yoki bostirilgan nizo, uning jadalligi, shuningdek, bolaning tajovuzkorligiga atrofda gilar munosabatining xususiyatini aniqlash.

Mashg'ulotning borishi: bolalardan vulqon rasmini chizish so'raladi. Keyin rasm bo'yicha suhbatlashish mumkin: bu qanday vulqon, u qanchalik tez-tez otilib chiqadi va umuman, otilib chiqadimi; unda qancha lava bor, vulqon otilganida qo'shni hududlarda nimalar sodir bo'ladi va h.k.

"Plastilin bilan o'ynash" mashqi

Maqsad: bir vaqtning o'zida vaziyat bo'yicha his-tuyg'ularni ifodalash, zo'riqishni olib tashlash, vaziyatni ancha xavfsiz o'yinli shaklda tadqiq etish.

Mashg'ulotning borishi: plastilindan turli figurachalar yasang, ular bilan o'ynang. Bolalardan figurachalardan biri bo'lishlarini, o'zlarini ularning o'rniga qo'yib ko'rishlarini so'rang. Keyin savol bering: Siz nimani his qildingiz? Endi o'z o'ringizga qayting va figurachalarga boshqatdan qarang. Sizning idrokigingizda nimalar o'zgardi? Qanday fikr va tuyg'ularni ta'kidlashingiz mumkin?

2. Ertak terapiyasi ramziy darajada qo'rquv, xavotirli jarohatni ishlab chiqish imkonini beradi. Psixologik jarohat chiqishning iloji bo'lmagan "qotib qolgan ertak" sifatida ko'rib chiqiladi. Ertaklarning psixoterapevtik mazmuni u o'zida bolaning kechinmalari uchun "konteyner"ni o'zida aks ettiradi va bir vaqtning o'zida algoritmdan, ya'ni vaziyatni qanday uddalashni shipshitishdan iborat.

"Ertak to'qish" (juftlikda) mashqi

Maqsad: ramziy qahramonlar orqali vaziyatni muhokama qilish va psixikaning bir butunligini saqlash imkoniyati.

Mashqning borishi: 1-bola ekstremal vaziyat elementlari bo'lgan voqea (yoki biror kinofilmdan epizod) ni eslaydi. 1- va 2-bola bu voqeada odamlar psixikasining bir butunligi uchun "xavfli" bo'lganlarini ajratadilar va ularga ramziy ertakka oid shakl beradilar (ularni ertak qahramonlari qiladilar). 2-bola sehrgarlikdan foydalanganicha ular tanlagan tartibda voqeani o'ylab chiqaradi, yaxlit va faol bo'lib qolgancha bu qahramonlar bilan mulohaza qiladi. Oxirida har ikkala ishtirokchi to'qib chiqirilgan ertakni va bu ertak chorlagan kechinmalarni muhokama qiladilar.

3. Somatik psixoterapiya – "Men" va tanaga oid hissiyotlar, "Men" va atrof-olam o'rtasidagi dissotsiatsiyalangan aloqalarni qadam-baqadam tiklashda, jarohat olishda tugallanmagan, to'planib qolgan reaksiyalar quvvatini kelgusida chiqarib tashlash hamda kechinmalar yaxlitligini tiklashdan iborat.

"Ora-sira taqillatish" mashqi



Maqsad: tana hissiyotlarini tiklash.

Mashqning borishi: o'ng qo'lingizning uchlari bilan chap kaftingizni engil taqillatishni boshlang va bu Sizning kaftingiz ekanligini yaqqol jismonan anglaguncha takrorlang. Keyin to'xtang va bir muddat kaftingizni to'ldirgan hissiyotni o'rganing. Siz nimani his qildingiz? Engil sanchiq? Vibratsiya? Uvushib qolish? Iliqlik? Sovuq? O'z kaftingizga qarang va ovoz chiqarib ayting: "Bu mening kaftim. Bu kaft meniki, mening qismim" (Siz tanangizning shu qismiga ega ekaningiz to'g'risidagi fikrni ifodalash uchun o'z so'zingizni toping).

"Erga qo'nish" mashqi

Maqsad: jarohat olganda buzilgan, oyoq ostidagi tayanch hissini tiklash.

Mashqning borishi: bolalarni raso turishga, oyoqlari polda qattiq turganini his qilishga undang. Oyoqlarining yirik mushaklari qanchalik zo'riqqanini his qilishlariga e'tiborlarini qarating. Ular oyoq kaftlari polga tegib turganini his qilishsin. Sekinlik bilan bir tomondan boshqa tomonga, keyin esa oldinga va orqaga tebranishlarini, o'z tanalarining og'irlik markazini aniqlashga urinib ko'rishlarini so'rang. Qo'l barmoqlarini qorinning pastki qismiga qo'yib, tana markazini his qilishlari mumkinligini ayting.

4. *Geshtalt terapiya* o'zida yuragini hovuchlab yurish holati, xavotir, himoyasizlik, sub'ektning reallik bilan muomalasidagi erkinlikning yo'qolishini aks ettiruvchi jarohatli kompleksni sekin-asta "eritish"ga yo'naltirilgan. Jarohatni psixoterapiya qilishda ahamiyatli rolni mijoz tomonidan jarohatli vaziyatlarda yo'qotilgan shiddatlilikni tiklash o'ynaydi. Ekstremal vaziyatda shiddatlilikni yo'qotish qutulish (qochish yoki kurashish) ga yo'naltirilgan xulq-atvorni ro'yobga chiqarishni bloklaydi, bu esa, o'z navbatida, mazkur tugallanmagan harakatlarning qotib qolishiga olib keladi.

"O'ynash" mashqi

Maqsad: reallik bilan erkin muomalani tiklash, tanaga oid erkin emaslikni yumshatish, ekstremal, favqulodda vaziyatlarda tugatilmagan harakatlarni tugatish.

Mashqning borishi: bolalarga o'z hayotlari davomida jismoniy jarohat olgan vaziyatni eslashlarini taklif qiling. Butun vaziyatni ketma-ket tasavvur qilishlarini va sodir bo'layotganni oldini olmaydigan hamda himoyasizlikni boshdan kechirgan lahzani aniqlashlarini so'rang. Himoyasizlik tuyg'usi yuzaga kelgan lahzaga qaytishlarini va agar ular g'ayrioddiy epchillik, jur'at, ixtirochilik qobiliyatlari bo'lganida nima qilgan bo'lishlari (istashlari) ni tasavvur qilishlarini ayting. Shundan keyin ularga o'zlarining tanaga oid kechinmalariga e'tibor qilgancha



vaziyatni tugallashdan olgan yangi tajribani o'zlashtirishlarini tavsiya qiling.

5. Bixeyvioral terapiya qaror qabul qilish jarayonini o'rganish, o'z ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun buzilgan xulq-atvorni o'zgartirishga yo'naltirilgan.

“Xulq-atvorni modellashtirish” mashqi

Maqsad: xulq-atvorni o'zgartirish.

Mashqning borishi: ishtirokchi bolaga guruhda o'z xulq-atvorini o'ziga xos bo'lgan usulda namoyon qilish taklif etiladi. Guruhning boshqa ishtirokchilari ularga namoyish qilingan xulq-atvor ishonchli bo'lganini aniqlash topshiriladi. Istovchi ishtirokchilar (ko'rsatilgan namuna asosida) o'ziga ishongan xulq-atvorning o'z namunalarini modellashtirishlari mumkin. Olingan natijalar guruhda muhokama qilinadi, birmuncha munosib xulq-atvor modeli o'zlashtiriladi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, maktab psixologiga boshlang'ich sinf o'quvchilaridan tortib, yuqori sinf o'quvchilarigacha bo'lgan yoshdagilar bilan ishlashlariga to'g'ri kelarkan, ular bolalarning nafaqat yosh xususiyatlari, balki o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda:

– o'quvchining yonida bo'lgancha hamdardlikni namoyish etgan holda ishlashlari;

– Men – Sen dialogini qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga ega bo'lishlari;

– terapevtik pozitsiyalarini yo'qotmagancha mijoz vaziyatini o'z ko'zlari bilan ko'rishga urinishlari;

– mijozga ishonish bilan birga uning ishonchini qozonishlari zarur.

Ekstremal, favqulodda vaziyatda jarohat olgan o'quvchilarning terapevtik mashg'ulotlarda o'z ixtiyori bilan ishtirok etishi psixolog ishining samarador bo'lishini kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бермант-Полякова О.В. Посттравма: диагностика и терапия. – СПб.: Речь, 2006.

2. Хоф Л. Диагностика кризиса в интервью // Журнал практической психологии и психоанализа. Ежеквартальный научно-практический журнал электронных публикаций. № 4, декабрь, 2006.



ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРНИНГ HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH AMALIYOTI

B.SH.SAPAYEVA,

Urganch «Temurbeklar maktabi» ingliz tili fani o'qituvchisi

Maqolada xorijiy davlatlarning harbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish amaliyoti, kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligi, kasbiy intizomini o'rganish jarayonida o'quvchilarning umumiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativlik va harbiy-amaliy, kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shartlari.

В статье рассматриваются практика преподавания английского языка в военных учебных заведениях зарубежных стран, эффективность формирования профессиональных компетенций, педагогические условия и особенности формирования общих и профессиональных компетенций студентов при изучении профессиональной дисциплины.

Ключевые слова: коммуникативные и военно-практические, педагогические условия формирования профессиональной компетентности.

The article examines the practice of teaching English in military educational institutions of foreign countries, the effectiveness of the formation of professional competencies, pedagogical conditions and features of the formation of general and professional competencies of students in the study of professional discipline.

Key words: communicative and military-practical, pedagogical conditions for the formation of professional competence.

Hozirgi kunda ingliz tili xalqaro aloqa vositasi ekanligi sababli, uni o'qitish fuqarolik universitetida ham, oliy harbiy maktablarda ham zamonaviy ta'lim tizimining muhim elementidir. Shuningdek, hozirgi beqaror xalqaro vaziyatda harbiy mutaxassislarning kasbiy ta'limiga katta e'tibor berilayotgani, bu ularning tayyorgarligi, o'qitish uslublari, shu jumladan, ingliz tilini biladigan yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj dolzarb bo'lib qoldi. Zamonaviy mutaxassis uchun nafaqat chet ellik sheriklar bilan muloqot qilish, balki professional faoliyatda ingliz tili bo'yicha bilimlardan foydalana olish ham muhimdir. Tilni bilish samarali muloqotga yordam beradi, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat va o'zini anglashning universal vositasidir.

Zamonaviy sharoitda harbiy mutaxassisni tilga tayyorlashning o'ziga xos xususiyati uning assimilyatsiya yo'nalishidir lingvistik va ijtimoiy-madaniy bilimlar, shuningdek, intellektual, fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish, harbiy-professional va chet tili orqali kommunikativ vazifalardir. Bizning tadqiqotimiz



bo'yicha, «tilni o'qitish» atamasi o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim kabi tushunchalarni ochib berishni talab qiladi, o'quv jarayonini faollashtirish, chet tilidagi nutq faoliyati, o'quvchilarning nutq faoliyati motivatsiyasi, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir[1].

Harbiylashtirilgan o'quv yurtlari o'quvchilar hayoti va o'quv jarayonining barcha jihatlarini qat'iy tartibga solish bilan bog'liq, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarni qiziqitirish, bilish faoliyatini amalga oshirish va ijodkorlikning namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratishdir har birining amaliy mashg'ulotlarda va sinfdan tashqari mustaqil ish jarayonida dars paytida ham qobiliyatlarini aniqlashdir, chunki chet tilini o'zlashtirish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ongli ravishda o'zlashtirishni nazarda tutadi intellektual faoliyatni faollashtirishga asoslangan material, o'quv jarayonining yuqori motivatsiyasini yaratishga yordam beradigan muayyan shartlarga rioya qilish kerak, ya'ni:

- chet tilini o'qitishni profilashtirish.

- yuqori ma'lumotli tarkibni, o'quv materiallarining zamonaviyligi va dolzarbligini ta'minlash;

- sinfdan tashqari mustaqil ishning turli shakllaridan foydalanish: ilmiy-tadqiqot ishlari, o'quvchilarning ilmiy konferentsiyalari, boshqalarni o'rganish uchun to'garaklar tilning jihatlarini, turli darajadagi chet tilidagi musobaqalar va olimpiadalar va boshqalar.

Ushbu tadbirlar ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi va ijobiy chet tilini o'rganish uchun motivatsiya bo'ladi[2].

Jumladan harbiy akademik litseylarida ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarga qo'yiladigan talablar nutq faoliyatining turlari – tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuvni hamda til materiallari – leksika, grammatika, talaffuzni o'rgatish natijasida ularning chet tilda kommunikativ (axborot almashish) kompetensiyasi shakllantiriladi.

Davlat ta'lim standartiga asosan maktablarning 1-2-bosqichida chet tilni o'qitish shartli ravishda uchinchi bosqich B1 (B1+) hisoblanadi. Har bir bosqich oxirida o'quvchilar quyidagi malakalarni egallashlari lozim.

Turli sohalarga kasbga oid bo'lgan audio, video lavhalar, media mahsulotlar, internet tarmogidagi ma'lumotlar, televideniye va radio eshittirish, filmlarni tushunish, va asosiy g'oyasini ajrata olish, ishga yoki kundalik hayotga taalluqli so'zlar, so'z birikmalari hamda iboralar bilan o'z ma'nosida ishlatilgan nutqni tushunish, audiomatni asosida bahs-munozaralarda ishtirok eta olish, tili o'rganilayotgan mamlakatga tashrif mobaynidagi turli xil vaziyatlardagi suhbatlarni tushunish, atrof-muhitdagi voqealarga oid ma'lumotlarni asosiy g'oyasini tushuna olish, tahlil qilish va munosabat bildirish olish, tili o'rganilayotgan mamlakatlarning davlat, boshqaruv va ta'lim tizimi, kasbga



yo'naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog'i, mediata'lim, adabiyot va san'at kabi mavzulardagi matnni tahlil qila olish va munosabatini bildirish, iboralarni ma'nodosh so'zlar va so'z birikmalari, iboralarga o'zgartira olish, ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni nutq jarayonida qo'llay olish, o'z sohasiga aloqador tanish mavzularda ishonch bilan muloqotga kirisha olish, fikr almashish, ma'lumotni tekshira olish va munosabat bilira olish, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish va munosabat bildiradi olishi, turli sohalarga oid notanish matnni o'qiy olish, noatnash matndan kerakli ma'lumotni ajrata olish, biror voqea-hodisa tasvirlangan ettirilgan ma'limot, matn va yangiliklarni tushuna olish, tahlil qilish va munosabat bildirish, bir daqiqada 170-190 ta so'z tezligida o'qiy olish, o'qilgan matn asosida murakkab mashqlar bajara olish, o'zi uchun qiziqarli bo'lgan mavzuda o'rtacha 250-300 tagacha so'zdan iborat matn tuza olish, turli sohalarga oid matnni tahlil qila olish va munosabatini bildirish, notanish mavzuda oz fikrini asoslar ishtirokida bayon qila olish, tarjimai hol yoza olish, so'rovnomalar to'ldira olish, xat (norasmiy), e-mail, SMS, eslatma, xabar, hisobot, maqola va kundaliklarni yozishning usul va shakllarini to'g'ri qo'llay olish, yozilgan ishni tekshirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qila olish va to'g'rilab qaytadan yoza olish, matn va ma'lumotlar asosida murakkab mashqlar bajara olishi muhim.

Harbiy akademik litseylarda o'quvchilarga chet tilini o'qitish metodikasi uch bosqichda amalga oshiriladi. Har bir qadam quyidagilarga asoslangan:

- semestr va kurs;
- yo'naltirilgan shakllangan mustaqillik darajasi;
- ma'lum bir mustaqillik darajasini tashkil etadigan mustaqil ish turi;
- barcha matn materiallari tarkibini birlashtirgan mavzular, shakllangan mustaqillik darajasidagi mustaqil ishlarni tashkil qilishning turli manbalari;
- mustaqil ishning uyushgan shaklidagi maqsadli shakllantirish ob'ekti sifatida matnli materiallar (asosiy matnlar, matn parchalari);
- shakllantirishga yo'naltirilgan matnli materiallar asosida ishlab chiqilgan ketma-ket mashqlarning har xil turlari va soni.

Harbiy akademik litseylarni tugatgan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga yo'naltiriladi. O'quvchilarning ingliz tilida muloqat qilish kompetentligi bo'lishi kelajakda har bir harbiyning xorijiy davlatlar bilan malaka, tajriba almashishiga imkon beradi.

Rossiya harbiy maktablarida ingliz tilini o'rgatishda muhim jihat – bu umuman didaktik jarayonga samarali ta'sir ko'rsatadigan ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil qilishni tanlashdir. Harbiy maktablarda ingliz tilini o'rganishda o'quvchilar amaliy mashg'ulotlar, sinfda bajaradigan amaliy mashg'ulotlar doirasida amalga oshirilganligi sababli, harbiy kasbiy faoliyat sohasidagi ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni barcha turdagi amaliy ishlarga bo'ysungan holda amalga oshiriladi. Ushbu ta'lim



muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi shu tarzda qurilganki, chet el o'qish nutq amaliyoti, guruh ishi va yozma topshiriqlar bilan o'zaro bog'liqdir. Ta'lim jarayonining kommunikativ va harbiy-amaliy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratiladi, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqasi jarayonida turli faol o'qitish usullaridan (o'yinlar, muammoli vazifalar va boshqalar) foydalanish bilan qo'llab-quvvatlanadi[3].

Xorijiy tillarni o'qitish modelining asosini chet el tilini o'qitish jarayonida asosiy malakalarni shakllantirish orqali bo'lajak harbiy mutaxassisni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlashga imkon beradigan kompetensiya yondashuvi qoidalari tashkil etadi.

Nutq faoliyati tizimining (o'zaro ta'sir, o'zaro idrok etish), nutq mexanizmlari tizimining kontekstual munosabatlarida chet tilini tizimli ravishda o'qitishga imkon beradigan tizim-faoliyat yondashuvi qoidalari, (nutqni ishlab chiqarish, nutqni idrok etish, nutqning o'zaro ta'siri) va ona va chet tillarining tizimli aloqalari, kelajakdagi ofitserlarning kognitiv faoliyatini chet tili orqali yangi bilimlarni olishga va ulardan harbiy-kasbiy vazifalarni hal qilishda foydalanishga yo'naltirishga imkon beradigan shaxsga yo'naltirilgan yondashuv qoidalari, nutq va fikrlash faoliyatini rag'batlantirishga va kelajakdagi harbiy mutaxassislarning kommunikativ kompetentsiyasini muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlashga qaratilgan kommunikativ yondashuv qoidalari, chet el madaniy hodisalarini talqin qilish uchun o'quvchilarning tayyorgarligini ta'minlaydigan, boshqa jamiyat vakillari bilan madaniyatlararo muloqotlar o'tkazishga imkon beradigan ijtimoiy-madaniy vakolatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydigan madaniy yondashuvlar[4].

O'quvchilar chet tili, chet el adabiyotidan professional darajada qimmatli ma'lumotlarni olish vositasi ekanligini anglab yetgach, mutaxassislik bo'yicha yangi bilimlarni olish zarurati nutq faoliyatining motiviga aylanadi.

Chet tillarni o'qitish jarayoni maqsadlari nomenklaturasiga hissiy sohani rivojlantirish maqsadlarini kiritish maqsadga muvofiqdir: bilimga, muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish va boshqa motivlar asosida chet el tili yordamida o'quvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, o'quvchilarga o'zlarining ichki imkoniyatlarini ochib berish, o'zini o'zi anglash yo'llarida harakat qilishda yordam berish, individual xulq-atvor va turmush tarzini rivojlantirishni rag'batlantirish.

Chet tili o'qituvchisining eng muhim maqsadi – kelgusidagi kasbiy, kognitiv va kommunikativ sharoitlarda duch kelishi mumkin bo'lgan odatiy vaziyatlarda ta'lim muammolarini hal qilish uchun chet tilidagi nutq vositalaridan foydalanishni o'rgatishdir[4].

Italiya harbiy maktablarida chet tillari har bir darsi kontekstli dialogning global taqdimotidan boshlanadi, unda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan haqiqiy kommunikativ



sharoitlarga e'tibor berish: ma'ruzachilarning rollari, kalit yoki ro'yxatdan o'tish, vaqtlar, joylar, mavzular, ...). birinchi situatsion usullarda, agar boshlang'ich vaziyat kontekstni ta'minlasa, undagi tilni o'rganish strukturalistik yondashuvga xos bo'lgan metodlar bilan amalga oshiriladi, boshlang'ich rag'batlantiruvchi naqsh mashqlari va takroriy mashqlari, o'quvchining grammatik rasmiylashtirish jarayonida yordam berishiga qaratilgan usullar bilan; keyinchalik ikkinchi avlod situatsion metodlari vaziyat tushunchasini mashqlar va sinovlarga ham kengaytiradi.

Mashg'ulotlar o'quv rejasi o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini tahlil qilishdan boshlab tuziladi, chinakam muloqot sharoitida chet tilidan doimiy foydalanish rag'batlantiriladi, og'zaki til yozma ravishda yetkazish bilan juda yaxshi qo'llaniladi.

Shuni yodda tutish kerakki, harbiy mutaxassisni zamonaviy uslubiy talablarga muvofiq kasbiy tayyorgarligi, chet tilida og'zaki va yozma muloqotlar bo'yicha mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi, bu nafaqat lingvistik va grammatik materiallarni bilishni, shuningdek ushbu bilimlarni izchil bilimga aylantirish qobiliyati, mantiqiy izchil bayonot, bu esa o'z navbatida diskursiv komponentning shakllanishiga e'tibor berish kerak degani shuningdek, harbiy maktablarda chet tilini o'qitishda ommalashgan yondashuvlardan biri bu turli xil kompetentsiyalarni shakllantirish jarayonini faollashtirishga imkon beradigan (shu jumladan, diskursiv) kompetentsiyaga asoslangan rolli o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlari, turli xil juftlik va guruh ishlarining shakllari, o'quv munozaralari, psixologik va boshqa treninglar kabi faol va interaktiv shakl va usullardan keng foydalanish zarurdir[5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Образцов П.И., Иванова О.Ю. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку на неязыковых факультетах вузов: учеб. пособие. Орел: Изд-во Орл. гос. ун-та ОГУ, 2005. 114 с
2. Баканова Ю.В., Макурина И.Ю Основные направления профессиональной языковой подготовки в военном вузе 2017
3. Лопатухина Т.А., Докучаева И.В., Рябова М.В. Интенсивное обучение иностранному языку при подготовке специалиста в военно-инженерном вузе. -Р-н-Д: РВИРВ, 2000. -С. 18-49.
4. Ганачевская, Марина Борисовна Педагогическое моделирование языковой подготовки курсантов военного вуза 2011
5. Комарова Ю.А. Дидактическая система формирования научно-исследовательской компетентности средствами иностранного языка в условиях последипломного образования. С-Пб. -2008. -с. 379



XORIJIY TILLARNI O'QITISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

S. T. AZIZOVA,

Navoiy viloyati XTXQTMO hududiy markazi
katta o'qituvchisi

Maqolada talabalarda ingliz tilida lingvistik kompetentlikni AKT dan foydalangan holda o'rgatishning o'ziga hos xususiyatlari, zamonaviy ta'lim talablari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, axborot kommunikativ texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, bilim, mahorat, sifat ingliz tili, tilni o'qitish.

The article highlights the features of teaching linguistic competence in English to students using ICT, modern educational requirements.

Key words: Higher education institution, information and communication technologies, communicative competence, linguistic competence, knowledge, skills, quality English, language teaching.

Ma'lumki chet tillar o'quv predmeti xususiyati, o'qitish jarayoni xarakteri va pedagogik–didaktik tizimni asoslovchi konkret nazariya bilan aniqlanadi. Uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limidagi mazkur xorijiy tillar o'quv predmeti o'zining maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, prinsiplari, vositalari, sharoiti va talablari bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi. Mazkur predmet o'quvchilarda alohida kommunikatsiya uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishini talab qiladi.

Bugungi kunda xorijiy tillar o'qitishning boshqa o'quv predmetlaridan farqi kompetensiyalar (lingvistik, nutqiy, til, pragmatik, sotsiolingvistik)ning hisobga olinishidir. Mazkur kompetensiya guruhlarida kommunikativ kompetensiya (Communicative competence) negizida shakllantirilishi nazarda tutilgan. Umumta'lim maktablarining o'quv-metodik ta'minotida bitiruvchilarning ta'lim mazmuni va ularning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarda ushbu lingvodidaktik g'oyaga asoslanish zarur. O'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishning lingvodidaktik talablari boshqa fanlardagidan farq qiladi, chunki bu o'quv predmetining xususiyati o'ziga xos murakkabliklarga ega. Davlat ta'lim standartlariga ko'ra, I-IX sinflarda chet tilni o'qitish, A (basic user) bosqichlaridan iborat. Bu daraja A1 va A2 bosqichlarga bo'linadi. Ta'limning birinchi bosqichi A1 "Kurtaklash" (Breakthrough) darajasi, I-IV sinflarda shakllantiriladi. A2 "Boshlang'ich" (Waystage) darajasi esa V-IX sinflarda bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi.

Jahon amaliyotida pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga doir innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lib, jumladan, ingliz tilini o'qitishda virtual texnologiyalar yordamida o'qituvchining lingvistik kompetentligini rivojlantirish; o'qitishda axborot-



kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning mavjud axborotlar makonida to'g'ri yo'nalish olishi, ongli bilish ko'nikmalari va mustaqil rivojlanish qobiliyatlarini shakllantirish; globallashuv sharoitida innovatsiya jarayonining pedagogik-psixologik jihatlarini; kompetentli yondashuv asosida pedagoglarda xorijiy til ko'nikmalarining rivojlanish darajasini diagnostika qiluvchi texnologiyalarni takomillashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda qo'shma dasturlar asosida MDH va bir qator Evropa mamlakatlari, xususan, Buyuk Britaniya va Evropa ittifoqi mamlakatlari bilan xorijda o'qish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun mamlakatimiz OTMLari bilan talabalar almashish to'g'risida ikkita tomonlama shartnomalar imzolangan. Faqat barcha mutaxassislik fanlar bo'yicha yaxshi natijalarga erishayotgan va chet tilini yaxshi biladigan talabalar ushbu dasturlarda o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishmoqda.

Yuqorida keltirilgan talablarga to'liq javob berish uchun professional chet tilini biladigan malakaga talabalariga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik tadqiqotlarda kompetentlik ta'lim samaradorligi hisoblanib, u o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakani egallashidan iborat bo'lib, shaxsning hayotiy va kasbiy vazifalarni hal etishdagi shaxsiy tajribasida namoyon bo'ladi. Avvalgi berilgan ta'riflarning mazmunini tahlil qilish asnosida shuni aytish mumkinki kompetentlik mutaxassisning ishlab chiqarish maqsadlariga erishishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalari haqida etarli bilimga ega bo'lgan faoliyat sohasida qaror qabul qilish imkonini beradi.

Mazmunining lingvodidaktik tartibga o'quvchilarda tilni o'rganish jarayonini bir nechta kompetetsiyalar orqali tashkil qilish talaba ham qo'yilgan. Umumta'lim maktabi va kasb-hunar kollejlari kompetetsiyalar asosida ingliz tilini o'rgatish, o'ziga xos jarayon bo'lib, uning samaradorligi quyidagi omillarga bo'liq:

– Ingliz tilini o'qitish orqali ta'lim mazmunini tashkil qilgan aspektlarni, bunda nutq faoliyatini turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv)ni yaxlit va izchillikda lingvistik kompetensiyaning asosi bo'lgan nutqiy kompetensiya tarkibida o'rgatish.

Lingvistik, nutqiy (kommunikativ), til, pragmatik, sotsiolingvistik va o'quv – kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish.

Fanlararo integratsiya (o'quv fanlarning o'zaro aloqadorligi)ni tashkil qilish.

Nutq faoliyati turlari (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) va shakllari (og'zaki va yozma nutq) orasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash maqsadida rivojlantiruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqish.

O'quvchilarga madaniyatlararo muloqotga xos bo'lgan urf-odatlarini singdirish bilan o'z xalqi madaniyati mentalitetini chuqur anglashga o'rgatib borish.

O'quvchilarning xorijiy til bo'yicha umumiy kompetentligini rivojlantirish.

Bugungi kunda bizning ta'lim standartimizda zamonaviy tillar sohasidagi «lisoniy kompetensiya» atamasi grammatik jihatdan to'g'ri shakllar va sintaktik konstruksiyalarni qurish qobiliyatini, shuningdek mavjud chet til normalariga muvofiq tashkil etilgan nutqdagi semantik segmentlarni tushunish, bunda ular ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan alohida holatda ishlatiladi. Lingvistik kompetensiya - kommunikativ kompetensiyaning asosiy



tarkibiy qismi hisoblanadi. Grammatik strukturani shakllantirish, mazmunli iboralarni tuzish uchun soʻz va grammatik qoidalarni bilmasdan, verbal muloqotni rivojlantirishning imkonini yoʻq. Hozirgi davrda yosh mutaxassis (OTM bitiruvchisi) oldiga qoʻyilgan zamon talabi (qoʻshimcha ravishda) chet tilini oʻrganishi boʻlib, Koʻplab talabalarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish uchun uzoq yillar talab etiladi. Xorijiy tillarni oʻrganish muhitining yoʻqligi esa koʻpincha til oʻrganish yoki xorijiy til oʻrganish madaniyati darajasini oshirishga yordam bermayapti. Shu munosabat bilan bizning taʼlim tizimimiz oldida xorijiy tillarni zamonaviy jamiyat (ishlab chiqarishni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish) talablariga muvofiq bilish sohasidagi kompetentlik darajasini oshirish vazifasi turibdi.

Zamonaviy inson dunyoqarashining yangi tarkibiy qismi turli xildagi tizimlarda sodir boʻladigan axborot jarayonlaridir. Axborot jarayoni har qanday natijani (maqsadni) olish uchun maʼlumot (maʼlumotlar, maʼlumotlar, faktlar, fikrlar, gipotezalar, nazariyalar va boshqalar) boʻyicha amalga oshiriladigan ketma-ket harakatlar (operatsiyalar) majmui sifatida koʻrib chiqiladi. Bizning fikrimizcha, bu jarayonlarni oʻrganish barcha mavjud vositalar, jumladan, kompyuter va uning dasturiy taʼminoti yordamida amalga oshiriladi. SHu bilan birga chet tilini oʻqitishning asosiy masalasi chet tilini kompyuter va uning dasturiy mahsulotlari yordamida oʻrganishdir. Ushbu faoliyat axborot jarayonlarini amalga oshirishning usul va vositalari majmui boʻlgan kompyuter va axborot texnologiyalari asosida amalga oshiriladi.

Axborot jarayonlarining natijasi axborot resursi vazifasini bajaruvchi axborotdir. Boshqa resurslar kabi axborot resursi ham axborotni saqlash va undan foydalanishda malakali yondashishni talab qiladi. Axborot resursi inson aqliy faoliyatining mahsulidir. Lingvistik taʼlimi tarkibida boshqa xalqlarning madaniyati va tilini bilishda ijtimoiy tajriba elementlari mavjud. Taʼlim mazmuni va tajriba oʻrtasidagi munosabatlar mexanizmini aniqlash V.V. Kraevskiy va A.V. Xutorskiyning taʼkidlashicha, tajribaning rivojlanishi bizga «... zamonaviy pedagogik adabiyotda kompetensiya deb ataladigan murakkab madaniy shunga oʻxshash xatti-harakatlar turlarini bajarish qobiliyatini ...» shakllantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida. PQ 1875. “Xalq soʻzi” 2012 y., 240 (5660) – son

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha “Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiʼi va yangilanish sari. – T.: Gʻ. Gʻulom, 2017. – B. 70-72.

3. Begimqulov U.Sh., Pedagogik taʼlim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. ped.fan.dokt. ilmiy dar. uchun diss. – T.: 2007. – 305

4. Rahimov B.X., Boʻlajak oʻqituvchida sotsiolingvistik-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Ped. fan. nom. ... diss. - Toshkent, 2004. 161



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.*

*«Uzluksiz ta'lim» jurnali O'zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha ilmiy jurnallar
ro'yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to'liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 20.04.2021 y. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.